Yarimo'tkazgich sanoatida foydalanish uchun texnik kremniyning faqat kichik bir qismi yanada tozalanadi. Bunday kremniy tozalash quyidagicha sodir bo'ladi. Kukunli TK trixlorsilan SiHCl_3 olish uchun maxsus reaktorda 300°C da xlorid kislotasi bilan aralashiriladi:



Bu reaksiya jarayonida Fe, Al va B kabi aralashmalar galoid birikmalarini (FeCl_3 , AlCl_3 va BCl_3) hosil qiladi. SiHCl_3 ning past qaynash nuqtasi, ya'ni $31,8^\circ\text{C}$. Qo'shimcha moddalardan tozalash uchun distillashdan foydalaniladi. Olingan SiHCl_3 tarkibida Al, P, B, Fe, Cu yoki Au kabi elektr faol aralashmalarining konsentratsiyasi har milliard kremniy atomiga bir atomdan kam bo'ladi [8].


Trixlorsilandan foydalanadigan texnologiyalarda kremniy kamaytirish uchun asosan Siemens jarayoni qo'llaniladi (Siemens tomonidan ishlab chiqilganligi sababli shunday nomlangan): kremniy kukuni yuzasida (yoki suyuq qatlamdagi maydalangan) gazsimon silanlar va vodorod aralashmasi oqimida silan kamayadi va erkin kremniy cho'kiladi:



Bu reaksiya katta vakuumli kameralarda 200–300 soat davom etadi, natijada diametri 150–200 mm bo'lgan o'ta toza polikristalli kremniy hosil bo'ladi [9,10].

Tadqiqotning maqsadi. Kvars qumni boyitish orqali texnik kremniy ajratib olish va uni xlorid kislotasi bilan sintez qilish orqali toza kremniy olish va yarimo'tkazgichli asboblarda yasashda foydalanish.

Tadqiqot metodikasi va vositalari. Ishda Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidan olib kelingan kvars qumidagi kremniy (IV) oksidining va boshqa qo'shimcha moddalar miqdorlari rentgen fazaviy tahlil usulida aniqlandi, so'ngra kvars boyitish uchun uning ustida quyidagicha jarayonlar bajarildi:




Kvars qumi – silikatlar sinfiga mansub eng ko'p tarqalgan mineral. Kimyoviy formulasi SiO_2 . Kvarsning kristali 2 ta modifikatsiyasi ma'lum: geksagonal kvars $870-573^\circ\text{C}$ temperatura oralig'ida turg'un va trigonal kvars 573°C dan pastda turg'un. Trigonal kvars tabiatda eng ko'p tarqalgan. Kvarsning kristallari, donalari, agregatlarining rangi har xil: shaffof - tog' billuri, binafsha - ametist (safsar), kulrang - rauxtopaz, qora - morion, tillarang - sitrin va boshqa.

Rangining har xil bo'lishi strukturaviy defektiga bog'liq. Murakkab ranglilari ham uchraydi, ularga boshqa minerallarning mayda zarralari qo'shilgan bo'ladi. Kvarsning yashirin kristall xillari agat va xalsedon nihoyatda ingichka tolasimon tuzilmalardan iborat. Ultrabinafsha va qisman infraqizil nurlarni o'tkazadi. Sun'iy kvarsni SiO_2 ning suvli eritmasidan yuqori bosim va temperaturada olinadi. Kvars turli tog' jinslarining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Kvars pyezyelektrik xossaga ega. Qattikligi 7. Zichligi 2, 65 g/sm³. Suyuqlanish harorati 1710°C , soviganda kvars oynasi deb ataluvchi jismga aylanadi. Monokristallari kam uchraydi va juda yuqori baholanadi [11].


Magniy (Magnesium), Mg - davriy jadvalning II guruhiga mansub kimyoviy element; ishqoriy - yer metallariga kiradi. Tartib raqami 12, atom massasi 24,305. Tabiiy magniy 3 ta barqaror izotopdan iborat: ^{24}Mg (78,60%), ^{25}Mg (10,11%), ^{26}Mg (11,29%). Uchta sun'iy radioaktiv izotopi (^{23}Mg , ^{27}Mg , ^{28}Mg) olingan. Magniy massa jihatidan yer po'stining 2, 35% ni tashkil qiladi. Oddiy sharoitda ishqorlarning suvdagi eritmasida erimaydi [12].

Vodorodli muhitda $400^\circ\text{C}-500^\circ\text{C}$ gacha qizdirilganda gidrid MgH_2 hosil qiladi. Magniyni $500^\circ\text{C}-600^\circ\text{C}$ gacha oltingugurt yoki SO_2 va H_2S bilan qizdirilganda sulfid MgS hosil bo'ladi. MgF_2 himoya pardasini hosil qila olishi sababli fluorid kislotada erimaydi. Ishqoriy bikarbonat va ammoniy tuzlari eritmalarida eriydi. Magniy tabiatdagi eng keng tarqalgan elementlardan biridir. Ayniqsa, dengiz suvida magniy ko'p. Ichimlik suvi tarkibida magniy tuzlar mavjud; agar suvdagi magniy miqdori ko'p bo'lsa, bunday suv "qattiq suv" deb nomlanadi [13].


Tajribaviy qism. Bizning tadqiqot ishida Sherobod tumani "Jerdanak" kvars konidan olib kelingan kvars qumi dastlab rentgen fazaviy sifat va miqdoriy tahlilini Yaponiyada ishlab chiqarilgan "SHIMADZU" XRD-6100 poroshokli difraktometr qurilmasi yordamida amalga oshirildi. Tahlil qilingan qum boyitilib, rentgen fazaviy usulda qayta tahlildan o'tkazildi. Boyitilgan kvars qumidan 4 g va magniydan 2 g olinib, bir xil massa hosil bo'lguncha aralashtirildi. Hosil qilingan aralashma 750°C li mufel pechiga 5 soat davomida qaytarildi (3-reaksiyaga muvofiq). Olingan mahsulot distillangan suvda 4-5 marta, keyin esa sulfat kislotaning 35% li eritmasi yordamida 2-3 marta yuvildi. Olingan mahsulot rentgen fazaviy usulda tahlil qilindi.



1-rasm. Tabiiy kvars qumining rentgen fazaviy tahlili (a) va tasviri (b)



2-rasm. Boyitilgan kvars qumining rentgen fazaviy tahlili (a) va tasviri (b)



3-rasm. Qaytarilib tozalangan kvars qumining rentgen fazaviy tahlili (a) va tasviri (b)

Natijaning tahlili. 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, "Jerdanak" koni kvars qumi namunasi ustida o'tkazilgan rentgen tahlilida 98-99% kremniy (IV) oksidi (SiO_2) mavjudligi aniqlandi. 2-rasmda boyitilgan kvars qumining rentgen fazaviy strukturasi berilgan. Bunda rentgen nurlari $25-30^\circ$ burchak ostida tushirilganda 99,99% ekanligi aniqlandi. 3-rasmda magniy yordamida (3-reaksiyaga asosan) 750°C haroratda qaytariganda SiO_2 dan texnik kremniy ajratib olingandagi tahlili keltirilgan. Bunda ham rentgen nurlari $25-30^\circ$ burchak ostida tushirilganda texnik kremniy unumi ortganligi aniqlandi.

Xulosa. Demak, ushbu maqolada elektrotexnika sohasining asosiy elementi kremniy olishning kimyoviy usuli keltirildi. Bizning tadqiqot ishimizda o'rganilgan "Jerdanak" kvars qumi tarkibida SiO_2 foizi yuqori ekanligi aniqlandi. Qaytarilgan kremniy texnik kremniy bo'lib, tozaligi 90-95%, qaytarilish reaksiyasi unumi 70-72% ni tashkil qildi. Olingan texnik kremniy silan yoki kremniy (IV) xloridga o'tkazib, keyin ularni parchalash yo'li bilan yuqori tozalikda kremniy olish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Баранов Н.Н. Прямое преобразование энергии для автономной энергетики. // Энергия: экономика, техника, экология. - 2000. - №8. - с.23-34.
2. Стребков Д.С. Роль солнечной энергии в энергетике будущего // М.: Энергетическая политика, 2005. - №2. - С.27-36.
3. Kozlov A.V, Yurchenko A.V. The long-term prediction of silicon solar batteries functioning for any geographical region. // Proceedings of 22st European PV Solar Energy Conference and Exhibition, Milan 3-7 September 2007 pp. 3019 - 3022
4. Атаев Э.К., Матъякубов А.А., Батманов Б.Х. Обогащение КАРАКУМского кварцевого песка. Мары, Туркменистан. 2022г
5. X. Su, Q. Wu, J. Li et al., "Silicon-based nanomaterials for lithium-ion batteries: a review," *Advanced Energy Materials*, vol. 4, no. 1, article 1300882, 2014.
6. Абдурахманов Б.М., Курбанов М.Ш., Вечер А.К.. Физические основы повышения рентабельности производства технического кремния и кремниевых сплавов // Узбекский физический журнал 2020. V. 22, №3, с.188-198. (10.00.00; №5).
7. Будагян Б.Г., Шерченков А.А., Бердников А.Е., Черномордик В.Д. Высокоскоростной метод осаждения аморфного кремния. *Микроэлектроника*, 2000, т. 29, вып. 6, с. 442-448.
8. Брага А. Б., Морейра С. П., Зампери П. Р., Бакчин Дж. М., Мей П. Р., Новые процессы производства поликристаллического кремния солнечного качества: обзор, Солнечные энергетические материалы и солнечные элементы, том 92, выпуск 4, 2008 г., стр. 418-424.
9. Соколов Ф.П., Швецова-Шиловская Т.Н., Сизых И.И., Сухова А.В. Анализ кинетических закономерностей процесса прямого синтеза трихлорсилана. *Химическая технология*. - 2013. - № 9- С. 520 - 528
10. Чундур С.К., Инновации в инерции: обзор рынка CVD-реакторов типа Siemens, *Photon International* 4 (2013), стр. 114-126.
11. Götze, J.; Möckel, R. *Quartz: Deposits, Mineralogy and Analytics*; Springer: Berlin/Heidelberg, Germany, 2012; pp. 1-360.
12. Скальный А. В. *Химические элементы в физиологии и экологии человека*. - М.: Издательский дом «ОНИКС 21 век»: Мир, 2004. - 216 с.
13. Громова О. А. *Магний и пиридоксин: основы знаний*. - М.: ПротоТип, 2006. - 234 с.



Даминбек ЗИЯТОВ,
Студент Национального университета Узбекистана
E-mail: ziatovdamin@gmail.com

Рецензент: д.х.н., проф. З.Ч. Кадирова

СИНТЕЗ И СТРУКТУРА РАЗНОЛИГАНДНЫХ КООРДИНАЦИОННЫХ СОЕДИНЕНИЙ КОБАЛЬТА (II) С ДИАЛКИЛДИТИОФОСФАТ-ИОНАМИ И АЗОТИСТЫМ ГЕТЕРОЦИКЛОМ

Аннотация

Впервые синтезирован разнолигандный комплекс $[Co(MAB)(i-ProPS_2)_2]$ и изучен его строения методами рентгенофазового, дериватографического, рентгеноструктурного анализа и ИК-спектроскопии. Подтверждено участие диалкилдитиофосфорных и аминогрупп в комплексообразовании. На основе структурных данных рассмотрен характер взаимодействия молекул и способы их упаковки в кристаллических структурах.

Ключевые слова: синтез, разнолигандный комплекс, кристаллическая структура, диизопропилдитиофосфат кобальта, 2-амино-1-метилбензимидазол.

SYNTHESIS AND STRUCTURE OF MIXED LIGAND COORDINATION COMPOUNDS OF COBALT (II) WITH DIALKYLDITHIOPHOSPHATE IONS AND NITROGEN HETEROCYCLE

Annotation

For the first time, a mixed ligand complex $[Co(MAB)(i-ProPS_2)_2]$ was synthesized and its structure was studied by XRD phase, X-ray structural, derivatographic analysis and IR spectroscopy. The participation of dialkyldithiophosphorus and amino groups in complex formation was confirmed. Based on the structural information, the nature of the interaction of molecules and the methods of their packing into crystal structures are considered.

Key words: synthesis, mixed ligand complex, crystal structure, cobalt diisopropyl dithiophosphate, 2-amino-1-methylbenzimidazole.

KOBALT (II) NING DIALKILDITIOFOSFAT IONLARI VA AZOT GETEROTSIKLI BILAN ARALASH LIGANDLI KOORDINATSION BIRIKMALARI SINTEZI VA TUZILISHI

Аннотация

Ik marta aralash ligand kompleks $[Co(MAB)(i-ProPS_2)_2]$ sintez qilindi va uning strukturasi rentgen fazali, rentgen strukturaviy tahlillar va IQ spektroskopiyasi yordamida o'rganildi. Kompleks hosil bo'lishda dialkilditiofosfor va amino guruhlarining ishtiroki tasdiqlandi. Strukturaviy ma'lumotlarga asosan, molekullarning o'zaro ta'sirining tabiati va ularni kristall tuzilmalarga oqadoqlanish usullari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: sintez, aralash ligandli kompleks, kristall tuzilishi, kobalt diizopropilditiofosfat, 2-амино-1-метилбензимидазол.

Введение. Координационные соединения d-металлов с органическими лигандами, содержащими различные донорные атомы, являются хорошими моделями для изучения проблемы взаимного влияния лигандов в комплексах.

Производные 2-аминобензимидазола привлекли особое внимание благодаря своей биологической активности. Эти соединения обладают широким спектром биологической активности, такой как фунгицидная, бактерицидная и противовирусная [1-3]. Показано также, что широкий спектр биологической активности производных бензимидазола обусловлен высокой π -избыточностью этой гетероароматической структуры [4], что делает возможным образование за счет π - π стэкинга прочных комплексов «лиганд-биомшень» [5]. С химической точки зрения гетероциклические бензимидазолы представляют интерес из-за их большой универсальности в качестве лигандов, которая обусловлена наличием нескольких потенциальных донорных атомов, их гибкостью и способностью координировать свои действия как в нейтральной, так и в депротонированной формах. В медицинской практике нашли применение производные 2-аминобензимидазола (астемизол, мебендазол, альбендазол, медамин, беномил) [6-8].

Целью данной работы является синтез, изучения свойств и структур координационного соединения $Co[(i-C_3H_7O)_2PS_2]_2$ с 2-амино-1-метилбензимидазола (MAB) и определить характер взаимодействия молекул в их кристаллических структурах.

Объекты и методы исследования. Внутриклеточные соединения $[Co((RO)_2PSS)_3]$ были получены реакцией обменного разложения между $(RO)_2PSSK$ (DADTF) здесь $R=Et, iPr, iBu$) и солью хлорида кобальта (II) в водном растворе. Для этого к 0.24 г (0.001 моль) 6 мл $CoCl_2 \cdot 6H_2O$ в 6 мл смеси вода-этанол (1:1 по объему) добавляли при перемешивании 5 мл (0.002 моль) водного раствора $(RO)_2PS_2K$. После смешения выпал зеленый осадок. Реакционную смесь выдерживали в течение часа, затем осадок отфильтровывали под вакуумом, промывали два раза водой, высушивали на воздухе. $T_{пл}=132^\circ C$.

Синтез $[Co(MAB)((iPrO)_2PS_2)_2]$. К раствору 0,24 г (0.001 моль) $CoCl_2 \cdot 6H_2O$ в 6 мл смеси вода-этанол (1:1 по объему) добавляли 0,147 г (0.001 моль) MAB. К полученному раствору синего цвета добавили 1 мл (0.002 моль) водного раствора $(iPrO)_2PS_2K$. После смешения выпал зелено-коричневый осадок, который отфильтровывали под вакуумом, промывали два раза водой и один раз охлажденным этанолом, высушивали на воздухе.

Аналогичным способом были получены смешаннолигандные комплексы диэтил- и диизобутилдитиофосфатов кобальта (II) с МАВ. Полученные комплексные соединения устойчивы при хранении, растворимы в ацетоне, бензоле, CHCl_3 , CCl_4 , малорастворимы в спирте, не растворимы в воде.

Анализ на С, Н, S, N полученных комплексов произведен на элементном анализаторе Carlo-Erba EA-1108.

Для изучения способа координации металлов с лигандами регистрировали ИК-спектры поглощения на ИК-Фурье спектрометре System-2000 фирмы Perkin-Elmer в области 400-4000 cm^{-1} в таблетках KBr.

Для установления индивидуальности синтезированных соединений изучали рентгенограммы, снятые на рентгеновском дифрактометре Model LabX XRD-6100 (Shimadzu, Япония) с $\text{CuK}\alpha$ -излучением.

Кристаллографические параметры монокристаллов определены на дифрактометре «Crysalis Excalibur», $\text{CuK}\alpha$ -излучение от острофокусной трубки, монохроматизированное отражение от графитового кристалла. Для сбора данных использовали набор отражений. Сбор данных проводился при $T=25^\circ\text{C}$. Обработка данных выполнялась с помощью программы SHELXS86 и SHELXL93 [9]. Структуры расшифрованы прямым методом и уточнены полноматричным методом наименьших квадратов в анизотропном приближении. Атомы водорода выявлены в разностном синтезе электронной плотности и уточнены изотропно

Результаты и обсуждение. Анализ рентгенограмм синтезированных комплексов показывает, что они не содержат примесей исходных продуктов. Сравнение рентгенограмм комплексов кобальта (II) с соответствующими лигандами позволяет заключить, что они отличаются друг от друга как по межплоскостным расстояниям, так и по интенсивностям линий, следовательно, соединения имеют индивидуальную кристаллическую решетку (рис.1).




Рис. 1. Рентгенограмма: а) $[\text{Co}((\text{RO})_2\text{PSS})_3]$; б) $[\text{Co}(\text{MAB})((i\text{PrO})_2\text{PS}_2)_2]$

Была определена молекулярная и кристаллическая структура 5-координационного разнолигандного соединения $(i\text{PrO})_2\text{PS}_2\text{H}$ с МАВ и на основе структурных данных рассмотрен характер взаимодействия молекул и способы их упаковки в кристаллических структурах. Основные кристаллоструктурные данные приведены в таблицах 1-2.

Таблица 1. Основные межатомные расстояния d (Å) в структуре комплекса $[\text{Co}(\text{MAB})((i\text{PrO})_2\text{PS}_2)_2]$

Atom1	Atom2	Length	Atom1	Atom2	Length
Co1	S1	2.6553(3)	P2	O4	1.5775(2)
Co1	S2	2.3041(3)	P1	O1	1.5727(1)
Co1	S3	2.3327(2)	P1	O2	1.5790(2)
Co1	S4	2.5878(2)	P2	O3	1.5747(2)
Co1	N1	2.0167(2)	O4	C18	1.4348(1)
S1	P1	1.9708(2)	S4	P2	1.9715(2)
S2	P1	2.0042(2)	S3	P2	2.0025(2)

Как видно из рисунка 2, молекула имеет искаженное тригонально-бипирамидальное 5-координационное строение. Металлоцентр находится в немного искаженной сфере N^1S^4 -координации, включающей S-S-донорные атомы диизопропилдитиофосфата и атом *эндо*-циклического азота бензимидазола. Углы SCoS внутри 4 членного хелатного цикла имеют небольшие отклонения и равны 82.90 - 80.96° . Окружение атомов фосфора искаженно-тетраэдрическое (углы и SPS равны 110.4 , 108.7° и OPO 95.71 , 100.56° , соответственно), связь P-S равна 1.971 и 2.004 Å, расстояния P-O (1.573 - 1.579 Å) соответствуют одинарным связям.

Координационная связь Co-N локализована на *эндо*-циклическом N-атоме и длины связи, углы в бензимидазольном лиганде практически не отличаются от аналогичных структур 2-амино-1-метилбензимидазол хлоргидрата и 2-амино-1-метилбензимидазол дихлоркобальта (II). Аминогруппа копланарна с метильной группой (торсионный угол - $\text{C}^8\text{-N}^2\text{-C}^7\text{-N}^3$ равен 3.14°), длины связи Co-N (2.017 Å), связи Co-S лежат в диапазоне 2.304 - 2.665 Å и сопоставимы с известными для комплексов дитиофосфорных кислот, содержащих лиганд в аналогичной ориентации.

Таблица 2. Основные валентные углы φ (град) в структуре комплекса $[\text{Co}(\text{MAB})((i\text{PrO})_2\text{PS}_2)_2]$

Атом1	Атом2	Атом3	Углы	Атом1	Атом2	Атом3	Углы
S1	Co1	S2	80.96	S1	P1	O2	114.45
S1	Co1	S3	92.3	S2	P1	O1	112.28

S1	Co1	S4	173.5	S2	P1	O2	111.2
S1	Co1	N1	89.9	O1	P1	O2	95.71
S2	Co1	S3	121.29	S3	P2	S4	110.38
S2	Co1	S4	97.76	S3	P2	O3	111.79
S2	Co1	N1	122.28	S3	P2	O4	105.96
S3	Co1	S4	82.9	S4	P2	O3	112.47
S3	Co1	N1	115.9	S4	P2	O4	115.22
S4	Co1	N1	96.12	O3	P2	O4	100.56
Co1	S1	P1	80.47	Co1	N1	C1	127.14
Co1	S2	P1	89.23	Co1	N1	C7	128.46
Co1	S3	P2	86.38	S1	P1	S2	108.73
Co1	S4	P2	80.29	S1	P1	O1	114.09

Дитиофосфатный лиганд обычно координируется к кобальту бидентатно $\text{Co}[\text{S}_2\text{P}(\text{OMe})_2]_3$, $\text{Co}[\text{S}_2\text{P}(\text{iPrO})_2]_3$, $[\text{Co}\{\text{S}_2\text{P}(\text{OMe})_2\}_2\text{PPh}_3]$, $[\text{NMe}_4][\text{CoCl}\{\text{S}_2\text{P}(\text{OMe})_2\}_2]$, $\text{Co}[\text{S}_2\text{P}(\text{OEt})_2] \cdot 0.5\text{H}_2\text{O}$, $[\text{Co}\{\text{S}_2\text{P}(\text{O-Cy})_2\}_2 (\text{C}_5\text{H}_5\text{N})_2]$ and $[\text{Co}\{\text{S}_2\text{P}(\text{OEt})_2\}_2\text{C}_{24}\text{H}_{26}\text{O}_2\text{N}_4]$, $[\text{Co}\{(\text{ArO})_2\text{PS}_2\}(\text{C}_5\text{H}_5\text{N})_2]$, $[\text{Co}\{(\text{ArO})_2\text{PS}_2\} (3,4\text{-CH}_3\text{-C}_5\text{H}_3\text{N})_2]$ [10]. Смешаннолигандные комплексы с азот и фосфорсодержащими основаниями Льюиса имеют искаженную бипирамидальную или октаэдрическую геометрию, где дитиофосфаты могут находиться в экваториальных или аксиальных позициях. Обычно гетероатом кислоты Льюиса находится в экваториальной плоскости и способствует стабилизации комплекса.




Рис. 2. Строение комплекса $[\text{Co}(\text{MAB})(\text{iC}_3\text{H}_7\text{O})_2\text{PS}_2]_2$ и упаковка структурных единиц в кристалле

В синтезированном комплексе координационная геометрия вокруг $\text{Co}(\text{II})$ – искаженная тригональная бипирамида, экваториальная плоскость содержит Co , N , S_2 и S_3 атомы. Углы в экваториальной плоскости близки к 120° ($\text{S}_2\text{-Co1-S}_3$ 121.29 , $\text{S}_2\text{-Co1-N1}$ 122.28 , $\text{S}_3\text{-Co1-N1}$ 115.9°), атомы серы в аксиальных к экваториальной плоскости позициях практически коллинеарны (S1-Co1-S_4 173.5°). Связи Co с аксиальными атомами серы (Co1-S_4 $2.5878(2)$ и Co1-S_1 $2.6553(3)$) значительно длиннее, чем с экваториальными атомами серы Co1-S_2 $2.3041(3)$, Co1-S_3 $2.3327(2)$.

В целом можно рассматривать образование тригонально-бипирамидальной структуры как вынужденное, из-за невозможности достигнуть $\text{KЧ} = 6$, вследствие большого размера лиганда

Сопоставление ИК спектров свободного MAB и диалкилдитиофосфата кобальта по сравнению с их смешаннолигандными комплексами показало, что в ИК спектре наблюдаются все характерные полосы валентных и деформационных колебаний $-\text{NH}_2$, $-\text{NH}$, $\text{C}=\text{N}$ групп MAB , а также P-O-R , P-O , P=S , P-S- групп DADTF . Для комплексов наблюдается уширение полос $\nu(\text{NH})$ и $\nu(\text{CH})$, которое может объясняться, как участием в координации аминогруппы, так и изменением характера межмолекулярных взаимодействий.




Рис. 3. ИК-спектры комплекса $[\text{Co}(\text{MAB})((\text{iPrO})_2\text{PS}_2)_2]$

В ИК-спектре разнолигандного комплекса $[\text{Co}(\text{MAB})((\text{iPrO})_2\text{PS}_2)_2]$ кроме полос валентных колебаний P=S и P-S- (при 652 , 635 cm^{-1} и 557 , 539 cm^{-1} , соответственно) наблюдаются полосы, связанные с валентными и деформационными колебаниями NH -групп в $3425\text{-}3338$ и $1629\text{-}1597$ cm^{-1} , соответственно, которые смещены на $15\text{-}30$ cm^{-1} по сравнению с MAB (рис. 3). Дополнительным доказательством образования координационной связи служит появление полос поглощения при $411\text{-}441$ cm^{-1} в ИК-спектре комплекса, отсутствующих в ИК спектре лиганда MAB , отнесенные согласно [11] к валентным колебаниям связей N-M , что свидетельствует о координации.

Электронный спектр соединения $[\text{Co}(\text{MAB})((i\text{PrO})_2\text{PS}_2)_2]$ имеет перегибы и максимумы при 245, 283, 333 и 418 нм (рис.4). Так как $\text{Co}(\text{II})$ имеет электронную конфигурацию d^7 основным термом является 4F с низколежащим возбужденным термом 4P [12].

Закключение. Таким образом, на основании результатов РСА, ИК-спектроскопии, элементного, рентгенофазового анализов установлены состав и структура комплексов $[\text{Co}(\text{MAB})((\text{RO})_2\text{PS}_2)_2]$. Показано, что в структуре комплексов наблюдается тригонально-бипирамидальная N^1S^4 -конфигурация ($[\text{Co}(\text{MAB})((i\text{PrO})_2\text{PS}_2)_2]$) с бидентатно координированными дитиофосфат-ионами. Дополнительно стабилизируется островная мономерная молекулярная структура без водородных связей




Рис.4. Электронные спектры комплекса $[\text{Co}(\text{MAB})((i\text{PrO})_2\text{PS}_2)_2]$

ЛИТЕРАТУРА

1. Ünal A., Eren B. FT-IR, dispersive Raman, NMR, DFT and antimicrobial activity studies on 2-(Thiophen-2-yl)-1H-benzo [d] imidazole //Spectrochimica Acta Part A: Molecular and Biomolecular Spectroscopy. – 2013. – V. 114. – P. 129-136;
2. Badran A. S., Ibrahim M. A. Synthesis, spectral characterization, DFT and in silico ADME studies of the novel pyrido [1, 2-a] benzimidazoles and pyrazolo [3, 4-b] pyridines //Journal of Molecular Structure. – 2023. – V. 1274. – P. 134454.
3. Alamshany Z. M., Tashkandi N. Y., Othman I. M., Anwar M. M., Nossier E. S. New thiophene, thienopyridine and thiazoline-based derivatives: Design, synthesis and biological evaluation as antiproliferative agents and multitargeting kinase inhibitors// Bioorganic chemistry. -2022. -V.127. -P. 105964.
4. Krishnakumar V., Seshadri S., Muthunatsen S. Analysis of vibrational spectra of 5, 6-dimethyl benzimidazole based on density functional theory calculations// Spectrochimica Acta Part A: Molecular and Biomolecular Spectroscopy. -2007. -V. 68. -N3. -P.811-816.
5. Bansal Y., Silakari O. The therapeutic journey of benzimidazoles: A review //Bioorganic & medicinal chemistry. – 2012. – V. 20. – N 21. – P. 6208-6236.
6. Wang X., Ling N., Che Q.T., Zhang Y.W., Yang H.X., Ruan Y., Zhao T.T. Synthesis, structure and biological properties of benzimidazole-based Cu (II)/Zn (II) complexes //Inorganic Chemistry Communications. – 2019. – V. 105. – P. 97-101.
7. Veerasamy R., Roy A., Karunakaran R., Rajak H. Structure–Activity Relationship Analysis of Benzimidazoles as Emerging Anti-Inflammatory Agents: An Overview //Pharmaceuticals. – 2021. – V. 14. – N 7. – P. 663
8. Hsu M. J., Chen H. K., Chen C. Y., Lien J. C., Gao J. Y., Huang Y.H., Huang S.W. Anti-angiogenic and anti-lymphangiogenic effects of a novel 2-aminobenzimidazole derivative// MFB. Frontiers in Oncology. -2022. -N12, 862326.
9. Sheldrick G. M. Crystal structure refinement with SHELXL // Acta Crystallographica Section C: Structural Chemistry. – 2015. – V.71. – N.1. – P. 3-8
10. Kumar S., Khajuria R., Jassal A.K., Hundal M.S., Pandey S.K. Syn-thesis and structural elucidation of new complexes of 2, 4-and 3, 5-dimethyl diphenyldithiophosphates with cobalt (II) //Acta Crystallographica Section B: Structural Science, Crystal Engineering and Materials. -2015. -V. 71(2). -P. 221-227.
11. Сурпина Л.В., Гарновский А.Д., Колодяжный Ю.В., Осипов О.А. Квантовохимический расчет энергетических параметров молекул аминобензимидазолов // Коорд. химия. -1978. - Т.4. - С.1459-1461
12. Ливер Э. Электронная спектроскопия неорганических соединений. М.: Мир. –Т.2. – 443 с.



UDK:159.9(575.1)

Alisher ISHANKULOV,
Samarqand davlat universiteti doktoranti
E-mail:ishankulov-alisher@mail.ru

Qadriiddin XALILOV,
Samarqand davlat universiteti dotsenti
E-mail:qadriiddin@mail.ru

Yuriy GALYAMETDINOV,
Qozon milliy tadqiqot texnologiyalar universiteti (Rossiya) professori
E-mail:yugal2002@mail.ru

Nurali MUHAMADIEV,
Samarqand davlat universiteti professori
E-mail:m_nurali@mail.ru

Turin politehnika universiteti professori k.f.d. O.Ruzimuradov taqrizi asosida

SYNTHESIS AND OPTICAL-SIZE PROPERTIES OF HYBRID MULTI-COMPONENT CdSe/CdS/ZnS QUANTUM DOTS

Annotation

Multilayer colloidal CdSe/CdS/ZnS quantum dots based on cadmium and zinc chalcogenides have been obtained by synthesis in "water-organic" solvents. The possibility of studying the luminescent properties of hybrid and triplet systems. High-level view of the emission intensity of samples during the growth of zinc sulfide.

Key words: multi-layer quantum dots, cadmium chalcogenides, luminescence colloidal synthesis, cadmium selenide, zinc sulfide, core-shell nanoparticles.

СИНТЕЗ И ОПТИЧЕСКИЕ- РАЗМЕРНЫЕ СВОЙСТВА ГИБРИДНЫХ МНОГОСЛОЙНЫХ CdSe/CdS/ZnS КВАНТОВЫХ ТОЧЕК

Аннотация

Методом синтеза в «водно-органических» растворителях получены многокомпонентные коллоидные квантовые точки CdSe/CdS/ZnS на основе халькогенидов кадмия и цинка. Возможность изучения люминесцентных свойств гибридных и триплетных систем. Высокоуровневый обзор интенсивности излучения образцов при нарастании сульфида цинка.

Ключевые слова: многослойные квантовые точки, халькогениды кадмия, люминесцентный коллоидный синтез, селенид кадмия, сульфид цинка, наночастицы ядро-оболочка.

GIBRID KO'P KOMPONENTLI CdSe/CdS/ZnS KVANT NUQTALARNING SINTEZI VA OPTIK-O'LCHAM XOSSALARI.

Annotatsiya

Kadmiy va rux xalkogenidlari asosidagi ko'p komponentli CdSe/CdS/ZnS kolloid kvant nuqtalari "suv-organik" erituvchilar muhitida sintez qilish yo'li bilan olingan. Gibrid va triplet tizimlarining lyuminestsent xossalari o'rganish natijalari keltirilgan. Rux sulfidining qo'shimcha qobiq sifatida o'sishi jarayonida namunalarning nurlanish intensivligining sezilarli darajada oshishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ko'p komponentli kvant nuqtalari, kadmiy xalkogenidlari, lyuminestsent kolloid sintezi, kadmiy selenid, rux sulfid, "yadro qobiq" nanozarralari.

Kirish. Kimyo va qattiq jismlar fizikasi sohasidagi tadqiqotlarda yarimo'tkazgichli nanotizimlarga, kvant nuqtalarga (KN) qiziqish ortib bormoqda. KNlar bir qator noyob xususiyatlarga ega bo'lib, ular an'anaviy organik lyuminoforlardan o'zining ijobiy ustunligi bilan muvaffaqiyatli raqobatlashmoqda. Xususan ular o'zining fotostabilligi bo'yicha ulardan ustun bo'lib, simmetriya o'lchamli lyuminestsentlikka hamda keng spektrli diapazonda yorug'likni yutadi va har tomonlama o'rganish uchun juda maqbul bo'lgan kolloid sintez usullari asosida olinadi [1-3].

Odatda, amaliy masalalar uchun ko'pincha gibrid tuzilmalar yaratilib, ular nanoo'lchamli yarimo'tkazgich yadrosi va keng bo'shliqli qobiqdan iboratdir [4]. Ushbu nanoeterotizimlar yuqori lyuminestsent samaradorlikka ega bo'lib, bu jihat ularni turli optik faol materiallarda qo'llash uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Shu maqsad uchun mazkur tadqiqotning vazifasi qilib munosabat gibrid va triplet ko'p komponentli CdSe/CdS, CdSe/CdS/ZnS "yadro-qobiq" va "yadro-qobiq-qobiq" tizimli kvant nuqtalarining sintez hamda optik-o'lcham xossalari olish va o'rganish qilib belgilandi.

Tajribaviy qism. Kadmiy atsetat digidrat (98,0%), selenli metall kukuni (99,5%), rux atsetat digidrat (98,0%), tioatsetamid (98%) (Sigma Aldrich); olein kislotasi (sof, TU 6-09-5290-86), natriy gidroksid (analitik toza, GOST 4328-77), suvsiz natriy sulfit (analitik toza, GOST 195-77), rektifikatsiyalangan etanol (GOST 18300-87), n -geksan (sof, TU 2631-003-05807999-98), distillangan suv (pH=7).

Yutilish spektrlari Perkin Elmer Instrumental LAMBDA 35 UV/VIS Spektrometrida (ikki nurli skanerlash spektrometri) olingan.

Lyuminesstent spektrlari Cary Eclipse (Varian) spektrofluorimetrida qayd etilgan. Natijalarni olish 25 °C haroratda o'tkazildi.

Kvant nuqtalar (KN) ning gidrodinamik o'lchamlari va nanozarrachalarning o'lchamli taqsimoti 632,8 nm da diapason Malvern Zetasizer nano qurilmasida (uzatish markaziga ega bo'lgan tor yorug'lik filtri bilan jihozlangan) aniqlandi.

Mazkur tadqiqotda CdSe yadrolari glitserinli muhitda adabiyotlarda bayon etilgan usullarga muvofiq bajarildi [5-6].

CdS qobiq'ini o'stirish olingan yadro CdSe nanozarracha (NZ) larini o'z ichiga olgan reaksiyon muhitda kadmiy asetat digidrat va tioasetamid eritmalarini o'zaro qo'shish orqali amalga oshirildi [7].

CdS qo'sh qobiqli gibrid tizimlarni olish uchun esa ushbu jarayonda olingan CdSe/CdS KNlar yordamida takrorlandi.

Triplet tizimli CdSe/CdS/ZnS KNlari ham xuddi jarayonlarni takrorlash asosida olingan. Rux asetat digidrat va tioasetamid eritmalarini gibrid CdSe/CdS nanozarrachalarni o'z ichiga olgan reaksiyon aralashmasiga muayyan temperaturada kiritildi. Yadro va qobiqlarni sintez qilish uchun bir xil miqdordagi prekursorlar (0,5 mmol) qo'llanildi. Olingan barcha KNlar n-geksan bilan uch marta cho'ktirish orqali tozalandi.


Natijalar muhokamasi. CdSe KNlar suvda eruvchan prekursorlardan foydalangan holda glitserin muhitida kolloid sintez usuli orqali olindi [8]. Sintez qilingan CdSe KNlar namunalari keng diapazonda yorug'likning intensiv yutilishi bilan tavsiflanadi (1-rasm). Olingan nanozarrachalarning yutilish spektrlarida 550-560 nm gacha bo'lgan pik cho'qqisi mavjud bo'lib, bu KNlar energetik qo'zg'alishlarini vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan minimal energiyasiga to'g'ri keladi.

Mualliflar [5] ma'lumotlariga ko'ra, energetik qo'zg'alish cho'qqisining holati quyidagi formula yordamida KNlarning o'rtacha o'lchamini baholash uchun ishlatilishi mumkin:

$$D = (1,6122 \cdot 10^{-9}) \cdot \lambda^4 - (2,6575 \cdot 10^{-6}) \cdot \lambda^3 + (1,6242 \cdot 10^{-3}) \cdot \lambda^2 - 0,4277 \cdot \lambda + 41,57 \quad (1)$$

bu erda λ - yutilish spektrlaridagi birinchi qo'zg'alish cho'qqisining to'lqin uzunligi (1-rasm).

Hisoblashlar natijasi CdSe yadrolarining o'rtacha o'lchami 3,1 nm ni tashkil etdi.



1- rasm. O'rganilayotgan nanozarrachalar namunalarining yutilish spektrlari

Olingan CdSe KNlarning fotolyuminesstensiya samaradorligi 2-rasmda keltirilgan. KNlar yadrolari lyuminesstensiya unumini oshirish uchun uning atrofida yarimo'tkazgichli CdS va ZnS qobiqlarini o'stirish orqali erishish mumkin. Mazkur qobiqlar KNga sirt nuqsonlarini to'sib qo'yishi va yadro ichidagi "elektron-tirqish" juftligini lokalizatsiya qilishi hamda shu asosda nurlanish intensivligini sezilarli darajada oshirilishi mumkin [8,9].


Mualliflar [9] tadqiqotlariga ko'ra, rux sulfidi, kadmiy selenid uchun eng yaxshi qobiq hisoblanadi. Biroq, [10] mualliflarining olgan natijalari shuni ko'rsatdiki rux sulfidi faqat kadmiy selenidning kichik yadrolarida ($d(\text{CdSe}) < 2 \text{ nm}$) samarali o'sadi. Kattaroq diametrlidagi CdSe yadrolarida ZnS qobiq'ining qiyin o'sishi esa ularning kristall panjara parametrlaridagi katta farq bilan izohlanadi.

Shu bois mazkur tadqiqotda CdSe va ZnS yadrolari orasida kadmiy sulfidning oraliq qatlamini o'stirish orqali ko'p komponentli triplet KNlar olindi. Bu tizimlarda kristall panjara parametrlari yopiq hudud chegarasi oraliq o'rtasida bo'lishi kuzatildi.

Olingan CdSe/CdS/ZnS nanogeterotizimlarining "yadro-qobiq-qobiq" tipidagi KNlarning fotolyuminesstensiya xarakteristikalarini olingan namunalarning oraliq turlari bilan solishtirilib o'rganildi. 2-rasmda 350 nm energetik qo'zg'alish to'lqin uzunligida bir xil optik zichlikka ega bo'lgan namunalarning lyuminesstensiya spektrlari ko'rsatilgan.

Spektrlardan ko'rinib turibdiki, CdS birlamchi qobiqning o'sishi lyuminesstensiya intensivligining sezilarli darajada oshishiga olib kelmaydi. Bu jarayon ehtimol, kattaroq o'lchamga ega bo'lgan CdSe yadrolarining yetarli darajada qoplanmaganligi bilan izohlanishi mumkin.

Shu bois KN yadrosi optimal qalinligini aniqlash maqsadida CdS ning ikkinchi qobiq'i qo'shimcha ravishda o'stirildi, bu esa namuna lyuminesstensiyasining deyarli 4 barobar oshishiga olib keldi (2-rasm). Kadmiy sulfidning keyingi qatlamlarining o'sishi hosil bo'lgan KNlarning nurlanish intensivligining pasayishiga olib keldi.




2-rasm. O'rganilayotgan namunalarning lyuminesstensiya spektrlari

Ikkinchi qobiq sifatida ZnS qatlamidan foydalanish esa namunalarda lyuminescentsiyasining sezilarli darajada oshishiga yordam berdi (14 marta). Shunday qilib, rux sulfidi o'ziga xos yarimo'tkazgich bo'lib, triplet CdSe/CdS/ZnS nanogeterotizimlarida "elektron-tirqish juftligini yanada samaraliroq darajaga chiqaradi.

Fotolyuminescentsiya spektrlaridan ham ko'rish mumkinki, CdS birlamchi qobiq'ining o'sishi jarayonida "elektron-tirqish" juftliklarning qisman energetik sath darajalari o'zgarishi natijasida CdSe/CdS KNlar intensivligi maksimal lyuminescentsiya spektrlarining uzoq diapazon to'liq hududi bo'ylab biroz siljishi sodir bo'ladi. O'z navbatida, CdS yoki ZnS ning "ikkinchi qobiq'i" ning o'sishi lyuminescentsiya spektrini qisqa to'liq uzunliklari diapazoni hududiga siljitadi. Bu esa o'sish jarayonida geterotizimlar sirt yuzasida ionlarning almashinuvi bilan bog'liq bo'lib, lyuminescent yadro o'lchamining pasayishiga olib keladi [11].

CdSe va CdSe/CdS KNlar uchun mos bo'lgan 44 va 45 nm ga teng lyuminescentsiya cho'qqisining kengligi qo'shimcha ZnS qobiq'ining o'sishi natijasida 51 nm gacha oshadi. Cho'qqining siljishi, asosan, qisqa to'liq lyuminescentsiyaning kuchayishi bilan bog'liq bo'lib, bu kichikroq zarrachalardagi zaryad tashuvchilarni yanada samarali himoyalanganligini ko'rsatmoqda.



3- rasm. CdSe/CdS/ZnS KNlarning o'lchamli taqsimot gistogrammasi

Olingan triplet CdSe/CdS/ZnS KNlar uchun yorug'lik nuri sochilishining (dinamik tarqalishi usuli bilan aniqlangan) o'rtacha o'lchami 9,5 nm ni tashkil etdi (3-rasm).

Xulosa. Kadmiy selenid KNlar yadrolarida kadmiy va rux sulfidining qobiqlarini o'stirish orqali gibril va triplet nanogeterotizimlarni sintez qilishning kolloid usuli taqdim etmoqda. Ko'p komponentli gibril va triplet nanozarrachalarning hosil bo'lishi ularning fotolyuminescentsiyasi intensivligining sezilarli darajada o'sishiga yordam beradi. Rux sulfid qobiq'ining o'sishi emissiya spektrining qisqa diapazon hududida spektr cho'qqisining kengayishiga olib keladi.

Ushbu tadqiqot Rossiya fundamental tadqiqotlar fondi va Tatarstan Respublikasi hukumati tomonidan 15-37-20441 - raqamli ilmiy loyiha doirasida moliyaviy qo'llab-quvvatlandi.

ADABIYOTLAR

1. Drbohlavova J. Adam V., Kizek R., and Hubalek J. Quantum dots—characterization, preparation and usage in biological systems //International journal of molecular sciences. – 2009. – V. 10. – №. 2. – P. 656-673.
2. Gill R., Zayats M., Willner I. Semiconductor quantum dots for bioanalysis //Angewandte Chemie International Edition. – 2008. – T. 47. – №. 40. – C. 7602-7625.
3. Шамилов Р.Р., Гарайшина Р.Р., Галяметдинов Ю.Г. // Вестник Казан. технол. ун-та. 17, 60-63 (2014).
4. Хомяков Е. Г., Галяметдинов Ю. Г. Коллоидный синтез люминесцентных наночастиц CdSe и CdSe/CdS в водно-этанольной среде //Вестник Казанского технологического университета. – 2012. – №. 5.
5. Hines M.A., Guyot-Sionnest P. // Phys J. Chem. 1996. V. 100. P. 468 – 471.
6. Li H., Wang Z., He Y., Meng S., Xu Y., Chen S., Fu X. // Journal of colloid and interface science. 2019, 535. p. 469-480.
7. Ishankulov A. F. Shamilov, R. R., Galyametdinov, Y. G., & Mukhamadiev, N. K. Modified hybrid CdSe/ZnS quantum dots and their size dependent unique characteristics //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2020. – V. 1008. – №. 1. – P. 012033.
8. Ishankulov A.F. Khalilov R.F., Shamilov R.R., Galyametdinov Y.G., Mukhamadiev N.R.. Size-optical characteristics of CdSe/ZnS quantum dots modified by thiol stabilizers //Journal of Sol-Gel Science and Technology. – 2023. – C. 1-6.
9. Li S., Meng D., Hou L., Wang D., Xie T. // Applied Surface Science. 2016, 371. p. 164-171.
10. Reiss P., Protiere M., Li L. Core/shell semiconductor nanocrystals //small. – 2009. – T. 5. – №. 2. – C. 154-168
11. Shamilov R. R., Ishankulov A. F., Galyametdinov Yu. G. Dimensional and optical characteristics of CdSe/ZnS quantum dots modified with thiol stabilizers // Bulletin of the Technological University. - 2020. - T. 23. - No. 3. - S. 19-22.



UDK: 543.552.054.1.546.732

Gulnora KARABAYEVA,

*Jizzax davlat pedagogika universiteti
tabiiy fanlar va o'qitish metodikasi fakulteti kimyo kafedrası
Email; teacherkimyo@mail.ru*

Zuhra YAXSHIYEVA,

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti tabiiy fanlar va o'qitish metodikasi
fakulteti kimyo kafedrası*

Nigora QUTLIMUROTOVA,

O'zbekiston Milliy Universiteti, Kimyo fakulteti, Analitik kimyo kafedrası

Co (II) IONINI TROPEOLIN BILAN MODIFIKATSIYALANGAN ELEKTROD YORDAMIDA INVERSION - VOLTAMPEROMETRIK ANIQLASH USULINI ISHLAB CHIQISH

Annotatsiya

Kobalt(II) ionini inversion -voltamperometrik usul bilan aniqlashda tropeolin bilan modifikatsiyalangan ko'mir pastali elektrod qo'llanilgan. Modifikatsiyalangan elektrod yaratishning optimal sharoitlari topilgan, unga ko'ra parafin, grafit, tropeolin nisbati 1:1:0,025 bo'lgan. 4-(4-anilino-fenilazo)-benzosulfokislota natriyli tuzi (Tropeolin00) bilan kobaltning kompleks hosil bo'lishi siklik voltmetriyadan (SV) usulida aniqlandi. Co (II) ionining kompleks hosil bo'lishi uchun optimal muhit sifatida universal buferning pH 2,58 li eritmasidan foydalanildi. Natijalar platina elektrodi asosida olingan natijalar bilan taqqoslandi.

РАЗРАБОТКА ИНВЕРСИОННО-ВОЛЬТАМПЕРОМЕТРИЧЕСКОГО МЕТОДА ОПРЕДЕЛЕНИЯ ИОНА СО (II) С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭЛЕКТРОДА, МОДИФИЦИРОВАННОГО ТРОПЕОЛИНОМ

Аннотация

Ион кобальта(II) определяли инверсионно-вольтамперометрическим методом с использованием электрода из угольной пасты, модифицированного тропеолином. Найденны оптимальные условия создания модифицированного электрода, согласно которым соотношение парафина, графита, тропеолина составляло 1:1:0,025. Комплексообразование кобальта с натриевой солью 4-(4-анилинофенилазо)-бензосульфокислоты (Тропеолин00) определяли методом циклической вольтамперометрии (ЦВ). В качестве оптимальной среды для образования комплекса иона Co(II) использовали универсальный буферный раствор pH 2,58. Результаты сравнивали с результатами, полученными на основе платинового электрода.

DEVELOPMENT OF INVERSION-VOLTAMPEROMETRIC DETERMINATION METHOD OF CO (II) ION USING TROPEOLINE MODIFIED ELECTRODE

Annotation

Cobalt(II) ion was determined by inversion-voltammetric method using a carbon paste electrode modified with tropeolin. Optimum conditions for creating a modified electrode were found, according to which the ratio of paraffin, graphite, tropeolin was 1:1:0.025. Complex formation of cobalt with sodium salt of 4-(4-anilinophenylazo)-benzosulfonic acid (Tropeolin00) was determined by cyclic voltammetry (SV) method. A universal buffer pH 2.58 solution was used as the optimal environment for the formation of a complex of Co (II) ion. The results were compared with those obtained based on a platinum electrode.

Kirish. Kobalt (II) ioni og'ir zaharli elementlardan biri hisoblanib, uni atrof-muhit ob'ektlari tarkibidan monitoring qilish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi [1]. Bugungi kunda sanoat va qishloq xo'jaligi faoliyatining rivojlanishi bilan atrof-muhitdagi ko'plab mikroelementlarning kontsentratsiyasi doimiy ravishda oshib bormoqda. Kobalt yer qobig'ining tabiiy elementi hisoblanib, u tirik mavjudotlar uchun B₁₂ vitaminiga bog'liq bo'lgan fermentlarning muhim kofaktori va bir qator fermentlarning ajralmas komponenti sifatida juda muhimdir [2,3]. Turli xil biologik jarayonlarga ta'siri mavjud. Kobaltning eng yuqori ruxsat etilgan chegarasi 10 ppm tashkil etadi [4]. Ammo, ortiqcha qabul qilingan kobalt diareya, oshqozon-ichak traktining tirnash xususiyati, qusish, astma, kontakt dermatit, miyokardiyopatiya kabi jiddiy toksik ta'sirga olib kelishi mumkin [5,6]. Shuningdek, mazkur element miqdorining ortishi yoki kamayishi flora va faunaning rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kobalt tabiiy suvlarda quyidagi normal holatlarda mavjuddir. Chuchuk suvlarda kobalt uchun o'rtacha qiymat 10 mkg/l, dengiz suvlarida esa 5 mkg/l ni tashkil qiladi. Daryo suvlarida kobaltning mavjud miqdori 0,1–0,7 mkg/l, dengiz va okean suvlarida 0,002–0,06 mkg/l qiymatlar oralig'ida o'zgarib turadi [7]. Kobalt ionining odam qoni tarkibidagi o'rtacha miqdori 0,238 mg/kg ni tashkil qiladi. Inson tanasida oziq-ovqat bilan kobaltning o'rtacha bir kunlik iste'moli taxminan 0,03–0,3 mg ni tashkil etsa, eng past qiymati ya'ni 0,03 mg miqdori normal metabolizm uchun yetarlidir. Shuningdek Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti saraton kasalligi bo'yicha tadqiqot agentligi tomonidan kobaltni o'sma hujayralarining rivojlanishiga sabab bo'luvchi kanserogen modda sifatida ro'yxatga kiritilgan [8]. Hozirgi vaqtda kobalt ionlari juda xilma-xil usullar bilan aniqlangan, masalan: alangali atom absorpsion spektrometriyasi (FAAS) [9], elektrotermik atom absorpsion spektrometriyasi (ET-AAS) [10], induktiv bog'langan plazmalı mass spektrometriyasi (ICP-MS) [11], atom floresent spektrometriyasi (AFS) [12] gravimetrik [13], titrimetrik [14], fotometrik [15], polarografik [16, 17, 18], voltamperometrik [19, 20, 21] va boshqalar. Kobaltni aniqlashning inversion voltamperometriya (IV) usulida kobalt ionini aniqlashda elektrodlarining har xil turlari keng qo'llanilgan. Simobsiz elektrodlar hozirgi kunga qadar ma'lum bo'lgan tabiiy suvlarning tarkibidagi Co (II) ioni bo'yicha sezgir, selektiv va ekspress tahlilini bera

olmaydi [22, 23]. Vismut plyonkasi mikroelektrodi (BiFME) uglerod tolasi substrati bilan bitta mikroelektrodga oldindan yotqizilgan vismutning ex situ plyonkasidan iborat bo'lib, bir vaqtning o'zida Co (II) va Ni (II) ning iz miqdorini aniqlash uchun mo'ljallangan. Kompleks hosil qiluvchi vosita sifatida dimetilglioksim (DMG) bilan adsorbsion katodli voltametriyadan (AdCSV) foydalangan holda inson tanasi suyuqlik namunalarda Co (II) va Ni (II) ionlarini aniqlangan [24]. 2,3,4:9,10,11-dipiridin-1,3,5,8,10,12-geksaazasiklotetradeka-2,9-dien (L_1) va 2,3,4:9,10,11-dipiridin-1,5,8,12-tetrametilakrilat-1,3,5,8,10,12-geksaazasiklotetradeka-2,9-dien (L_2) makrotsikllarning poli(vinilxlorid) (PVX) membranalarini bilan modifikatsiyalanib, Co^{2+} ionini aniqlash uchun selektiv elektrodlari sifatida tavsiya etilgan va farmatsevtik namunalarda Co^{2+} ni aniqlash uchun qo'llanilgan [25].

Ushbu adabiyotlarda keltirilgan tadqiqotlar yuqori sezuvchanlikka va takrorlanuvchanlikka ega bo'lsada, asboblarning qimmatbaholigi, analizni bajarish murakkabligi bu usullarni qo'llanilishini cheklaydi. Shuning uchun Co (II) ni aniqlashning sezgir, arzon va tezkor, sodda usulini ishlab chiqish dolzarb masaladir. Ushbu an'anaviy anlitik usullardan farqli o'laroq, elektroanalitik usullar katta diapozonga yuqori sezuvchanlik, aniqligi, asbobning arzonligi bilan yuqori natijalar olishga imkon beradi.

Co (II) ionini elektrokimyoviy aniqlash usullarini yanada takomillashtirish uchun qulay, arzon, selektivlikka asoslangan mikroelektrodlar yaratishda tropeolin00 asosida modifikatsiyalangan elektrod yaratish amalga oshirildi.

Eksperimental qism. Ushbu tadqiqot ishida kobalt (II) nitrat kristallogidrat tuzining standart eritmasi, bidistillangan suv, Tropeolin00 (4-(4-anilinofenilazo)-benzosulfokislolaning natriyli(kaliyli) tuzi, Apelsin rangli IV C6II5NHC6H4N=NC6H4SO3K 90%GOST 6-09-4121-75), mis sim, parafin, potentsiostat, fon elektrolitlardan foydalanilgan. Ishlatilgan barcha kimyoviy moddalar va reagentlar analitik darajada bo'lgan va qo'shimcha tozalashsiz ishlatilgan

Kobaltning standart eritmasi sifatida uning eruvchan tuzi kobalt (II) nitrat kristallogidrat tuzidan foydalanildi ($Co(NO_3)_2 \cdot 6H_2O$) (MERCK, Sigma-Aldrich.GAS Number10026-22-9 Mr-291,03g). $Co(NO_3)_2 \cdot 6H_2O$ 0.01 M 250 ml eritmasini tayyorlash uchun standard namunasidan analitik tarozida 0,7275 gramm aniqlikda tortib olindi va 250 ml o'lchov kolbasiga solindi. Kolbaning belgisigacha bidistillangan suv solib yaxshilab aralashtirildi.

Tropeolin00 (CuAF-BSKNaME) elektrodini tayyorlash. Tajriba jarayonida analitik tarozida 0,4g parafin va 0.4 g grafit talqoni, 0,01g Tropeolin00 qo'shib qizdirildi, suyuqlangan holatida naychaga solindi, mis sim qo'yildi, gidrolitik vannada yuvildi, 1 haftaga sovutishga qo'yildi va elektrodlar tayyorlandi.

Fon elektrolitning tayyorlanishi. Universal bufer eritmalar pH (1–12), bufer aralashmasiga 0,04 M li (H_3BO_3 , H_3PO_4 , CH_3COOH) 0,2 M NaOH eritmasidan qo'shib tayyorlandi.

Natijalar MANUAL C 350 markali potentsiostatda olindi.

Natijalar va muhokamalar. Tropeolin bilan modifikatsiyalangan grafit asosida yaratilgan elektrod yordamida kobalt (II) ionini inversion-voltamperometrik usulda aniqlashga vaqtning ta'siri.


Kobalt(II) ionini inversion-voltamperometrik aniqlashda elektroliz vaqtiga ionning elektrod yuzasiga yutilishi muhim rol o'ynaydi, AS qiymatiga ta'siri aniqlanayotgan elementning tabiati va konsentratsiyasiga bog'liq. Inversion tahlilda elektroddagi tahlil qiluvchi moddanning miqdori va elektroliz davomiyligi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri proporsional (chiziqli) bog'liqlik muhim va alohida rol o'ynaydi. Kalibrlash egri chizig'i va standart qo'shimchalar usullarida zarur mezonlar depolarizatorning ishchi elektrodda to'planish davomiyligi va elektroaktiv moddanning uning yuzasidan tahlil qilinadigan eritmada erishi, shuningdek, elektroliz rejimlari bo'lib, ular: boshqa narsalar teng bo'lsa, barcha o'lchovlarda bir xil bo'lishi kerak.

10,0 ml yacheykaga 2,0 mkg/ml Co(II) eritmasidan 1,0 ml solib, ustiga 0,2 M H_2SO_4 fon elektrolitidan 2,0 ml va belgisicha bidistillangan suv bilan keltrilib, modifikatsiyalangan elektrod va solishtirma hamda qo'shimcha elektrod tushirilib inversion voltamperometrda malum bir o'zgarmas potentsialda analitik signallar olindi va 1 –jadval va 1 –rasmda keltirildi.

1-jadval

Kobalt(II)ning sensorga to'planish vaqtini aniqlash


Tepalik balandligi to'planish vaqti	fon - 0,2 M H_2SO_4 ; d.t. = 1,0 mA; E _{1/2} = 0,2 V; C _{Co} = 2,0 mkg/ml					
h, mm	19	38	58	59	60	60
t _n , s	10	20	30	40	60	90




1-Rasm. Kobalt (II) ionini elektrtod yuzasiga to'liq qoplashiga vaqtning ta'siri

1-rasm va 1- jadvaldan ko'rinib turibdiki, kobalt(II)ionining optimal to'planish vaqti 30 s. chunki elektroliz vaqtining yanada ortishi bilan cho'qqilarning balandliklari ularning to'planishi funksiyasi bo'lishni to'xtatadi va doimiy qiymatlarga aylanadi. Demak, kobalt(II) ionini 30 sekund ichida 0,2 volt kuchlanishda elektrod yuzasiga to'liq to'planadi va kobalt(II) ionining to'liq aniqlanishiga yordam beradi.

Tropeolin00 bilan modifikatsiyalangan grafit asosida yaratilgan elektrod potensial va yarim to'lqinlarni aniqlash uchun elektrod jarayonlarining mexanizmi o'rganildi. Yarim to'lqin potentsiali va kobalt(II) ioningning elektronlari soni biz tomonidan o'zgartirilgan sensorlar bilan optimallashtirilgan sharoitlarda aniqlandi. Buning uchun 10,0 ml yacheykaga 2,0 mkg/ml Co(II) eritmasidan 1,0 ml solib, ustiga 0,2 M H₂SO₄ fon elektrolitidan 2,0 ml va belgisicha bidistillangan suv bilan keltrilib, modifikatsiyalangan elektrod va solishtirma hamda qo'shimcha elektrod tushirilib siklik voltamperometrda analitik signal o'lchandi va olingan natijalar 2- rasmda keltirildi. Natijalar standart platina elektrod bilan solishtirildi natijalar 3-rasmda keltirildi.



2- Rasm. Kobalt (II) ioninig Tropeolin00 elektrod bilan siklik voltamperometrik usulda aniqlash voltamperogrammasi.



3-Rasm. Kobalt (II) ioninig platina elektrod bilan siklik voltamperometrik usulda aniqlash voltamperogrammasi

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, topilgan yarim to'lqinli elektrokimyoviy potentsiallar: kobalt(II) 0,4 Volt ekanligi isbotlandi. Bu orqali kompleks birikmaning barqarorlik konstantasini va elektrodda ishtirok etayotgan elektronlar sonini topish mumkin. Kobalt (II) ionini inversion voltamperometrik usul bilan aniqlashning selektivligini baholashda tabiatda kobalt (II) hamroh bo'lgan begona ionlarni tahlil qilinayotgan eritmaga kiritish yo'li bilan bir qator tajribalar o'tkazildi.

Ba'zi begona ionlarning aniqlashga halaqit berishini kamaytirish uchun eritmaga kuchli komplekslashtiruvchi va niqoblovchi reagentlarni kiritish orqali sezilarli darajada kamayishi va xatto minimal darajaga tushirilishi mumkin.

Metodning to'g'riligini va qayta tiklanuvchanligini tekshirish uchun "kiritildi-topildi" usuli qo'llanildi.

Aniqlash uslubi: 10,00 ml yacheykaga 2,0 mkg/ml kobalt (II) ionni tutgan eritmadan 1,0 ml, ustiga begona metal ionlarining standart eritmalaridan 1,0 ml va 2,0 ml 0,2 M H₂SO₄ eritmasidan va belgisigacha bidistillangan suv bilan keltirildi va yod bilan modifikatsiyalangan elektrod, solishtirma va qo'shimcha tushirilib, maksimal tok qiymati inversion-voltamperometrda o'lchandi. Olingan natijalar 3.7 jadvalda keltrilgan

3.7- jadval

Begona kationlarning kobalt(II) ionini voltametrik aniqlashning to'g'riligi va takrorlanishiga ta'siri (C_{Co} = 2,0mkg /10,0 ml; τ_n =30 s; E_{1/2} =0,4V)

Begona kation; [x]	Kiritilgan [x], mkg	[x]/Co	Topilgan Co, mkg; ($\bar{X} \pm \Delta X; P=0,95$)	n	S	Sr
Tellur (IV)	20,0	10,0	2,02 ±0,04	5	0,03	0,015
Temir (II)	24,0	12,0	2,04 ±0,05	5	0,04	0,020
Tallyi (III)	82,0	41,0	2,07 ±0,10	5	0,08	0,039
Vismut (III)	22,0	11,0	2,03 ±0,09	5	0,07	0,034
Bariy (II)	36,0	18,0	1,98 ±0,05	5	0,04	0,020
Temir (III)	31,0	15,5	2,05 ±0,07	5	0,06	0,029
Qo'rg'oshin (III)	51,0	25,5	1,95 ±0,06	5	0,05	0,026
Marganets (II)	56,0	28,0	1,99 ±0,02	5	0,02	0,010
Kadmiy (II)	25,0	12,5	2,01 ±0,04	5	0,03	0,015

Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, haqiqiy tabiiy ob'ektlar va sanoat materiallariga taqlid qiluvchi binar, uchlamchi va undan murakkabroq aralashmalarda kobalt (II) ionini inversion-voltamperometrik aniqlash usulining nisbiy standart chetlanishlari 0,33 dan oshmaydi, bu esa ishlab chiqilgan usulni atrof-muhit ob'ektlari, turli xil tabiatdagi materiallar (tabiiy va chiqindi suvlar, konsentratlar, rudalar, minerallar va boshqa ob'ektlar) analiziga qo'llash mumkinligini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR

- Инжеватова О. В. Адсорбционная инверсионная вольтамперометрия кобальта и железа в анализе природных вод. – 2007.
- Giridhar C. et al. The polarographic study of Cobalt (II)-dithiocarbamate complexes at DME //International journal of chemical and analytical science. – 2014.
- Giridhar C. et al. The polarographic study of Cobalt (II)-dithiocarbamate complexes at DME //International journal of chemical and analytical science. – 2014.
- Memon S., Yilmaz M. A complimentary study of caliharene based bifunctional receptors for alkali or transition metal cations and Cr2O7²⁻ anions //Journal of Molecular Structure. – 2001. – T. 595. – №. 1-3. – C. 101-109.
- Hartung M., Schaller K. H., Brand E. On the question of the pathogenetic importance of cobalt for hard metal fibrosis of the lung //International Archives of Occupational and Environmental Health. – 1982. – T. 50. – C. 53-57.
- Rhoads K., Sanders C. L. Lung clearance, translocation, and acute toxicity of arsenic, beryllium, cadmium, cobalt, lead,

- selenium, vanadium, and ytterbium oxides following deposition in rat lung //Environmental research. – 1985. – T. 36. – №. 2. – C. 359-378.
7. Nagpal N. K. et al. Technical report, water quality guidelines for cobalt. – Victoria, BC, Canada : Water Protection Section, Water, Air and Climate Change Branch, Ministry of Water, Land and Air Protection, 2004. – C. 59.
 8. Моргулис И. и др. Ранняя реакция организма млекопитающего на воздействие хлоридом кобальта : дис. – Красноярский государственный университет, 2006.
 9. Lemos V. A., da França R. S., Moreira B. O. Cloud point extraction for Co and Ni determination in water samples by flame atomic absorption spectrometry //Separation and Purification Technology. – 2007. – T. 54. – №. 3. – C. 349-354.
 10. González M., Gallego M., Valcárcel M. Determination of nickel, chromium and cobalt in wheat flour using slurry sampling electrothermal atomic absorption spectrometry //Talanta. – 1999. – T. 48. – №. 5. – C. 1051-1060.
 11. Camino-Sanchez F. J. et al. Inductively coupled plasma mass spectrometry (ICP-MS) determination of metals and metalloids in marine sediments. Evaluation of the contamination levels in Tenerife Island //Analytical Letters. – 2013. – T. 46. – №. 3. – C. 539-556.
 12. Zeng C. et al. Ultrasensitive determination of cobalt and nickel by atomic fluorescence spectrometry using APDC enhanced chemical vapor generation //Microchemical Journal. – 2012. – T. 104. – C. 33-37.
 13. Willard H. H., Hall D. The separation and determination of cobalt. II. gravimetric determination of cobalt //Journal of the American Chemical Society. – 1922. – T. 44. – №. 10. – C. 2226-2231.,
 14. Kratochvil B., Diehl H. The determination of cobalt by oxidation with potassium molybdicyanide //Talanta. – 1960. – T. 3. – №. 4. – C. 346-350.
 15. Claassen A., Daamen A. The photometric determination of cobalt by extraction with b-nitroso-a-naphthol //Analytica chimica Acta. – 1955. – T. 12. – C. 547-553.
 16. Lingane J. J., Kerlinger H. Polarographic determination of nickel and cobalt //Industrial & Engineering Chemistry Analytical Edition. – 1941. – T. 13. – №. 2. – C. 77-80.
 17. Nagaosa Y. Extraction-polarographic determination of cobalt (II) and nickel (II) as 2, 2'-bipyridine complexes in acetonitrile //Analytica Chimica Acta. – 1980. – T. 115. – C. 81-88.
 18. Bobrowski A. Polarographic methods for ultratrace cobalt determination based on adsorption-catalytic effects in cobalt (II)-dioxime-nitrite systems //Analytical Chemistry. – 1989. – T. 61. – №. 19. – C. 2178-2184.
 19. Bobrowski A. et al. A novel screen-printed electrode modified with lead film for adsorptive stripping voltammetric determination of cobalt and nickel //Sensors and Actuators B: Chemical. – 2014. – T. 191. – C. 291-297.
 20. Stoica A. I. et al. Determination of cobalt in pharmaceutical products //Journal of pharmaceutical and biomedical analysis. – 2004. – T. 36. – №. 3. – C. 653-656.
 21. Kapturski P., Bobrowski A. The silver amalgam film electrode in catalytic adsorptive stripping voltammetric determination of cobalt and nickel //Journal of Electroanalytical Chemistry. – 2008. – T. 617. – №. 1. – C. 1-6.
 22. Alves G. M. S., Rocha L. S., Soares H. M. V. M. Multi-element determination of metals and metalloids in waters and wastewaters, at trace concentration level, using electroanalytical stripping methods with environmentally friendly mercury free-electrodes: A review //Talanta. – 2017. – T. 175. – C. 53-68.
 23. Stozhko N. Y., Inzhevatova O. V. A mercury-free thick-film graphite electrode for determining cobalt in natural and potable waters by stripping voltammetry //Journal of Analytical Chemistry. – 2004. – T. 59. – C. 854-860.
 24. Hutton E. A. et al. Bismuth film microelectrode for direct voltammetric measurement of trace cobalt and nickel in some simulated and real body fluid samples //Analytica chimica acta. – 2006. – T. 557. – №. 1-2. – C. 57-63.
 25. Singh A. K., Singh P., Bhattacharjee G. Determination of cobalt ions at nano-level based on newly synthesized pendant armed macrocycle by polymeric membrane and coated graphite electrode //Talanta. – 2009. – T. 80. – №. 2. – C. 685-693.



UDK: 666.974.2

Dilshod KUVATOV,
Toshkent davlat texnika universiteti doktoranti (PhD)
E-mail: dilshod.ali_93@mail.ru
Sadritdin TURABDJANOV,
Toshkent davlat texnika universiteti professori, t.f.d
E-mail: rector@tdtu.uz
Orif QODIROV,
O‘zbekiston Milliy Universiteti dotsenti
E-mail: o.qodirov@mail.ru

PHYSICO-CHEMICAL STUDY OF CONCRETE SAMPLES OBTAINED BY ADDING INTENSIFIERS TO CEMENT CLINKER

Annotation

Samples of cement-based concrete of 0.9-1.0 mm fraction were taken from the MI-1 and MI-2 intensifiers created for crushing cement clinker with the addition of 0.1%. SEM and thermogravimetric analysis of concrete samples, as well as differential thermal analysis were carried out. Also, based on the thermal analysis of concrete samples, it was found that in the temperature range of 600-700°C, the decomposition of crystallohydrates occurs and, as a consequence, the loss of concrete strength.

Key words: Heat resistance, endoeffect, cement clinker, intensifier, concrete.

ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ОБРАЗЦОВ БЕТОНА, ПОЛУЧЕННЫХ ПУТЕМ ДОБАВЛЕНИЯ ИНТЕНСИФИКАТОРОВ В ЦЕМЕНТНЫЙ КЛИНКЕР

Аннотация

Образцы бетона отбирали на основе цемента фракции 0,9-1,0 мм с добавлением 0,1% интенсификаторов МИ-1 и МИ-2, созданных для дробления цементного клинкера. Были проведены SEM и термогравиметрический анализ образцов бетона, а также дифференциальный термический анализ. Также на основании термического анализа образцов бетона установлено, что в интервале температур 600-700°C происходит разложение кристаллогидратов и, как следствие, потеря прочности бетона.

Ключевые слова: Термостойкость, эндоэффект, цементный клинкер, интенсификатор, бетон.

SEMENT KLINKERIGA INTENSIFIKATORLAR QO‘SHISH BILAN OLINGAN BETON NAMUNALARNING FIZIK-KIMYOVIY TADQIQI

Аннотация

Sement klinkerini maydalash uchun yaratilgan MI-1 va MI-2 intensifikatorlaridan 0,1% miqdorda qo‘shib, 0,9-1,0 mm fraksiyalı sement asosida beton namunalari olindi. Beton namunalari SEM va termogravimetrik, hamda differensial termik analiz tahlillari o‘tkazildi. Shuningdek, beton namunalari termik tahliliga asoslanib, 600-700°C haroratlar intervalida kristallogidratlarning parchalanishi va natijada betonning mustahkamligini yo‘qotishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Termik chidamlilik, endoeffekt, sement klinkeri, intensifikator, beton.

Kirish. Bugungi kunda sement klinkerini maydalash jarayonini yanada yaxshilash uchun olimlar tomonidan yangi turdagi intensifikatorlar ustida tadqiqotlar olib borilayotganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ma‘lumki, intensifikatorlar sement klinkerini maydalash jarayonlarida uning fizik-kimyoviy xossalari yaxshilash maqsadida asosiy tarkibga kiritiladi. Betonning asosiy komponenti sement ekanligini hisobga olib, sement tarkibidagi zarrachalar o‘lchamlarini optimallashtirish, suyuqlik fazasi miqdori va hosil bo‘lgan kristallogidrat morfologiyasini nazorat qilishda, sementni sirt faol moddalar yordamida maydalash bo‘yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Tadqiqot ishining maqsadi sement klinkerini maydalash uchun yaratilgan yangi turdagi MI-1 va MI-2 intensifikatorlarini qo‘shib, olingan betonni fizik-kimyoviy hamda termik chidamliligini tadqiq qilishdan iboratdir.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda organik birikmalar asosida intensifikatorlar yaratilib, ularni sement klinkerini maydalash jarayoniga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda [1]. Tadqiqot ishlarida intensifikator tarkibiga qo‘shiladigan har bir komponentning optimal nisbatlari, molekullararo reaksiyalar va faol radikallarning elektron tuzilishini o‘rganish muhimdir [2]. Sementdagi klinker va mineral qo‘shimchalarning tarkibi hamda qotishma imkoniyatlarini hisobga olish zarur [3]. Klinkerining mikro-tuzilish parametrlarini (xomashyoning xossalari, maydalash o‘lchamlari, aralashmalarining bir xilligi va pishirish) ishlab chiqarish jarayoniga bog‘liqligi o‘rganilgan [4]. Sement klinkerini ishlab chiqarishda xom ashyo aralashiriladi va 1450°C haroratgacha qizdiriladi. So‘ngra potensial fazalarni aniqlash uchun ohakning to‘yinganlik omili C₃S va C₂S nisbatini tekshirish uchun ishlatiladi [5]. Ko‘pgina ishlab chiqarish korxonalarida sharli tegirmonlar klinkerini maydalash uchun ishlatiladi va ishlab chiqarish tezligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib beriladigan elektr energiyasi miqdoriga bog‘liq bo‘lganligi sababli, tegirmonni aylantirish uchun ishlatiladigan elektr 200 kVt dan 10 000 kVt gacha quvvatga egadir [6]. Portlandsement bu portlandsement klinkerining maydalangan mahsulidir. Tarkibida bir yoki bir nechta kalsiy sulfat, odatda gips (CaSO₄·2H₂O) bilan maydalash orqali tayyorlanadi. Portlandsementning asosiy oksidli komponentlarini CaO(60-70%), SiO₂(18-22%), Al₂O₃(4-6%), Fe₂O₃(2-4%) tashkil etadi [7-9]. Ammo, sement klinkeri tarkibida sanab o‘tilgan birikmalardan tashqari sulfat (SO₃) mavjud bo‘lishi, yetarli bo‘lmasa sulfatli material qo‘shilishini talab etadi [10].

Sement klinkerini maydalash jarayonini osonlashtirish uchun intensivatorlar yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ba'zi manbalarda intensivator sifatida kalsiy sulfat [11], kalsiy fluorid va natriy fluoridlar [12], ko'mir-ishqoriy reagent [13] qo'shish bo'yicha ishlarni ko'rish mumkin. Adabiyotlar tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, sement klinkerini maydalashni osonlashtirish uchun intensivatorlar yaratish va betonni termik chidamlilik xossalarini yaxshilash bo'yicha izlanishlar olib borish bugungi kun zaruriy talabidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Intensifikatorlar sintez qilishda, ularning funksional ta'sirlarini hisobga olish kerak. Bunda intensivatorga qo'shiladigan birikmalarning kimyoviy tuzilishini va kimyoviy-adsorbsion xususiyatlarini tasniflash zarur. Yaratilgan MI-1 [14] MI-2 intensivatori [15] tarkiblari adabiyotlari bo'yicha yaratilgan.


Portlandsement klinkeridan 2850 g miqdoriga 150 g gips hamda 1,25 g MI-1 intensivatori qo'shib, rolikli barabanda 10 daqiqa davomida maydalandi. MI-2 intensivatorini ham xuddi shu miqdordagi portlandsement va gips bilan aralashtirildi va 10 daqiqa davomida maydalandi. Namunalarni 0,9 mm o'lchamli elakdan o'tkazildi. Har bir namunadan 450 gramdan o'lchab olinib, unga yarimfraksiyaga ajratilgan qumdan 1350 g qo'shib, 225 ml suv bilan qorishtirildi. 4 daqiqa davomida $n=140/62$ ayl/min tezlikda aralashtiriladi. Tayyor namunaning element tahlili skanirlovchi elektron mikroskopik va energiya-dispersion (SEM-EDA) usullarda Jeol JSM-IT200LA (Yaponiya) qurilmasida amalga oshirildi. Termal tahlil termodinamik asbonda – Thermo Scientific TA Instruments STD 650 (AQSh), K tipidagi (Low RG Silver) termojuft va alyuminiy tigelda amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar. Intensifikatorlarni klinkerga qo'shib maydalash orqali olingan beton namunalarni mikrostrukturasi o'rganish uchun SEM tahlili o'tkazilganda, beton matrisasida kalsit (CaCO_3) miqdorining yuqoriligi aniqlandi. Namlik mavjud bo'lganda, kalsiy oksidining atmosferadagi karbonat anhidrid bilan reaksiyaga kirishishi natijasida qatlamli struktura hosil bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Sement klinkerini maydalash uchun yaratilgan MI-1-intensifikator qo'shib olingan beton namunasi SEM tasviri


SEM tahliliga ko'ra, MI-1 intensivatori qo'shib olingan beton kompozitsiyasining sinishi asosan kalsitning yuqori konsentratsiyasi bo'lgan joylardan o'tadi (1-rasm). Shunday qilib, kalsitning fazali komponentlari dispersligi qanchalik yuqori bo'lsa, ulardagi alyuminiy atomlarining konsentratsiyasi shunchalik yuqori bo'ladi va kremniy atomlarining konsentratsiyasi shunchalik past bo'ladi. Bu esa beton mustahkamligini kamayishiga olib keladi.



2-rasm. Sement klinkerini maydalash uchun yaratilgan MI-1-intensifikator qo'shib olingan beton namunasi SEM element tahlili


Shuningdek, beton namunasida sement klinkerining asosiy tarkiblari: CaO , SiO_2 , Al_2O_3 va Fe_2O_3 larining umumiy miqdori 95-97% ga yetgan. Ularga qo'shimcha ravishda kichik miqdordagi MgO , SO_3 , TiO_2 va K_2O mavjudligi aniqlandi. Natijalar asosida beton tarkibida kalsit miqdorining yuqoriligini shunday tushintirish mumkin: sementni suv bilan aralashtirilganda sement donalarini yupqa plyonka bilan qoplaydigan $3\text{CaO} \cdot \text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 3\text{CaSO}_4 \cdot 31\text{H}_2\text{O}$ hosil qiladigan 3-5% miqdorda gips kiritilishi gidratatsiya reaksiyasini oldini oladi. Gips qo'shilmagan holatda esa, klinker donalarining yuzasi darhol plyonkalar shaklida hosil bo'ladi va kalsiy gidrosulfoalyuminatning yuqori sulfat shakli hosil bo'ladi va betonning mustahkamligini pasayishiga olib keladi. MI-2 intensivatori qo'llab, olingan beton namunalari natijalar farqlanib, bir

qancha yoriqlar kuzatildi (3-rasm). Umuman olganda, mikrotuzilmada kremniy birikmalarini kalsitga nisbatan yuqori darajada ekanligini ko'rish mumkin. Bu esa, beton mustahkamligini kamayishiga olib keladi.




3-rasm. Sement klinkerini maydalash uchun yaratilgan MI-2 intensivikator qo'shib olingan beton namunasining SEM tasviri

4-rasmda SEM element tahlili asosida beton namunasida sement klinkerining tarkiblari: CaO, SiO₂, Al₂O₃ va Fe₂O₃ lardan tashqari qo'shimcha ravishda kichik miqdordlarda MgO, SO₃, TiO₂, kaliy va uglerod oksidlari mavjudligi aniqlandi.



4-rasm. Sement klinkerini maydalash uchun yaratilgan MI-2 intensivikator qo'shib olingan beton namunasining SEM element tahlili


Qurilish sohasida betonning termik chidamliligi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, ma'lum bir haroratlarda uning tarkibiga qo'shilgan qo'shimchalar, kalsiy gidroksid va kristalohidratlarning parchalanishi bilan izohlanadi. Portlandsement klinkerini maydalash uchun yaratilgan MI-1 va MI-2 intensivikatorlarini qo'llab olingan beton namunalarini termik ta'sirga chidamliligi o'rganildi, hamda namunalarning termogravimetrik tahlil natijalari 5- rasmda keltirildi.



5-rasm. Sement klinkerini maydalash uchun yaratilgan MI-1 intensivikator qo'shib olingan beton namunasi differensial va termik tahlil natijalari

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, 100°C gacha bo'lgan haroratda bog'lanmagan suvning sezilarli darajada ajralib chiqishi sodir bo'lgan. Suv molekulari 100°C dan 200°C gacha noorganik tuzlardagi kristalizatsion suvining ajralib chiqishi hisobiga massa 2,25% ga yo'qotilgan. 400°C bo'lgan haroratda karbonatlarning parchalanishi sement tosh (beton) asosan gidroalyuminatlarining suvsizlanishi, shuningdek kalsiy gidrosulfoalyuminatlarining parchalanishi va qayta kristallanishi tufayli yuzaga kelgan. 450°C haroratdan 600°C haroratgacha bo'lgan oraliqda, trikalsiy silikatning parchalanishi va undan yuqori haroratlarda karbonatlarning parchalanishi kuzatish mumkin. Massaning yo'qotilish 2,57% ni tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, MI-1 intensivikatorini qo'llab olingan beton namunasi 500°C haroratdan boshlab asosiy massani yo'qotgan va 800°C haroratgacha 93,6% massani saqlab qolgan.

Tadqiqotimizda MI-2 intensivikatori bilan olingan beton namunasini termik tahlili natijalari tahlil qilinganda (6-rasm), dastlabki endoeffekt 200°C va 300°C haroratda kuzatildi, namunaning massa yo'qotilishi 0,237 mg (0,708% umumiy miqdorga nisbatan) tashkil etdi. Bu esa suv ko'p sarflanganini ko'rsatadi.



6-rasm. Sement klinkerini maydalash uchun yaratilgan MI-2 intensivator qo'shib olingan beton namunasining differensial va termik tahlil natijalari

Haroratning 370°C-450°C oralig'ida hosil bo'lgan endoeffekt gidroalyuminatlar va silikatlar, gidroksidlar va karbonatlarning yo'q qilinishi tufayli sodir bo'lgan. Namunadagi massa yo'qotilishi ushbu harorat oralig'larida 0,6 mg (1,79% umumiy massaga nisbatan) miqdorni tashkil etgan. Shuningdek, 677°C harorat intervalida asosiy massa yo'qotilishi kuzatilib (0,755 mg), noorganik tuzlarning parchalanishi va kamroq darajada gidroksidlar va gidroalyuminatlar suvsizlanishi tufayli sodir bo'lgan. 800°C haroratda vazn yo'qotish karbonatlarning parchalanishi bilan bog'liq. Natijalardan MI-2 intensivatori qo'shib maydalangan portlandsement asosidagi beton kam termik barqaror ekanligi o'rganildi.

Xulosa va takliflar. Yaratilgan yangi MI-1 va MI-2 intensivatorlari portlandsement klinkerini maydalash jarayonida qo'llanilib, beton qorishmasi namunalari tadqiqi olib borildi. Namunalarni SEM element tahlillari uyg'unligida o'tkazilganda, MI-1 intensivatori bilan olingan beton matrisasida kalsit miqdorining yuqoriligi, MI-1 intensivatori bilan olingan beton matrisasida esa kremniy oksidi kalsitga nisbatan yuqoriligi aniqlandi. Shuningdek, differensial termogravimetrik tahlil natijalari MI-1 intensivatori bilan olingan beton strukturasi yuqori haroratlarga MI-1 intensivatori bilan olingan beton namunasiga qaraganda yuqori termik barqarorligi o'rganildi.

ADABIYOTLAR

1. Shakhova, L. D., Luginina, I. G., & Cherkasov, R. A. (2014). Intensification of Cement Grinding with Apply Grinding Aids with Modify Effect. *Modern Applied Science*, 8(6). doi:10.5539/mas.v8n6p296
2. Аликовский А.В и др. Интенсификатор помола цемента и способ его применения. Патент, РФ RU2558095 Опубликовано: 27.07.2015 Бюл. № 21.
3. Schumacher, G., & Juniper, L. (2013). Coal utilisation in the cement and concrete industries. *The Coal Handbook: Towards Cleaner Production*, 387–426. doi:10.1533/9781782421177.3.387
4. Moir, G. (2003). Cements. *Advanced Concrete Technology*, 3–45. doi:10.1016/b978-075065686-3/50277-9
5. Dhir, R. K., Brito, J. de, etc. (2017). Copper Slag in Cement Manufacture and as Cementitious Material. *Sustainable Construction Materials: Copper Slag*, 165–209. doi:10.1016/b978-0-08-100986-4.00005-5
6. Jackson, P. J. (1998). Portland Cement: Classification and Manufacture. *Lea's Chemistry of Cement and Concrete*, 25–94. doi:10.1016/b978-075066256-7/50014-x
7. Зубехин А.П., Голованова С.П., Кирсанов П.В. "Супербелый портландцемент. Фазовый состав, технология" *Известия высших учебных заведений. Северо-Кавказский регион. Тех-науки*, no. 1, 2004, pp. 41-44.
8. Гаврилюк М.Н., Семериков И.С. Синтез и изучение свойств портландцемента из известняка, фельзита и минерализатора // *Фундаментальные исследования*. – 2013. – № 11-2. – С. 188-191
9. Николаенко Е.А.. "Исследования пуццолановых портландцементов на основе эффузивных горных пород" *Известия вузов. Инвестиции. Строительство. Недвижимость*, no. 1 (6), 2014, pp. 66-73.
10. Harrisson, A. M. (2019). Constitution and Specification of Portland Cement. *Lea's Chemistry of Cement and Concrete*, 87–155.
11. Besedin P.V., Panova O.A., "Thermal gravimetric analysis of plasticizing agents' effect on decarbonization of chalk and raw mix", *Cement and its application*, vol. 5, pp. 86-91, 2014.
12. Mishin, D.A., Kovalev, S.V., etc. (2023). White Cement Clinker Roasting Intensification. *BUILDINTECH BIT 2022. Lecture Notes in Civil Engineering*, vol 307. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-20459-3_42
13. Bushueva N.P., Panova O., "The energy aspects of coal-alkaline additive's effect on dehydration of clay minerals", *Bulletin of BSTU*, 2016, vol 8, 180-184.
14. Kuvatov D.G., Turabdjano S.M. Maydalash intensivatori. Ixtiroga patent Uz IAP 07061. Byull. №9. 30.09.2022 y.
15. Kuvatov D.G., Turabdjano S.M. Sement klinkerini maydalash intensivatori. Foydali model № FAP 02089. Byull.№10. 30.10.2022 y.



UDK:665.61.033

Orifjon QODIROV,
O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti
E-mail: oqsh@bk.ru
Muqaddas ISAKULOVA,
Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi
E-mail: i.mukaddas@mail.ru
Dilafroz QURBANOVA,
Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi
E-mail: dilafrozsobirovna89@gmail.com

Tashkent kimyo-texnologiya instituti dotsenti X.Kadirov taqrizi asosida

USE OF SOLVENTS PRODUCED FROM BY-PRODUCTS OF POLYETHYLENE PRODUCTION

Annotation

The content of asphaltmolaparaffin deposits of the Western Palvantash deposit and their solubility in composite solvents based on hexane containing concentrates of nonionic surfactants and aromatic hydrocarbons were investigated. According to the results of studies, it was found that the products of neonol AF-9-10 and liquid pyrolysis receive high efficiency. The use of such additives will increase the efficiency of dissection and dissolution of asphaltmolaparaffin deposits by 1.3-1.6 times compared to the main solvent. It has become known that with an increase in the concentration of individual additives from 0.5 to 3%, the effectiveness of detergent components decreases.

Keywords: Hexane solution, solvents, asphalt-resin-paraffin deposits, asphaltenes, butylbenzene.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РАСТВОРИТЕЛЕЙ, ПОЛУЧЕННЫХ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПРОИЗВОДСТВА ПОЛИЭТИЛЕНА

Аннотация

В целях исследования было изучено асфальт-смола-парафиновых отложений Западного Пальванташского месторождения и их растворимость в композиционных растворителях на основе гексансодержащих концентратов неионных поверхностно-активных веществ и ароматических углеводородов. По результатам исследований было установлено, что продукты AF-9-10 неонолов и жидкого пиролиза получают высокую эффективность. Применение таких добавок позволит повысить эффективность расщепления и растворения асфальт-смола-парафиновых отложений в 1,3-1,6 раза по сравнению с основным растворителем. Стало известно, что при повышении концентрации отдельных добавок с 0,5 до 3% эффективность моющих компонентов снижается.

Ключевые слова: Раствор гексана, растворители, асфальт-смола-парафиновые отложения, асфальтены, бутилбензол

POLIETILEN ISHLAB CHIQRARISH JARAYONI IKKILAMCHI MAHSULOTLARI ASOSIDA OLINGAN ERITUVCHILARNING QO'LLANILISHI

Аннотация

G'arbiy Palvantash konining asfaltmolaparafinli cho'kindilari tarkibi hamda ularning neionogen sirt-faol moddalar va aromatik uglevodorodlarning konsentratlaridan iborat qo'ndirmalarni saqlovchi geksan asosidagi kompozitsion erituvchilarda eruvchanligi o'rganildi. Tadqiqotlar natijasiga muvofiq aniqlandiki, neonol AF-9-10 va suyuq piroliz mahsulotlari yuqori samaradorlikka ega bo'ladi. Bunday prisadkalarining qo'llanilishi asfaltmolaparafinli cho'kindilarni parchalash va eritish samaradorligini asosiy erituvchi bilan taqqoslaganda 1,3-1,6 martaga oshirish imkonini beradi. Individual prisadkalarining konsentratsiyasi 0,5 dan 3% ga ko'payganda yuvuvchi tarkiblarning samaradorligi kamayishi ma'lum bo'ldi.

Kalit so'zlar: Geksan eritmasi, erituvchilar, asfalt-qatron-parafin konlari, asfaltenlar, butilbenzol

Kirish. Neft va gaz sanoati, neft va gaz konlarini qidirish, burg'ulash, qazib chiqarish, uglevodorodlarni qayta ishlash, neft mahsulotlarini ishlab chiqarish, neftkimyo va kimyo uskunalari ishlab chiqarish va iste'molchilarni neft mahsulotlari bilan ta'minlashgacha bo'lgan barcha neft va gaz operatsiyalarini qamrab oladi.

Neft va gaz sanoatida 30 ga yaqin ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular: avtobenzin, dizel yoqilg'isi, aviakerosin, har-xil turdagi moylar, mazut, bitum, har-xil turdagi polietilen, tovar xoldagi tabiiy va suyultirilgan gaz, neftkimyo va kimyo uskunalari, suyultirilgan gaz uchun balonlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi [1,2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlardan ma'lumki [3, 4], neft konlarini o'zlashtirish mobaynida harorat va bosimning pasayishi natijasida neftning gabsizlanishi sodir bo'ladi va undagi parafinlar, asfaltenlar va smolasimon moddalarning eruvchanligi keskin kamayib ketadi, bu esa nasos-kompressor quvurlar (NKQ) sirtining dag'alligini inobatga olsak, qazib oluvchi qurilmalar sirtida va qatlarning qazib olinadigan zonasida asfaltmolaparafinli cho'kindilarning (ASPC) tez cho'kishiga olib keladi. Natijada suyuqlikning oqishi kamayadi, quduqning gidravlik qarshiligi esa ortib ketadi. ASPCH hosil bo'lishining salbiy oqibatlari bu hodisa bilan kurashishning ko'p sonli: mexanik, termik, fizikaviy, kimyoviy va mikrobiologik usullarning yaratilishiga olib keldi. Biroq, u yoki bu usullarning qo'llanilishi muayyan konlardagi sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Masalan, biotexnologik usullarning qo'llanilishi katta qatlamli bosim, gaz omillari, neftdagi vodorod sulfidning ko'p miqdori va 40 - 50 °C dan yuqori haroratlar bilan cheklanadi. Magnitli ishlov berish esa, ishlanadigan muhit uchun yo'ldosh suvlarning qattiqligi va

minerallanishi, gaz omili ($200 \text{ m}^3/\text{m}^3$ gacha) va shu kabi boshqa talablarga ega bo'ladi. Elektr usullar yer osti isitish moslamalariga elektr energiyasini berish uchun juda murakkab yer usti qurilmalariga ega bo'lishi kerak. Shu sababli Neft sanoati rivojlangan davlatlarda ASPCHni parchalash va ularni yo'qotish bo'yicha tadqiqotlar jadal ravishda olib borilmoqda.

ASPCHni yo'qotishda qo'llaniladigan barcha usullar orasida uglevodorodli erituvchilar eng yuqori samaradorlikni namoyon qiladi [5 - 8]. Erituvchilar ishtirokida qazib olish zonasiga qayta ishlov berishning asosiy vazifasi - suv-neft emulsiyalarini parchalash va ASPCHni yo'qotishdir.

ASPCHni erituvchi sifatida Qozon "Orgsintez" ishlab chiqarish birlashmasi RT-1-3 reagentini taklif qildi. RT-1-3 tarkibida butilbenzol, izopropilbenzol va polialkilbenzol aralashmasi bo'lgan butilbenzolini fraksiyasi mavjud [9,10].

Tadqiqot metodologiyasi sifatida "Uz-Kor Gas Chemical" QK MCHJ piroliz jarayoni ikkilamchi maxsuloti piroliz kondensati, suspensiyon polimerlanish jarayoni chiqindisi qayta ishlangan geksan olingan. Dissertatsiya ishida asosiy rektifikatsiya, distillyatsiya tajriba usullari, fizik-kimyoviy (IQ-spektroskopik, xromatografik, mass-spektroskopik) va kolloid-kimyoviy (konduktometrik, stalagmometrik) tahlil usullaridan, eksperimental ma'lumotlarni hisoblash uchun Matlab, Origin va Aspen+ maxsus kompyuter dasturlaridan, kvant-kimyoviy hisoblashlar hamda matematik modellashirish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Erituvchilar ta'sirining samaradorligini baholash maqsadida tajribalar statik sharoitda "Nefiximprom" IIB metodikasi bo'yicha olib borildi. ASPCH namunasi yumshoq holatga kelguncha qizdiriladi, yaxshilab aralashiriladi va 12×20 mm o'lchamli silindr ko'rinishida shakllantiriladi. Keyin u sovutiladi va yacheyka o'lchami $1,5 \times 1,5$ mm ga teng latun (po'lat) setkadan tayyorlangan, massasi oldindan o'lchangan savatchaga joylashtiriladi (savatcha o'lchami $70 \times 15 \times 15$ mm). ASPCH namunasi bilan savatcha tortiladi va germetik shisha yacheykaga solinadi, ustiga 100 ml tekshirilayotgan erituvchi quyiladi. Tajriba harorati 10°S . To'rt soat vaqt o'tgandan keyin parchalanmay qolgan ASPCHni saqlagan savatcha olinadi va doimiy massagacha quritiladi. Savatchadan yacheykaga tushgan ASPCHning parchalangan, lekin erimay qolgan qismi filtrlanadi, doimiy massagacha quritiladi va tortiladi.

Yuqoridagi metodikaga muvofiq erituvchining samaradorligi quyidagi asosiy ko'rsatkich bo'yicha baholandi:

1. Erituvchining ASPCHni yanada mayda qismlarga parchalash qobiliyati. Bu - erituvchining dispergirlash qobiliyatidir. Filtrda qolgan ASPCH miqdori bo'yicha baholanadi (foizda ifodalanadi). Bu ko'rsatkich optimal bo'lishi kerak, chunki erituvchining juda ham yuqori dispergirlash qobiliyatida qazib olish zonasi kollektorlarida tiqilib qoladigan ASPCH qismlarining hosil bo'lish ehtimolligi oshadi.

2. Erituvchining ASPCH komponentlari bilan chin eritmalar hosil qilish qobiliyati. Bu - erituvchining eritish qobiliyatidir. Eritmaga o'tgan ASPCH miqdori bilan baholanadi (foizda ifodalanadi). Bu ko'rsatkichning qiymati imkon qadar yuqori bo'lishi kerak.

3. Erituvchining ASPCH komponentlarini bir vaqtning o'zida eritish va parchalash qobiliyati. Bu - erituvchining yuvish deb nomlanadigan qobiliyatidir. Tahlil uchun olingan ASPCH va savatchadagi ASPCH qoldiqlari massasi orasidagi farq bo'yicha baholanadi (% mass. da ifodalanadi). Bu ko'rsatkichni universal deb hisoblash mumkin. Bu kattalik qancha katta bo'lsa, erituvchining samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi.

So'nggi tahlil natijalari, neft tarkibi kam oltingugurtli $0,44\%$ bo'lib, asosan yuqori butumlangan 20°C dagi zichligi - $932 \text{ kg}/\text{m}^3$, Neft o'ta yuqori qovushqoqligi bilan farqlanadi $30 \text{ mPa} < 35 \text{ mPa} \cdot \text{s}$ (1- va 2-jadvallar):

1-jadval

Suv %	Oltinugurt %	Asfaltenlar %	Aksiz qatron %	Konradsonga ko'ra koks %	Parafin %	Selikogel qatron %	Xloridlar g/l	Zollar %
75,0	0,23	3,269	58,0	8,8	6,6	15,3968	110,0	0,61

2021-yilning 18-23- noyabr kunlari G'arbiy Palvantash konidagi 148- sonli quduqda qatlam neftining to'liq tahlili o'tkazildi. Namuna olish 2021-yil 09-noyabrda o'tkazildi. Qatlam neftini tahlil qilish natijasi 2-jadvalda keltirilgan

2-jadval

G'arbiy Palvantash konidagi 148-sonli quduqning qatlam neft namunasini tahlil qilish natijalari

Joylashuv	№ quduq	Zichlik 20°S g/sm ³	Suvning massa ulushi %	Mex. aralashmaning massa ulushi %	Oltinugurtning umumiy massa miqdori %	Kinematik qovushqoqlik 50°S , sSt	Dinamik qovushqoqlik 50°S , sP mPa·s	Xlorid tuzlarning tarkibi mg/l	Aksiz qatron %
G'arbiy Palvantash	148	0,8744	76,0	0,72	0,3	11,0	9,62	4193,0	42,0

G'arbiy Palvantash konidagi 148-sonli quyidagi ko'rsatkichlarga ega:

- 20°C da neftning zichligi $0,8744 \text{ g}/\text{sm}^3$, og'ir tur-3 (me'yor $0,8701 - 0,8950 \text{ g}/\text{sm}^3$);

-bog'langan suvning massa ulushi $76,0\%$ (me'yor 2-3 guruh 1% dan ko'p emas);

-mexanik aralashmalar miqdori $0,72\%$ (me'yor $0,05\%$ dan ko'p emas);

-oltinugurt miqdori $0,3\%$, 1-klass kam oltingugurtli, (me'yor $0,60\%$ dan ko'p emas);

-neft qovushqoqligi $9,62 \text{ mPa} \cdot \text{s}$, kam qovushqoqlik bilan, 2-klass (me'yor $5,1 - 10,0 \text{ mPa} \cdot \text{s}$);

-xlorli tuzlarning tarkibi $4193,0 \text{ mg}/\text{l}$, 3-guruh (me'yor $900 \text{ mg}/\text{l}$ dan ko'p emas);

-aksiz qatron tarkibi $42,0\%$, yuqori qatronli, -1-tip (me'yor $15,0\%$ dan ko'p).

G'arbiy Palvantash konining 148-quduq neftida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, neft og'ir, kam oltingugurtli, yuqori qatronli, past qovushqoqli.

1-jadvaldan va keltirilgan ma'lumotlari ko'rinadiki, ASPCH tarkibida parafinli UV miqdori yuqoridir. Cho'kindilarning parafinli tarkibi hamda ularning yuqori bo'lmagan qutblanuvchanligi shundan dalolat beradiki, ASPCH strukturasi parchalash uchun qo'llaniladigan kompozitsiya asosini past haroratda qaynaydigan alifatik UV tashkil qilishi kerak, shu sababli bunday erituvchi sifatida Ustyurt gaz kimyoviy kompleksi ikkilamchi mahsuloti tanlandi.


Ustyurt (Qoraqalpog'iston Respublikasi) gaz-kimyoy majmuasida polietilen va polipropilen Sigler -Natta katalizatori ishtirokida geksan eritmasida polimerlanish reaksiyasi yo'li bilan olinadi. Bu jarayonda asosiy polimer mahsulotidan tashqari suyuq ikkilamchi xomashyo hosil bo'ladi. Qoldiq mahsulot ishlatiladigan monomerlarning oligomeridir, ularning asosiy qismi C_6

dan C₂₀ gacha bo'lgan parafinlar bo'lib, ularning sifat va miqdoriy tarkibi xromatografik usul bilan aniqlangan (1-rasm). Xromatografik tahlil shuni ko'rsatadiki, sarflangan geksanning tarkibi, asosan, normal strukturaning C₁₄ - C₁₈ fraksiyasining to'yingan uglevodorodlaridan iborat.

Suyuq ikkilamchi xomashyo aralashmasini ajratish kub, qayta oqim kondensatori termometr, vakuum nasosiga ulangan Libix sovutgichi bilan jihozlangan laboratoriya vakuumli haydash apparatida o'tkazildi: haydash vakuum ostida termometr ko'rsatkichi 135 °C va 650 mm simob ustuniga qadar amalga oshirildi.

Bir litr sarflangan geksan namunasi to'yingan normal uglevodorodlarning 0.450 litr C₁₂ - C₂₀ fraksiyasi olingan.

Bunda olingan suyuq kerosin namunasi 20 °C da zichligi 745 kg/m³ ni tashkil qiladi



1-rasm. Geksan eritmasida Sigler-Natta katalizatori ishtirokida polimerlanish reaksiyasi orqali polietilen va polipropilen ishlab chiqarish uchun suyuq ikkilamchi xomashyoning xromatogrammasi

1 - 2-metilpentan; 2 - 3- metilpentan; 3 - geksan; 4 - siklopentan; 5 - siklogeksan; 6 - 2-etilgeksan; 7 - trans-1-etil-3-metilsiklopentan; 8 - n-oktan; 9 - etilsiklogeksan; 10 - oktan; 11 - 5-metilnonan; 12 - 9-metilokozan; 13 - 3- metilnonan; 14 - 2-geptenal; 15 - dekan; 16 - 1-siklogeksil; 17 - 4-etildekan; 18 - undekan; 19 - 3-metil -undekan; 20 - 1-geksil-3-metilsiklopentan; 21 - dodekan; 22 - 1-geksilsiklogeksan; 23 - tridekan; 24 - 3-metiltridekan; 25 -n- tetradekan; 26 - 5- metiltetradekan; 27 - pentadekan; 28 - n-geksadekan; 29 - nonilsiklogeksan; 30 - 5-metilpentadekan; 31 - n-oktodekan; 32 - siklogeksilmetan; 33 - n-ikozan; 34 -n-dikozan; 35 - 2-metil siklodekanon; 36 -n-tetrokazan; 37 - 2,2-3,13-oktadetsidiyen-1-ol; 38 - geksakozan

Tadqiqot natijalariga muvofiq, eng yuqori samaradorlikni Ar-TAR va PMDA namoyon qildi. Bu prisadkalar qo'llanilganda ASPCHning parchalanish va erish samaradorligi, asosiy erituvchi bilan taqqoslaganda 1,3-1,6-marta ortadi. Ar-TAR, GFU va KFUGa nisbatan PMDA ko'p darajada dispergirlovchi ta'sirga ega bo'ladi. Individual prisadkalarining konsentratsiyasi 0,5 dan 3% ga oshirilganda barcha reagentlarning yuvish faolligi pasayishi aniqlandi. Chamasi, prisadkalarining 1,0 % mass.dan yuqori konsentratsiyada ularning ASPCH sirtiga adsorbanishi sodir bo'ladi, statik rejimda hosil bo'ladigan polimolekulyar qatlam esa erituvchi molekularining ASPCH ichiga singishi uchun to'sqinlik qiladi, natijada, ishlatilayotgan prisadkalarining xususiyatlaridan qat'iy nazar, erituvchilar yuvish qobiliyatining yomonlashib ketishi kuzatiladi.

Tajriba ma'lumotlariga muvofiq, tadqiq qilingan kompozitsiyalar uchun musbat sinergetik effekt kuzatilmaydi. Individual qo'llanilgan prisadkalar va toza erituvchi bilan taqqoslaganda kompozitsion prisadkalarining yuvish qobiliyati kamayadi.

Xulosa va takliflar.

1. G'arbiy Palvantash konining ASPCH yuqori miqdorlarda parafinli UVni saqlashi aniqlandi.
2. Parafin asosidagi ASPCHni parchalash va eritishda asosiy erituvchidagi umumiy konsentratsiyasi 0,5 % mass. ga teng bo'lgan suyuq piroliz mahsuloti asosidagi prisadka eng yaxshi samaradorlikka ega bo'ladi.
3. Asosiy erituvchida individual prisadkalarining umumiy konsentratsiyasi 1 dan 3 % mass. ga ko'payishi bilan yuvuvchi tarkiblar samaradorligining kamayishi kuzatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Bisenov, K., Tanzharikov, P., Sarabekova, U., Kodar, E., & Abildaev, N. The substantiation of the influence of asphalt resin paraffin oil residue on the asphalt concrete technology. Paper presented at the IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 2021, 1030(1) pp 1-8 doi:10.1088/1757-899X/1030/1/012010.
2. Issledovaniye ximicheskogo sostava pirokondensata piroliznogo proizvodstv., Kodirov O.Sh., Mirzakulov X.Ch., Berdiyev X.U., Sharipova V.V., TEXNICHESKIE NAUKI., UNIVERSUM., № 9 (54), sentyabr 2018
3. Belsky, A. A., Dobush, V. S., Morenov, V. A., & Sandyga, M. S.. The use of a wind-driven power unit for supplying the heating cable assembly of an oil well, complicated by the formation of asphalt-resin-paraffin deposits. Paper presented at the Journal of Physics: Conference Series, (2018), 1111(1) pp.1-7 doi:10.1088/1742-6596/1111/1/012052
4. Ilyushin, Y. V., & Novozhilov I. M. , Temperature field control of a metal oil-well tubing for producing of high-paraffin oil. Paper presented at the Proceedings of 2020 23rd International Conference on Soft Computing and Measurements, SCM 2020, pp. 149-152. doi:10.1109/SCM50615.2020.9198816
5. Kopteva A., Demytyev A. & Koptev V. , Analysis of the structure of viscous oil flow for the development of a system to prevent the formation of paraffin deposits in pipelines *8th International Scientific Conference on Innovations and Prospects of Development of Mining Machinery and Electrical Engineering IPDME 2020*; Saint-Petersburg; Russian Federation; 23 April 2020 do 24 April 2020; Kod 255749 Volume 1022 MSF, 2021, rr.42-51 doi:10.4028/www.scientific.net/MSF.1022.42.
6. Zaripova L. M. & Gabdrakhimov, M. S. Well bottomhole cleaning device. Paper presented at the *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 2020* , 952(1) pp.1-4. doi:10.1088/1757-899X/952/1/012067
7. Palaev A. G. & Dzhemilev E. R. , Research of efficiency of influence of ultrasonic treatment on asphalt and paraffin oil deposits. Paper presented at the *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 862(3)* 2nd International Conference on Modernization, Innovations, Progress: Advanced Technologies in Material Science, Mechanical and Automation Engineering,

MIP: Engineering 2020; Krasnoyarsk; Russian Federation; 16 April 2020 do 18 April 2020; Kod 160471, Volume 862, Issue 3, 27 May 2020, pp.1-4 doi:10.1088/1757-899X/862/3/032081.

8. Petrova L. V., & Yarullin D. R. , Evaluation of the effect of asphalt resin paraffin deposits on oil well performance. Paper presented at the *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering*, 2019, 560(1) pp.1-4 doi:10.1088/1757-899X/560/1/012084
9. Cheban S. E., Valeev M. D., LeontievS. A., Mayer A. V. & Samoilov A. R. , Technical solution for supplying a solvent of asphalt-resin-paraffin deposits (AFS) to a tubing string of oil wells equipped with electric centrifugal pumps. Paper presented at the *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering*, 10 September 2020 2nd Scientific-Practical Forum on Oil Capital; Khanty-Mansyisk; Russian Federation; 21 February 2019 do 22 February 2019; 2020, vol. 921, Issue 1, 921(1) pp.1-4. doi:10.1088/1757-899X/921/1/012004
10. Khaibullina K.S., Korobov G. Y. & Lekomtsev A.V. *Periodico Tche Quimica*, 2020, 17(34), pp.769-781.



UDK: 547.596.7:54.057

Baxtishod MATMUROTOV,
Toukenm Tibbiyot akademiyasi Tibbiy va biologic
kimyo kafedrası o'qituvchisi,
E-mail: b.matmurotov@mail.ru

Saxiba MADRAXIMOVA,
PhD. O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Bioorganik kimyo instituti,
E-mail: b.matmurotov@mail.ru

Hamza TOSHOV,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: khamzats1985@gmail.com

Gulnoza BABAYEVA,
Toukenm Tibbiyot akademiyasi
Tibbiy va biologik kimyo kafedrası o'qituvchisi,
E-mail: gulnozababayeva06@gmail.com

Gulnora TO'RAYEVA,
Toukenm Tibbiyot akademiyasi
Tibbiy va biologik kimyo kafedrası o'qituvchisi,
E-mail: turayeva.gulnora67@mail.ru

Alimjan MATCHANOV,
k.f.d.prof. katta ilmiy xodim, O'zbekiston
Respublikasi Fanlar akademiyasi
Bioorganik kimyo institute

O'zbekiston Milliy universiteti professori M.A.Mahkamov taqrizi asosida

XORAZM VILOYATIDA O'SADIGAN *CYDONIA OBLONGA MILLER* MEVASIDAGI SUVDA ERUVCHI VITAMINLARINI ANIQLASH

Annotasiya

Xorazm viloyatida yetishtiriladigan *Cydonia oblonga Miller* mevasi tarkibidagi suvda eriydigan vitaminlar miqdori yuqori samarali suyuq xromatografiya (YUSSX) usulida o'rganildi. *Cydonia oblonga* tegirmonining mevasi asosan askorbin kislotasi va B guruhi vitaminlarini o'z ichiga olishi kuzatildi.

Kalit so'zlar: *Cydonia oblonga Mill*, vitamin, tiamin-B₁, riboflavin-B₂, piridoksin-B₆, sianokobalamin-B₁₂, folein kislotasi-Bc, askorbin kislotasi. YUSSX-(yuqori samarali suvuqlik xromatografiyasi). xromatografiya. ekstraksiya. fil'trlash.

DETERMINATION OF WATER-SOLUBLE VITAMINS IN FRUITS OF *CYDONIA OBLONGA MILLER* GROWING IN KHORAZM REGION

Annotation

The content of water-soluble vitamins in the fruit of *Cydonia oblonga Mill* growing in Khorezm region was studied by the method of high-performance liquid chromatography (HPLC). It was observed that the fruit of *Cydonia oblonga Mill* mainly contains ascorbic acid and B group vitamins

Keywords: *Cydonia oblonga Mill*, vitamin, thiamin-B₁, riboflavin-B₂, pyridoxine-B₆, cyanocobalamin-B₁₂, folic acid-Bc, ascorbic acid, vitamin, HPLC (high performance liquid chromatography), chromatography, extraction, filtration.

Kirish: *Cydonia oblonga Mill*. (behi)-ra'nodoshlar oilasiga mansub mevali daraxt yoki buta. Ozarbayjon, Dog'iston, Turkmaniston, Eronda yovvoyi turlari va Kavkaz, O'rta Osiyo, Qrim, Ukrainaning janubi hamda Astraxon viloyatida keng tarqalgan [1].

Cydonia oblonga Mill. tarkibida 74,7-83,5% suv, 8,5- 15,2% qand, 0,2-1,5% kislotasi bor, shuningdek organik kislotalar, vitamin C, efir moyi, temir, mis, oshlovchi moddalar va tosh hujayralar bo'ladi. Mevasi dag'al bo'lib, uzoq saqlangandan keyin tosh hujayralar yumshab qoladi.

Xalq tabobatida behi mevasi, urug'i, bargi va po'stlog'idan qadimdan turli kasalliklarni davolashda samarali foydalanib kelishgan. Jumladan, peshob haydash xususiyatiga ega bo'lgani uchun yurak, buyrak, jigar, ichak kasalliklarini davolashda o't haydovchi vosita sifatida foydalanib kelingan. Me'da shilliq qavati yallig'langanda, kamqonlik va qandli diabetda davolashda yaxshi samara berishi olimlar tomonidan aniqlangan.[2] Pishgan va xom mevalari qattiqligi, taxirligi tufayli kam iste'mol qilinadi. Asosan ular oziq-ovqat sanoatida murabbo, jele, konservalar, asosiy taomlarga qo'shimchalar va piroglarga xush ta'm berish uchun, ichak sindromi va oshqozon yarasida, yo'g'on ichak shikastlanishlarida himoya qiluvchi pektin manbai sifatida keng qo'llaniladi [3-5].

Cydonia oblonga Mill mevasi antioksidant, antikanserogen, mikroblarga qarshi, yallig'lanishga qarshi, antiallergik, antimikrobiyal xususiyatlari bilan ajralib turadigan biologik faol tarkibiy qismlar tufayli fenolik moddalar kabi salomatlikni

mustahkamlovchi birikmalarning yaxshi, arzon va muhim parhez manbai sifatida ahamiyatga ega [6-9]. Eritrotsitlarning oksidlovchi gemoliziga qarshi himoya ta'siriga ega [10].

Cydonia oblonga Mill mevasi vitaminlarning eng yaxshi manbai hisoblanadi.

Vitaminlar tirik organizmda asosiy ozuqa moddalar bo'lgan oqsillar, yog'lar, uglevodlar, mineral moddalar, suv va boshqa organik moddalarga nisbatan nihoyatda kam miqdorni tashkil qilishiga qaramasdan, ular modda almashinish jarayonida nihoyatda muhim o'rin tutadi. Vitaminlar fermentlar uchun asosiy qurilish materiali bo'lib, modda almashinuvidagi katalitik funksiyani bajaradi. Vitaminlar asosan o'simliklarda sintezlanadi, hayvon organizmida to'planadilar. Ozuqa tarkibida vitaminlarning yetishmasligi modda almashinuvi jarayoni buzilishiga olib keladi [11].

Adabiyotlarda mevaning tarkibidagi vitaminlar miqdori turli usullar yordamida o'rganilgan. Tahlil natijalariga ko'ra: B1-0,43mg%, B2-0,12 mg%, C-19,2 mg/% A 0,44mg/% , E 3,05 mg/% ni tashkil qilgan. Rossiyaning turli hududlarida o'sadigan behi o'simligi kimyoviy tarkibi yaxshi o'rganilgan [12].

Yurtimizda keng tarqalgan oziq-ovqat mahsulotlarning kimyoviy tarkibini miqdoriy tahlil qilish va ushbu mahsulotlardan organizmning vitaminlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda foydalanish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Biz shularni inobatga olib ushbu ishimizda Respublikamizning sho'rlanish darajasi eng yuqori bo'lgan hududlardan biri Xorazm viloyatida o'suvchi *Cydonia oblonga* Mill mevasidagi suvda eruvchi vitaminlar miqdorini YUSSX usulida tahlil qilishni maqsad qildik.

Material va metod. Suvda eruvchan vitaminlar ekstraksiya usuli bilan ajratildi. Olingan ekstraktlar qog'oz filtr bilan filtrlab olindi va 7000 ob/min tezlikda 10 minut davomida sentrifuga qilib, ekstraktlar YUSSX usuli yordamida tahlil qilindi.

Xromatografik tahlil usuli sharoitlari quyidagicha:

Xromatograf- Agilent 1260 Infinity (USA)


Harakatchan faza (gradient oqim)-atsetonitril-bufer pH=2.92 (4% : 96%) 0-6 min., (10% : 90%) 6-9 min., (20% : 80%) 9-15., (4% : 96%) 15-20 min.

Injektsiya miqdori-20 mkl.

Oqim tezligi-1,0 ml/min.

Колонка-Agilent Eclipse XDB-C18 4.6x250, 5u Analytical


Detektor-diod-matritsali detektor (to'lqin uzunliklari 272nm, 254nm).



1-rasm. Suvda eruvchan vitaminlarning xromatogrammasi

Olingan natijalar muhokamasi. Tadqiqot ishini bajarish uchun Respublikamizning Xorazm viloyatida o'sadigan *Cydonia oblonga* Mill mevasining suvda eruvchan vitaminlar miqdori YUSSX usuli asosida bir necha to'lqin uzunliklarida standart namunalarga nisbatan adabiyotdagi usullar asosida o'rganildi [13].

Har bitta namuna uch marta qayta tekshirilib ularning o'rtacha qiymatlari hisoblandi. Olingan natijalar 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. *Cydonia oblonga* Mill. vitaminlari miqdori.

2-rasmdan ko'rish mumkinki, meva tarkibida asosan C va B guruhga kiradigan vitaminlar ko'p miqdorda uchrashi kuzatildi. 100 gramm quruq massaga nisbatan tahlil qilinganda, mevadagi barcha vitaminlarning asosiy qismini folein kislotasi va askorbin kislotasi tashkil qilishi aniqlandi. Bc-folein kislotasi 70% ni ashkil qildi. Bu vitaminning organizmga ta'siri nihoyatda xilma-xil. U nuklein kislotalar, oqsillar, fosfolipidlar sintezini kuchaytiradi, organizmda glutamat kislota eytirozining

ishlatilishini va vitamin B₁₂ning so'rilishini oshiradi. C-askorbin kislotasi 22% ni tashkil qildi. Inson organizmida askarbat kislotasi sintez qilinmaydi, uni tayyor holda oziq-ovqatlar bilan iste'mol qilinadi. Vitamin-C organizmni antioksidantlik qobiliyatini oshiradi. Qolgan suvda eruvchi vitaminlar esa 8%ni tashkil qilishi aniqlandi. Ular ham kam miqdorda bo'lsa ham mevaga yuqori biologik aktivlik xususiyatini beradi. Bu vitaminlarning mevada bo'lishi, uning antioksidantlik, antiradikallik va antianemik xususiyatlarini belgilab beradi [14].

Xulosalar. Xorazm viloyatida o'sadigan *Cydonia oblonga Mill* (behi) mevasi tarkibidagi 100 gramm quruq massaga nisbatan 70% folein kislotasi-B_c, 22-% askorbin kislotasi-C, qolgan vitaminlar esa 8% vitamin bo'lishi aniqlandi.

Cydonia oblonga Mill. (behi) mevasida vitaminlar miqdori aniqlandi. Ayniqsa, askorbin kislotasi va B guruhga kiruvchi vitaminlar iqlim sharoiti murakkab bo'lgan hududlarda o'suvchi mevalarda boshqa hududlarda o'suvchi o'simliklarnikiga qaraganda ko'proq bo'lishi aniqlandi.

Demak, *Cydonia oblonga Mill.* mevasini ushbu vitaminlar yetishmasligi natijasida kelib chiqadigan kasalliklarning oldini olishda profilaktika yuzasidan tavsiya qilish mumkin bo'ladi degan xulosa qilish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Rasheed M., Hussian I., Rafiq S., Hayat I., Qayyum A., Ishaq S., Awan M.S. "Chemical composition and antioxidant of quince fruit pulp collected from different locations". J. food Properties 2018., № 1., p.2320-2327
2. A.Karimi¹., Movahhed² M., Mehdiipoor³ H.H. and Allahyari⁴ F. "A Review on *Cydonia oblonga Miller* as an herbal medicine"., Pharmaceutical sciences <http://doi.org/10.5281/zenodo.1098379> IAJP 2017, 4 (12), 4370-4386.
3. Khoubnasabjafari M. and Jouyban A., "A review of phytochemistry and bioactivity of quince (*Cydonia oblonga Mill.*)"., J. Medicinal Plants Research, vol. 5, no. 16, pp. 3577-3594, 2011.
4. Wallis T.E., Textbook of Pharmacognosy, New Delhi: CBS publishers & distributors, 2005.
5. Silva F.G. and Oliveira G.L., "Popular knowledge and antimicrobial activity of *Cydonia oblonga Mill.* (Rosaceae).", Rev. Bras. Plantas Med., vol.15 pp.98-103., 2013.
6. Pieroni A., Quave C.L., Villanelli M.L., Mangino P., Sabbatini G., Santini L., Boccetti T., Profili M., Ciccio T., Rampa L.G., Antonini G., Girolamini C., Cecchi M. and Tomasi M., "Ethnopharmacognostic survey on the natural ingredients used in folk cosmetics, cosmeceuticals and remedies for healing skin diseases in the inland Marche". Central-Eastern Italy. J.Ethnopharmacol., vol.91, pp.331-344, 2004.
7. Oliveira A.P., Pereira J.A., Andrade P.B., Valentao P., Seabra R.M., Silva B.M. "Organic acids composition of *Cydonia oblonga Miller* leaf" Food Chem., vol.111, pp.393-399, 2008.
8. Kirtikar K.R. and Basu B.D., Indian medicinal plants, Dehradun: International book distributors, 1999.
9. Fattouch S., Caboni P., Coroneo V., Tuberoso C.I., Angioni A., Dessi S. and et al., "Antimicrobial activity of Tunisian quince (*Cydonia oblonga Miller*) pulp and peel polyphenolic extracts.", J. Agric. Food Chem., vol. 55, p.963-969, 2007.
10. Wang X., Jia W. and Zhao A., "Anti-influenza agents from plants and traditional Chinese medicine"., Phytother. Res., vol.20, p.335-341, 2006.
11. Magalhaes A.S., Siva B.M., Pereira J.A., Andrade P.B., Valentao P., Carvalho M., "Protective effect of Quince (*Cydonia oblonga Miller*) fruit against oxidative hemolysis of human erythrocytes"., Food Chem. Toxicol., vol.47., p. 1372-1377, 2009.
12. Мадрахимова С.Д., Машарипов А.Т., Матмуротов Б.Я., Эшчанов Э.У., Абдуллажонов Н.Г., Сравнительно исследование водорастворимых витаминов и микро-элементов плодов айвы (*Cydonia oblonga*) произрастающей в разных регионах республики Узбекистан Universum: химия и биология 2021 г. № 3(81). С -63-70
13. Alizadeh H., Hajizadeh N., Detection of Compounds and Antibacterial Effect of Quince (*Cydonia oblonga Miller*) Extracts *in vitro* and *vivo*. //Taylor Francis.2013.P.303-309.



UDK: 541.64:678.745.547.235

Bunyodjon MAXKAMOV,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi, PhD
E-mail: chemistry_89@inbox.ru
Dilfuza GAFUROVA,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori, k.f.d

O'zbekiston Milliy universiteti professori, kimyo fanlari doktori taqrigiga asosida M.A. Mahkamov

VERMIKULIT VA AKRILONITRIL ASOSIDA POLIMER KOMPOZITSION SORBENTLAR OLINISHI VA KOSSALARI

Abstract

Vermikulit asosida polimer kompozitsion sorbentlar sintez qilish maqsadida vermiculit qatlamlari orasida akrilonitril va malein anhidridini sopolimerlanish reaksiyasi amalga oshirildi. Sintez qilingan polimer kompozitsion materialni gidroksilamin bilan modifikatsiyalab, ion almashtiruvchi sorbent olindi. Ushbu sorbentni fizik-kimyoviy usullar bilan tadqiq qilindi va unga Cu(II), Ni(II) ionlarini sorbsiyasi o'rganildi.

Kalit so'zlar: Vermikulit, akrilonitril, malein anhidrid, sopolimerlanish, sorbsiya, kinetika.

ПОЛУЧЕНИЕ И СВОЙСТВА ПОЛИМЕР КОМПОЗИЦИОННЫХ СОРБЕНТОВ НА ОСНОВЕ ВЕРМИКУЛИТА И АКРИЛОНИТРИЛА

Аннотация

Для синтеза полимерных композиционных сорбентов на основе вермикулита была проведена реакция сополимеризации акрилонитрила и малеинового ангидрида между слоями вермикулита. Ионнообменный сорбент получали модифицированием синтезированного полимерного композиционного материала гидроксиламином. Данный сорбент исследовали физико-химическими методами и изучали сорбцию ионов Cu(II), Ni(II).

Ключевые слова: Вермикулит, акрилонитрил, малеиновый ангидрид, сополимеризация, сорбция, кинетика.

PREPARATION AND PROPERTIES OF POLYMER COMPOSITE SORBENTS BASED ON VERMICULITE AND ACRYLONITRILE

Annotation

For the synthesis of polymer composite sorbents based on vermiculite, acrylonitrile and maleic anhydride copolymerization reaction between vermiculite layers was carried out. The ion-exchange sorbent was obtained by modifying the synthesized polymer composite material with hydroxylamine. This sorbent was studied by physicochemical methods and studied the sorption of Cu(II), Ni(II) ions.

Key words: Vermiculite, acrylonitrile, maleic anhydride, copolymerization, sorption, kinetics.


Kirish. Dunyoda ion almashinuvchi sintetik ionitlarni ishlab chiqarish bir necha barobar ortgan bo'lsa-da, ishlab chiqarish tarmoqlari ortishi va rivojlanib borgan sari ionitlarga talab ortib bormoqda. Bu borada import o'rini bosadigan termik va kimyoviy barqaror ionitlarni sintez qilish usullarini yaratish, ularning fizik-kimyoviy jihatlarini amaliyotga tadbiiq qilish va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Kompleks xossaga ega bo'lgan tarkibida ham kislotali, ham asosli guruhlarini tutuvchi ionalmashinuvchi materiallar olish, qimmatbaho, rangli va noyob metall ionlariga nisbatan selektivligini aniqlash, oqava suvlarni tirik organizmlarga salbiy ta'sir qiluvchi zaharli va og'ir metall ionlaridan tozalash muhim omillardan sanaladi.

Vermikulit qatlamlararo bo'shlig'i oktaedral, tetraedral tuzilishli bo'lib, tarkibida kation almashinadigan guruhlar mavjud bo'lib, uni kimyoviy o'zgartirish natijada noorganik-organik gibrid materiallar hosil qilish mumkin [1-2]. Uni kimyoviy moddalar va issiqlikka nisbatan yuqori qarshilikka egaligi, haroratni ushlab turish va suvni adsorbsiyalash qobiliyatiga egaligi uchun polimer kompozitlar ishlab chiqarishda mustahkamlovchi material sifatida ishlatiladi. Vermikulitda shuningdek kation almashinish qobiliyati mavjud bo'lib, qatlamlararo bo'shlig'ida suv molekulari va almashinadigan kationlarga ega bo'lgan 2:1 nisbatdagi qatlamli alyuminiy silikat mineralarining bir turidir [3].

Organik yoki noorganik moddalar vermiculit bo'shlig'iga fizik-kimyoviy usul bilan kiritilib, natijada turli xil funksional guruhlar tutgan ion almashinuvchi sorbentlar sintez qilingan [4-5].

Sintetik poliakrilonitril (PAN) polimerlarning muhim vakili bo'lib, metall ionlarini tanlab ajratib oluvchi sorbentlar sintez qilishda keng qo'llaniladi. PAN tolasi makromolekulasi tarkibidagi reaksiyon faol -CN guruhini kimyoviy modifikatsiyalab, sorbsiya qilish xususiyatiga ega bo'lgan turli xildagi sorbentlar olingan [6-7].

Material va metodlar. Ushbu ishda poliakrilonitrilni malein anhidrid va vermiculit (PMV) kompozitini olish uchun akrilonitril, malein anhidrid va mahalliy mineral xomashyo «tebinbuloq» vermiculitidan foydalandik. Polimer kompozitsion material olish uchun 2 gr malein anhidridning sirka kislotadagi eritmasi va 4 gr xlorid kislotada ishlov berilgan vermiculitni konissimon klobaga solib, magnitli meshalka yordamida 8 soat davomida aralashtirildi. Toza xaydab olingan 8 gr akpilonitril, malein anhidridli vermiculit va oz miqdorda inisiator $K_2S_2O_8-Na_2SO_3$ ni uch og'izli kolbaga solib, mexanik aralashtirish orqali amalga oshirildi. Peaksiya 4-5 soat davomida 60-70^o C xapopatlapda olib bopildi. Olingan kompozitsiyalap (PMV) bip necha marta distillangan suvda yuvildi va doimiy massaga kelguniga qadar quritildi.




1 - sxema. Akrlonitril va malein anhidridning sopolimerlanish reaksiyasi.

Sintez qilib olingan polimer kompozitsion materialning massa nisbati AN:MA:VMT 4:1:2 bo'lib gidroksilamin bilan modifikatsiyalangan, statik almashinish sig'imi yuqori bo'lgan ionit olindi.


Sintez qilib olingan polimer kompozitsion material (PMV) kationit xossasiga ega bo'lib, ishqor bo'yicha SAS 2,3 mg-ekv/g ga teng. Tebinuloq vermikulitining ishqor bo'yicha SAS esa 1,0 mg-ekv/g ga teng. PMV kompozitining SAS 2,3 mg-ekv/g bo'lishi malein tarkibidagi karboksil guruxlari hisobiga oshgan deyishimiz mumkin. SHunga qaramasdan kompozitning adsorbsion xossalari qo'shimcha modifikatsiyalash yo'li bilan ham oshirish mumkin bo'ladi. Adabiyotlardan ma'lumki PAN tarkidagi -CN ni kimyoviy riagentlar gidroksilamin ta'sirida o'zgartirib, amidoksim funksional guruhlari (-C(NH₂)=NOH) xelatlovchi smolalar olingan va u og'ir metall ionlariga nisbatan adsorbsion xossalarga ega bo'lganligi uchun keng o'rganilgan. Lekin amidoksim funksional guruhlari "polimer-slyuda" kompozitlari haqida ma'lumotlar etarli darajada emas. SHuning uchun bu ishda, sintez qilib olingan polimer kompozitsion materialni sorbsion xossasini oshirish maqsadida kompozit tarkibidagi -CN guruhini gidroksil aminning 0,05; 0,1; 0,15; 0,2 M li konsentratsiyalari va harorat 353; 363; 373 K da vaqtga bog'liq holda mexanik aralastirish orqali modifikatsiyalash reaksiyasi olib borildi.

PMV modifikatsiyalash japyonlapidan so'ng PMV-GA ning SAS qiymati (xlord kislot) bo'yicha 4,4 mg-ekv/g ga erishilgan.

3. Natija va muhokamalar. Vermikulit va PVM-GA poliamfolitni identifikatsiyalash uchun IQ spektr tahlili o'tkazildi.



1- rasm. Tebinuloq vermikulitining IQ-spektri.



2-rasm. PMV-GA sorbentining IQ-spektri.


VMT uchun 3656 cm^{-1} da kuzatilgan cho'qqilarning holati va intensivligi mos ravishda Si-OH va Al-OH guruhlardagi (-OH)ga to'g'ri keladi. 954,12 cm^{-1} gacha bo'lgan sohada tetraedral qismidagi Si-O-Si guruhlari ifodalaydi. 720 cm^{-1} , 650 cm^{-1} diapazonlar esa Si-O-bog'lanishining deformatsiya tebranishlar bilan bog'liq bo'ladi. 1474 cm^{-1} spektr sohalarida (suvning deformatsion tebranishi) yutilish chiziqlari kuzatildi. 722- 70 cm^{-1} kuchsiz chiziqlar vermikulitlarning Al-O-Si bog'lanishlarining tekis deformatsion tebranishi bilan bog'liqdir [8].

PMV kompoziti gidroksilamin bilan modifikatsiyalangan PMV-GAning IQ spektrlarida ba'zi (-CH₂-) nosimmetrik va assimetrik cho'zilgan tebranish yutilish cho'qqisi 2927 cm^{-1} paydo bo'lib, vermikulit qatlamlari orasida organik moddani kirganligini va organik vermikulit olinganligini ko'rsatadi. PMV-GAning IQ spektrlarida 2244 cm^{-1} sohada -C≡N guruhlarning yutilish cho'qqisi intensivligi kamaygan bo'lib, ushbu guruhlardagi gidroksilamin bilan kimyoviy o'zgarishga uchraganidan dalolat beradi. Yangi 3200-3500 cm^{-1} sohalaridagi keng yutilish chiziqlari (-NH₂, -OH) guruhlarning valent va deformatsion tebranishlariga to'g'ri keladi. -C=N- bog'larning valent tebranishlariga tegishli 1655 cm^{-1} sohada kuzatildi (2- rasm).

Modifikatsiyalangan amidoksimlar asosan molekula ichidagi vodorod bog'i bilan stabilashadigan (amidoksim va gidroksam) shaklida mavjud bo'ladi [9].

Ushbu IQ-spektr kuzatishlar natijasida PMV kompozitsiyasini GA bilan modifikatsiyalash samarali amalga oshirilganini ko'rish mumkin.

Poliakrlonitril va vermikulit asosidagi sorbentlarning kapillyar-g'ovak tuzilishi: solishtirma yuzasi va g'ovaklar o'lchami qiymatlari benzol bug'larini sorbsiyalash orqali o'rganildi. O'rganilgan sistemalardagi adsorbsiya izotermalardan PMV-GAda benzol adsorbsiyasi dastlabki vermikulitga nisbatan 3 marotaba yuqori bo'lishi aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. Vermikulit VMT(1), PMV (2), PMV-GA (3)larda benzol bug'i adsorbsiya izotermalari.

Adsorbentlarda adsorbsiya miqdori nisbiy bosim nol qiymatidan $R/R_s \approx 0,2$ gacha keskin ko'tarilishi va $R/R_s \approx 0,8-1$ oralig'ida to'yinish holatiga yaqinlashib borishi kuzatildi. Olingan izotermalar asosida BET tenglamasi yordamida adsorbentlar monoqavat sig'imi (α_m), solishtirma yuzalari (S) va to'yinish adsorbsiyasi (α_s) hisoblab topildi (1-jadval).

1-jadval

Vermikulit va u asosida olingan sorbentlarda benzol bug'i adsorbsiyasi bo'yicha sturuktura-sorbsion ko'rsatkichlari

№	Adsorbentlar	Monoqavat sig'imi, α_m , mol/kg	Solishtirma yuzasi, S m^2/g	To'yinish adsorbsiyasi, α_s , mol/kg
---	--------------	--	---	---

1	VMT	0,148	35,61	0,22
2	PMV	0,248	59,63	0,53
3	PMV-GA	0,323	77,67	0,92

PMV-GAning solishtirma yuzasi va to'yinish hajmi dastlabki namunaga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlangan.

Vermikulit kislotasi bilan ishlanganda adsorbentlar qavatlarini oralig'ida qo'shimcha g'ovaklarning ochilishi yuz beradi. Adsorbentlardagi g'ovakliklarning tuzilishi uning adsorbsiyalash xususiyatlarini belgilaydi (2-jadval).

2-jadval


Vermikulit va sintez qilingan polimer kompozitsiyalarida benzol bug'i adsorbsiyaga ko'ra g'ovaklari hajmi

No	Adsorbentlar	Mikrog'ovaklar xajmi ($W_m \cdot 10^3$), m ³ /kg	Mezrog'ovaklar xajmi ($W_{me} \cdot 10^3$), m ³ /kg	To'yinish xajmi ($V_s \cdot 10^3$), m ³ /kg
1	VMT	0,012	0,008	0,02
2	PMV	0,04	0,005	0,045
3	PMV-GA	0,07	0,01	0,08

Mikrog'ovaklar to'yinish nazariyasi tenglamasi yordamida hisoblangan PMV-GA mikrog'ovaklarning hajmi dastlabki vermikulitga nisbatan 7 marta yuqori bo'lishi aniqlandi. Vermikulit asosida faollab olingan sirt faol modda PMV-GA benzol bug'i adsorbsiyasi dastlabki vermikulitga nisbatan 3 martagacha ortganligini ko'rishimiz mumkin.

Poliakrilonitril va vermikulit asosida olingan kompozitsion materiallarni sanoat oqava suvlari tarkibidagi metall ionlaridan tozalash bo'lganligi sababli uning sorbsiya xossalari oshirish va uning gidrofillik xususiyatini kamaytirish zarur, chunki vermikulit suvda nisbatan to'yinib qolishi uning og'ir metall ionlarini yutish xossasi kamayishiga olib keladi.

SEM tahlili VMT va PMV-GAning sirt yuzasi hamda morfologik o'zgarishlarni kuzatish mumkin bo'ladi. 4-(a) rasmda kislotada ishlov berilgan VMTning qatlamlarini ko'rish mumkin. Vermikulit zarralari orasidagi bo'shliqlarni bir xilda ko'rsatmaydi. Vermikulitning ayrim qismida qavatlar bir-biriga juda yaqin, boshqa qismlarida bo'shliqlar juda keng.




4- rasm. VMT (a) va PMV (b) kompozitining SEM tasviri.

4-(b) VMT qatlamlari orasiga polimer moddalarning kirganligini PMV kompozit SEM tasviridan ham ko'rishimiz mumkin.

Elementar analiz kompozitsiya bo'yicha ma'lumotlarni olishda ma'lum joylar ajratilgan elektron tasvirlar, grafik spektri keltirilgan bo'lib, energiya-dispersiv elementar analizatori yordamida aniqlandi.

Sintez qilinib olingan PMV sirtining energiya-dispersion rentgen spektri analizida uglerod, kislorod va azotning mavjudligi va polimer hosil bo'lganidan dalolatdir. 6-rasmda ko'rinadiki, energiya-dispersion rentgen spektri PMV kompozitdagi azot spektrining cho'qqisiga nisbatan PMV-GAdagi azotda oshgan va elementlar foiz tarkibida ham azotning ulushi 21,4 % dan 30,5 %ga o'zgaragan.



6-rasm. PMV kompozit va PMV-GA sirtining energiya-dispersion spektri

PMV-GA ioniga Cu(II), Ni(II) ionlari sorbsiya jarayonining termodinamik funksiyalarini o'rganish PMV-GA poliamfolitga Cu(II), Ni(II) ionlari adsorbsiyalanish jarayoni natijalari asosida termodinamik funksiyalarning o'zgarishi hisoblandi. Bu funksiyalar muvozanat konstantalarini haroratga bog'liqligidan aniqlandi. $\Delta G = -RT \ln K$. $\Delta G = \Delta H - T\Delta S$ tenglamasidan ΔH va ΔS qiymatlari topildi. Buning uchun $R \ln K$ ni $1/T$ ga bog'liqlik grafigi tuzildi. To'g'ri chiziq qiya burchak tangensidan ΔN topildi, ΔS esa
$$\Delta S = \frac{\Delta H - \Delta G}{T}$$
 tenglamadan hisoblandi.

Shu tarzda hisoblangan PMV-GA sorbentiga Cu(II) va Ni(II) ionlari sorbsiyalanish jarayoni termodinamik parametrlari jadvalda keltirilgan.

Hisoblangan natijalar 4 - jadvaldagi ma'lumotlarni tahlil qilish sorbsiya jarayonning o'z-o'zidan paydo bo'lishi haqida boradi. Metall ionlarining sorbsiyasi quyidagi tartibda ortadi: Ni(II) < Cu(II). Taqdim etilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, harorat oshishi bilan sorbsiya kuchayadi, sorbsiya jarayoni erkin energiya, entalpiyaning kamayishi va entropiyasining ortishi bilan boradi, bu sorbsiya jarayonining ion almashinuv xususiyatidan dalolat beradi.

4-jadval

PMV-GA Cu(II) va Ni(II) ionlari sorbsiyasida termodinamik funksiyalarning o'zgarishi

T, K	Ion	q _e , mg/g	K, l/mol	ΔG, J/mol	ΔH, J/mol	ΔS, J/mol·K
293	Cu ²⁺	98,4	21,343	-6015,67	24968,68	120,96
303		135,6	35,766	-6135,79		
313		165,24	44,608	-6255,86		
293	Ni ²⁺	93,15	17,839	-5673,54	22964,27	107,68
303		131,6	20,782	-5712,71		

313		155,37	23,576	-59580,8		
-----	--	--------	--------	----------	--	--

Cu(II) va Ni(II) ionlarining amidoksim guruhlar bilan sorbsiyasi jarayonida hosil bo'lgan sirt komplekslarining barqarorlik konstantalarini baholash natijasida Cu(II) ionlari Ni(II) ionlarga qaraganda funksional sorbent guruhlar bilan ancha barqaror komplekslar hosil qiladi. SHubhasiz, sorbsiya qobiliyati harorat oshishi bilan ortib boradi. Bu natijalar PMV-GA da mis va nikel ionlarining sorbsiya jarayonining tezlashishiga haroratning ta'siri bilan bog'liq. Yuqori harorat reaksiya tezligini oshiradi va bo'shliqlarni hosil qiluvchi zarracha zichligini pasaytiradi, natijada muvozanat vaqti qisqaradi. Bu PMV-GA da Cu(II) va Ni(II) ionining sorbsiyasi endotermik jarayon ekanligidan dalolat beradi.

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, adsorbsiyaning muvozanat konstanta qiymati birdan katta, bu esa PMV-GAsorbenti Cu(II) va Ni(II) ionlarini selektiv yuta olishidan dalolat beradi.

Xulosa. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, vermikulit asosida sintez qilingan polimer kompozision sorbentlarning yuqori b o'kish xususiyati, katta sirt maydoni va ion almashinish qobiliyati uni sanoat korxonalarini tayyorlashda, oqova suvlari turli xil metall ionlaridan tozalashda shuningdek, metall ionlarini ajratib olish va konsentrlashda adsorbent sifatida ishlatilish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Deng, Y., Gao, Z., Liu, B., Hu, X., Wei, Z. and Sun, C. (2013) 'Selective removal of lead from aqueous solutions by ethylenediamine-modified attapulgite', *Chem. Eng. J.*, Vol. 223, pp.91–98
2. Hashem, F.S.; Amin M.S.; El-Gamal S.M.A. Chemical activation of vermiculite to produce highly efficient material for Pb²⁺ and Cd²⁺ removal. *Appl. Clay Sci.* 2015, 115, 189–200
3. Makhkamov B., Gafurov D. Synthesis ion exchange properties of new polyacrylonitrile/vermiculite composite // FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. – Фаргона, 2020. – № 6. – Б. 16-20
4. Махкамов Б.Г., Шахидова Д.Н., Орзикулов Б.Т., Гафурова Д.А. Мис (II) ионларини сорбция учун комплекс ҳосил қилувчи полимер материаллар олиш // FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. – Фаргона, 2019. – № 6. – Б. 25-29
5. Makhkamov B., Shaxidova D., Gafurova D. Synthesis of polyacrylonitrile/vermiculite composite and its modification with hydroxyl amine // Kompozitsion materiallar Ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali. – Тошкент, 2020. – № 4. – Б. 206-208
6. Hashem, F.S.; Amin, M.S.; El-Gamal S.M.A. Chemical activation of vermiculite to produce highly efficient material for Pb²⁺ and Cd²⁺ removal. *Appl. Clay Sci.* 2015, 115, 189–200.
7. Gafurova D., Makhkamov B. Removal of copper(II) in vermiculite and polyacrylonitrile/vermiculite composite // Global and regional aspects of sustainable development Copenhagen. – Copenhagen, 2021. – № 43. February. – P. 579-586.
8. Makhkamov, B., Makhkamova N., Shakhidova D., Gafurova D. // Adsorption of Benzene Vapor in Polyacrylonitrile (PAN)/(VMT) Vermiculite Composite Materials // AIP Conference Proceedings 2432, 050047 (2022)
9. Gafurova D.A., Khakimzhanov B.S., Mukhamediev M.G. et al. Sorption of Cr(VI) on the Anion-Exchange Fibrous Material Based on Nitron. *Russian Journal of Applied Chemistry* 75, 71–74 (2002).



UDK:547.327.2/304.7

Samatjon NURALIEV,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

E-mail: samatjonnuraliyev@gmail.com

Suvonqul NURMONOV,

O'zbekiston Milliy universiteti «Umumiy va neft-gaz kimyo» kafedrasini professori

E-mail: nurmonov_se@mail.ru

Orifjon QODIROV,

O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti

E-mail: qsh@bk.ru

O'ktam BERDIYAROV,

E-mail: uktambek.1990@mail.ru

STUDY OF THE PROCESS OF AMINE PRODUCTION BASED ON HIGH FATTY ACID NITRILE

Annotation

Chemical substances extracted from plants are widely used in various fields of the chemical industry. Aliphatic amines are also used in various fields, including in the chemical industry, in the extraction of potassium chloride salt from the content of Selvinite mineral, as a foaming flotation agent in the flotation process. In the article, amides and nitriles of saturated and unsaturated carboxylic acids were synthesized on the basis of distilled (containing C₁₆-C₁₈ carbon atoms) fatty acids (DFA) isolated from the waste (soapstock) of oil and oil plants. Primary aliphatic amines with a purity of 92-96% were obtained by hydrogenation of the obtained carbonic acid nitriles with hydrogen at high pressure. The properties and composition of the synthesized compound were studied by gas chromatography with mass spectrometric detector (GX-MS) and infrared (IR) spectra.

Key words: Distilled fatty acids, amide and nitrile of carboxylic acids, aliphatic amines, nickel, aluminum oxide, hydrogenation reaction, catalyst, fluororeagent.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ПОЛУЧЕНИЯ АМИНОВ НА ОСНОВЕ НИТРИЛА ВЫСОКОЖИРНЫХ КИСЛОТ

Аннотация

Химические вещества, извлекаемые из растений, широко используются в различных областях химической промышленности. Алифатические амины применяются также в различных областях, в том числе в химической промышленности, при извлечении хлоридно-калиевой соли из содержащегося в ней минерала сельвинита, в качестве пенообразователя флотации в процессе флотации. В статье синтезированы амиды и нитрилы насыщенных и ненасыщенных карбоновых кислот на основе дистиллированных (содержащих C₁₆-C₁₈ атомов углерода) жирных кислот (ДЖК), выделенных из отходов (соапстока) масличных и масляных растений. Первичные алифатические амины чистотой 92-96% получали гидрированием полученных нитрилов угольной кислоты водородом при высоком давлении. Свойства и состав синтезированного соединения изучены методами газовой хроматографии с масс-спектрометрическим детектором (GX-MS) и инфракрасными (ИК) спектрами.

Ключевые слова: Дистиллированные жирные кислоты, амид и нитрил карбоновых кислот, алифатические амины, никель, оксид алюминия, реакция гидрирования, катализатор, фторрегент.

YUQORI YOG' KISLOTA NITRILLARI ASOSIDA AMINLAR OLISH JARAYONINI O'RGANISH

Annotatsiya

O'simliklardan ajratib olingan kimyoviy moddalar kimyo sanoatida turli sohalarida keng qo'llanilmoqda. Alifatik aminlarni ham qo'llanish sohalarida turlicha bo'lib, jumladan, kimyo sanoatda selvinit minerali tarkibidan kaliy xlorid tuzini ajratib olishda, flotatsiya jarayonida ko'piklantiruvchi flotoreagent sifatida ishlatiladi. Maqolada yog' moy kombinatlari chiqindisi (soapstock) dan ajratib olingan distillangan (tarkibida C₁₆-C₁₈ uglerod atomi saqlagan) yog' kislotalari (DYoK) asosida tuyingan va tuyinmagan karbon kislotalari amidlari va nitrillari sintezlangan. Olingan karbon kislota nitrillari yuqori bosimda vadorod bilan gidrogenlab tozalik darajasi 92-96% bo'lgan birlamchi alifatik aminlar olingan. Sintez qilingan birikmaning xossalari, tarkibi (mass-spektrometrik detektorli gaz xromatografiya) (GX-MS) va infraqizil (IQ) spektrlar orqali o'rganildi.

Kalit so'zlar: Distillangan yog' kislotalari, karbon kislotalar amidi va nitrili, alifatik aminlar, nikel, alyuminiy oksid, gidrogenlash reaksiyasi, katalizator, flotoreagent.

Kirish. Kimyo sanoati uchun zaruriy mahsulotlarni iqtisodiy tejamkor usullarda ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish kimyogar texnologlar oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu borada respublikamiz kimyo korxonalariga xorijdan valyuta evaziga olinayotgan xomashyolarni mahalliy lashtirish dasturlar ishlab chiqilgan.

Yuqori molekulyar massali aminlar dunyo miqyosida ko'p miqdorda ishlab chiqiladi va keng ko'lamda ishlatiladi. Ularni qo'llanilishining muhim sohalaridan biri metall tuzlari flotoreagenti sifatida foydalanish hisoblanadi.

Xorijda o'simliklar tarkibidan ajratib olingan tabiiy kislotalardan yuqori aminlar ishlab chiqariladi. Amerikada ishlab chiqarilayotgan aminlarning taxminan 85% tabiiy xomashyolardan olinadi.

Alifatik yog' qatori aminobirikmalari xalq xo'jaligining farmatsevtika, kosmetika sohaslarida, organik sintez jarayonlarida, sanoat sohasida flotareagent sifatida silvinit tarkibidan kaliy xlorid tuzini texnik tozalikda flotasiya usulida ajratib olishda keng qo'llaniladi. Ushbu zavodda aminlarga bo'lgan ehtiyoj yiliga 250-300 t dan ortiqni tashkil etadi va valyuta hisobiga xorijdan keltiriladi.

Respublikamizda aminlarni sintez qilish uchun kerakli xomashyolardan; yuqori yog' kislotalari, oziq-ovqat sanoati chiqindisi hisoblangan soapstoklar, sivush moyi, ammiak, azot, karbamid va natriy gipoxlorit va boshqa zaruriy boshlang'ich moddalar mavjud.

Alifatik aminlarni sintez qilishning bir qancha usullari mavjud bo'lib, asosan yog' moy kombinatlari chiqindisidan ajratib olinadigan tarkibida C₁₆-C₁₈ uglerod atomi tutgan yuqori yog' kislotalari asosida olish iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Aminlar sintezida karbon kislotalar, karbon kislota amidlari va nitrillar ham boshlang'ich moddalar sifatida qo'llaniladi. Amidlar karbon kislota molekulasidagi gidroksil guruhini amino gruppaga almashinishidan hosil bo'lgan birikmalar bo'lib, ammiakning asil hosilalari sifatida qaraladi. Amidlarni bevosita ammiak va karbon kislotalardan sintez qilib bo'lmaydi, chunki ammiak bilan kislota amidlar emas, balki ammoniy tuzlari hosil qiladi. Ammo, karbon kislotalarning ammoniy tuzlari qizdirilganda ular kislota amidlarini hosil qilib parchalanadi.

Karbamid ta'sirida karbon kislotalardan amidlar sintez qilinadi (Sherbulye reaksiyasi) [1]. Paxta yog'idan ajratilgan stearin va palmitin kislotalarning karbamid bilan o'zaro ta'siri natijasida ham kislota amidlari olingan, jarayon borishining optimal sharoitlari topilgan [2]. Turli o'simliklardan ajratib olingan yuqori yog' kislotalarining amidlarini olishning boshqa usullari ham mavjud [3-5].

Mono va dietanolamidlarni olish jarayoni o'simlik yog' kislotalari trigliseridlarining mono, dietanolamin bilan o'zaro ta'siriga asoslangan. Jarayonda asosiy mahsulotdan tashqari mono va dietanolamidlarning yog' kislotalari bilan atsillanish mahsulotlari atsiletanolamidlar, shuningdek, aminoetanolning ikki molekulasini sikllanish mahsuloti piperazin ham hosil bo'ladi. Bunday jarayonlar asosan katalizatorlar ishtirokida sodir bo'ladi [6].

Kislota nitrillari R-C≡N organik birikmalar bo'lib, sian kislotasini vodorodi o'rniga radikal almashgan gomologlari sifatida qaraladi. Ular ko'pincha karbosiklik kislotalarning hosilalari (amid degidratasiyasining mahsulotlari) ham hisoblanadi. Karbon kislota nitrillari to'yinmagan birikmalar bilan reaksiyaga kirishib (Ritter reaksiyasi) amidlarni hosil qiladi. Ushbu reaksiya nitrillarni karbokationlar bilan alkilash orqali karboksiklik kislotalarning N-almashgan amidlarini sintez qilish usuli hisoblanadi [1,2,7].

Aksariyat karbon kislota nitrillari zaharli hisoblanadi, ularning toksikligi sian kislotasiga nisbatan past bo'lib, gomologlari suvda eriydigan suyuq moddalar [7]. Karbon kislota nitrillarni sintez qilish uchun yog'-moy sanoati chiqindilaridan olingan distillangan yog' kislotalari (DYoK) ishlatilgan [8].




Kislota nitrillarni olishni bir qancha usullari mavjud; amidlarni suvsizlantirib 500 °C da alyuminiy oksid katalizatori ishtirokida degidrogenlab, aldoksimlarni suvsizlantirish orqali va Kolbe sintezi orqali, vodorod yoki litiy alyuminiy gidrid (LiAlH₄) bilan qaytarib, oksim birikmalarini katalitik gidrogenlab hamda Shmidt, Xofmann, Lossen va Kurtius usullari bilan karbon kislotalar yoki ularning hosilalaridan birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminlarni olish mumkin [9, 10, 11].

Yog' moy kombinatlari chiqindisidan ajratib olingan distillangan yog' kislotalari asosida kislotalarning nitrili sintez qilingan. Nitrillarni 5,5- 5,7 mPa bosimda vodorod bilan gidrogenlab 98% tozalik bilan birlamchi alifatik aminlar olingan [12].


Aminlar selektiv erituvchilar sifatida sulfat kislota eritmalaridan uranni ajratib olishda, silvinitdan kaliy xloridni flotasiya qilishda, organik asoslar sifatida va aminlanish reaksiyasida ishlatiladi. Bundan tashqari, aromatik aminlar ko'p miqdorda bo'yoqlar, vulkanlash tezlatgichlari, antioksidantlar ishlab chiqarishda, dori vositalarini sintez qilishda, sun'iy smolalar ishlab chiqarishda va boshqa sohalarda qo'llaniladi [13].

Alifatik birlamchi aminlarni respublikamizda mavjud xomashyo hisoblangan C₁₆₋₁₈ tarkibli distillangan yog' kislotalar, ammiak, vodorod va mahalliy katalizatorlar ishtirokida bosqichma-bosqich olinish usuli yaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sintez qilingan kislota nitrilidan yuqori bosimli reaktorda (1-rasm) ammiak atmosferasida 0.7% nikel katalizatori ishtirokida gidrirlash jarayoni o'tkazilib C₁₆₋₁₈ tarkibli birlamchi aminlar sintez qilindi.



Sintez qilingan va tozalangan nitrildan reaktorga 300 gr joylandi. Ammiak (1) ballondan (3) ventill orqali reaktorga berildi va 10 Atm bosim hosil qilindi. Ammiakning bosimi (2) monometr orqali nazorat qilindi, (5) ballondan esa (3') ventill orqali reaktorga 60 atm vodorod berildi. Monometr (2^{II}) yordamida vodorodning bosimi olchandi. Reaktorning bosimi (2^I) monometr orqali aniqlandi, reaksiya 3-4 soat olib borildi. Jarayonda nikel katalizatoridan foydalanildi (1- jadval).



1-rasm. Yuqori bosimli reaktor

1-ammiak uchun balon. 2, 2^I, 2^{II}-manometrlar. 3, 3'-ventillar. 4-reaktor.


5-vodorod uchun ballon.

1-jadval


Nitrilni gidrogenlash jarayoni texnologik parametrlari

№	Texnologik parametrlar	Qiymati
1	Jarayonning umumiy bosimi, Atm	70
2	Ammiakning bosimi, atm	10
3	Vodorodning bosimi, atm	60
4	Katalizator konsentratsiyasi, %	0.7
5	Jarayon harorati, °C	180
6	Jarayon davomiyligi, soat	4
7	Birlamchi amin unumi, %	92

Gidirlash jarayoni ammiak atmosferasida olib borilishi birlamchi amin unumini oshiradi. Jarayonda hosil bo'lgan birlamchi amin nitril bilan ta'sirlashib ammiak ajralishi bilan ikkilamchi aminni hosil qiladi. Le-Shatelaye prinsipiga asosan jarayonga ammiak kiritilishi bilan ammiak hosil bo'lishi ingibirlanadi va ikkilamchi hamda uchlamchi aminlarning hosil bo'lishi to'xtaydi, natijada birlamchi amin unumi oshishiga erishiladi [3, 4].



Sintezlangan birlamchi aminni organik erituvchilar: metanol, etanol, benzol va geksanda eruvchanlik qiymati aniqlandi va tozalashda foydalanildi (2-rasm)




2-rasm. Birlamchi aminlarni erituvchilarda eruvchanligi

Katalizat tarkibidagi aminlarni katalizatoridan tozalash uchun katalizat 50-55°C da metanol yoki etanolda eritildi va filtirlandi. Olingan filtrat 0°C haroratgacha sovitildi, cho'kmaga tushgan oq rangli amin ekstraksiya qilindi, filtirlandi va xona haroratida quritildi. Quritilgan massani suyuqlanish harorati BIOBASE BMP-1C qurilmada aniqlandi (62,0 - 68,8 °C).

Tahlil va natijalar. Laboratoriyada har bir bosqich natijasida olingan moddalar infraqizil IQ-spektroskopiya va GX-MS (mass-spektrometrik detektorli gaz xromatografiyasi) usullarida tahlil qilindi.


Dastlab xomashyo IQ-spektroskopiya qilinganda yuqori molekulyar karbon kislotalarga xos piklar borligi aniqlandi. Birinchi bosqich mahsuloti analiz qilinganda esa yuqori molekulyar karbon kislotalar ammoniyli tuzlariga xos yutilish sohalari kuzatildi. Ikkinchi va uchinchi bosqich mahsulotlari analizida kislota amidlari va nitrillariga xos piklar borligi tasdiqlandi. Uchinchi bosqich mahsuloti yuqori bosim ostida vodorod bilan gidrillanganda amidlar va nitrillardan aminlar sintez bo'lishi va mahsulotning asosiy qismi C₁₈N₃₇NH₂, C₁₆N₃₃NH₂ aminlardan iboratligi IQ-spektroskopiya tahlili natijalari asosida ko'rsatildi. IQ-spektrlar Bruker firmasining INVENIO-S Fure spektrometrida olindi (4000-400 sm⁻¹, ATR) (2-rasm)

Sintez qilingan moddalarning IQ-spektrida 3392,37 sm⁻¹ sohada birlamchi amin guruhining -N-H bog'iga xos valent tebranishlari hisobiga hosil bo'lgan yutilish chiziqlari kuzatildi. Shuningdek 2912-2846 sm⁻¹ sohalarda sp³ gibridlangan uglerod atomiga bog'langan C-H bog'ining yutilish chiziqlari nomoyon bo'ldi. Metil guruhiga xosasi simmetrik deformatsion tebranishlar hisobiga hosil bo'lgan yutilish chiziqlari 1420 sm⁻¹ sohada kuzatildi. Metilen guruhidagi -CH₂ bog'iga xos qaychisimon deformatsion tebranishlar esa 1466 sm⁻¹ nomoyon bo'ldi.



2-Rasm. Sintez qilingan alifatik aminlar IQ-spektri

Yog'-moy sanoati ikkilamchi xomashyosi yoki o'simlik yog'idan olingan distillangan yog' kislotalariga (DYoK) ammiak ta'sirida kislotalarning amidi va nitrili hosil bo'ldi. Ushbu mahsulotlar GX-MS (mass-spektrometrik detektorli gaz xromatografiyasi) usulida tahlil qilindi (3-jadval, 3- rasm).




3-rasm. Sintez qilingan nitrilning GX-MS xromatogrammasi

Sintez qilingan nitrilning xromato-mass-spektri tahlili

№	Moddaning nomi	Chiqish vaqti	Miqdori, mass. %
1	Undekanitril	6.29	0.24
2	Geksadekanamin	8.05	1.54
3	Pentadekanitril	8.49	46.55
4	Oktadekanamin	10.07	0.27
5	Oktadekanitril	10.48	39.86
6	Palmitinamid	11.16	7.64
7	Tetradekanamid	12.94	3.90

Distillangan yog' kislotalarini ammiak bilan reaksiyasi mahsuloti tarkibida asosan nitrillar, aminlar hamda qisman amidlar hosil bo'ladi. Kislota nitrillari yuqori bosimda ammiakli muhitda vodorod ishtirokida birlamchi aminlar sintez qilindi. Olingan mahsulot sifat va miqdor jihatdan GX-MS usuli orqali tahlil qilindi (4-jadval, 5-rasm).



4-Rasm. Sintez qilingan aminning GX-MS xromatogrammasi

Sintez qilingan aminning xromato-mass-spektri tahlili

№	Moddaning nomi	Chiqish vaqti (minut)	Ulushi %
1	Pentadekan	2.81	0.83
2	Geptadekan	5.48	2.04
3	Geksadekanamin	8.43	20.76
4	Oktadekanamin	12.23	73.96
5	Dodekan	15.88	2.42

Jarayonda mahsulot sifatida asosan alifatik aminlar: oktadekanamin va geksadekanamin hosil bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

-alyuminiy oksidi katalizatori ishtirokida tarkibida C₁₆-C₁₈ uglerod atomi tutgan distillangan yog' kislotalariga ammiak ta'siri natijasida kislotalar nitrillari olindi, ularning xossalari, mass xromatografiyasi tahlili o'rganildi.

- nikel katalizatori ishtirokida kislota nitrillarini gidrogenlab 94% tozalikdagi yog' kislotalarining birlamchi aminlari olindi va ularning xossalari o'rganildi, tarkibi esa mass- xromatografiya usullari yordamida isbotlandi.

-birlamchi alifatik aminlarni sintez qilishda optimal sharoit topildi: harorat 175-180 °C; ammiak bosimi 10 MPa; vodorod bosimi 60 MPa; umumiy bosim 70 MPa; reaksiya davomiyligi 4-5 soat, mahsulot tozaligi 94%.

ADABIYOTLAR

- Гауптман З., Грефе Ю., Ремане Х. Органическая химия.-М.: Химия, 1979 г. 418-428 с
- Ширинов Г.К., Ашуров Ж. М., Ибрагимов Б.Т. Амидирование стеариновой и пальмитиновой кислот выделенных // Университет: Химия. и биология: электрон. научн. журн. Июнь, 2020г. № 6(72)
- Карпеева И.Э., Зорина А.В., Шихалиев Х.С. Синтез амидов жирных кислот подсолнечного масла // Вестник ВГУ, серия: Химия. Биология. Фармация, 2013, № 2. 39-41с.
- Synthesis of palm oil-based diethanolamides / Lee C. S. [et al.] // J. Am. Oil. Chem. Soc. – 2007. –V. 84. –P. 945- 952.
- Способ получения амидов жирных кислот: пат. Рос. Федерация. №2 559 575 С1; заявл. 29.06.2015; опубл.10.10.2016, Бюл. №28.
- Synthesis of alkanolamide: a nonionic surfactant from the oil of gliricidia sepium / A. Adewuyi [et al.] // J. Surfact Deterg. - 2012. - V. 15. - P. 89-96.
- Зильберман Е.Н. Реакции нитрилов // М., «Химия» 1972-348-350с
- Kadirov O. Sh., Kurbanov Ch. Z., Ikramov A. Preparation of aliphatic amines from fatty acids. Polymeric and organic materials. ТКТИ. Т., 2018, issue 1, p 35-37.
- Бюлер К., Пирсон Д. «Органические синтезы» Масква.Мир. 1973 г. 470-480 с.
- Applewhite T.H. Oilseed Technology and Utilization. Education – Hungary, 1991. 325 p
- Duveen R.F., Nitration and amination: Control of Equilibria., Buss AG Basel, 4133 Pratteln, Switzerland., 172-180 pages., Proceedings "World conference on oleochemicals Into the 21st Century". Edited by Thomas H. Applewhite.
- Рихе А. Основы технологии органических веществ. М., Госхимиздат, 1959г. 532 с.
- Korsikana T. Zhirnyye aminy i ikh proizvodnyye [Fatty amines and their derivatives]. St. Petersburg, 2009. 12 p.



UDK:66.0973+547.362

Behruzjon OMANOV,
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: omanovbekhruzjon@gmail.com
Maftuna QILICHEVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Samarqand davlat universiteti professori A.Nasimov taqrizi asosida

VINIL ASETAT POLIMER PLYONKALARINING TERMOAKTIVATSION SPEKTROSKOPIYASI

Аннотация

Maqolada vinil asetat sopolimeri (VA) aralashmasi asosidagi polimer plyonkalarni o'rganish natijalari keltirilgan. Aralashma termal stimulyatsiya qilingan depolarizatsiya bilan tekshirildi. Ta'kidlanishicha, har xil vinil asetat tarkibiga ega bo'lgan namunalar uchun olingan depolarizatsiya oqimlarining haroratga bog'liqliklarida bitta maksimal kuzatiladi. Ushbu jarayonga mos keladigan faollashtirish energiyalarini hisoblash natijalari aralashmadagi vinil asetat ulushining ortishi dipol-segmental harakatchanlikning oshishiga va natijada polimerning moslashuvchanligini oshirishga olib keladi, degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: asetilen, sirka kislota, vinil asetat sopolimeri, termal stimulyatsiyalangan depolarizatsiya, termoaktivatsion spektroskopiya, dipol-segmental relaksatsiya.

ТЕРМОАКТИВАЦИОННАЯ СПЕКТРОСКОПИЯ ВИНИЛАЦЕТАТНЫХ ПОЛИМЕРНЫХ ПЛЕНОК

Аннотация

В статье представлены результаты исследования полимерных пленок на основе смеси сополимеров винилацетата (ВА). Смесь зондировали методом термостимулированной деполяризации. Отмечено, что на температурных зависимостях токов деполяризации, полученных для образцов с различным содержанием винилацетата, наблюдается один максимум. Результаты расчета энергий активации, соответствующих этому процессу, позволяют сделать вывод, что увеличение доли винилацетата в смеси приводит к увеличению дипольно-сегментарной подвижности и, как следствие, к увеличению гибкости полимера.

Ключевые слова: ацетилен, уксусная кислота, сополимер винилацетата, термостимулированная деполяризация, термоактивационная спектроскопия, диполь-сегментарная релаксация.

THERMOACTIVATION SPECTROSCOPY OF VINYL ACETATE POLYMER FILMS

Annotation

The article presents the results of the study of polymer films based on a mixture of vinyl acetate copolymer (VA). The mixture was probed with thermally stimulated depolarization. It is noted that one maximum is observed in the temperature dependences of depolarization currents obtained for samples with different vinyl acetate content. The results of the calculation of activation energies corresponding to this process allow us to conclude that an increase in the proportion of vinyl acetate in the mixture leads to an increase in the dipole-segmental mobility and, as a result, to an increase in the flexibility of the polymer.

Key words: acetylene, acetic acid, vinyl acetate copolymer, thermally stimulated depolarization, thermoactivation spectroscopy, dipole-segmental relaxation.

Kirish. Bugungi kunda poliolefinlarni texnologiyaning turli sohalarida qo'llashning yangi usullari paydo bo'lmoqda. Polimer dielektriklarini qo'llash sohalaridan biri elektretlarni yaratishdir. Elektretlar dielektriklar bo'lib, ular qutblanish natijasida atrofdagi kosmosda kuchli elektrostatik maydon hosil qiladi. Ular elektroakustik va elektromexanik transduserlar va elektret havo filtrlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Shuningdek, elektretlar tibbiyotda va sanoatda faol qadoqlash materiallari sifatida ishlatiladi va hokazo. Bunga polimer tuzilishini yoki sopolimer matritsasining tarkibini o'zgartirish orqali erishish mumkin.

Bunday kompozitsiyalarni ishlab chiqarishda tez-tez ishlatiladigan polimer aralashmalaridan biri bu vinil asetat sopolimerining birikmasidir. Har xil turdagi polimerlarni sevilen bilan aralashtirish polimerlarning mexanik va elektr xususiyatlarini o'zgartirish uchun keng qo'llaniladi.

Vinil asetat qutbli polimer bo'lib, uning qutblari vinil asetat mavjudligi bilan belgilanadi. Ma'lumki, vinil asetatning tarkibi ortib borayotganligi sababli, past haroratlarda sevilenning moslashuvchanligi va mustahkamligi yaxshilanadi. Bu uni muzlatilgan oziq-ovqatlar uchun faol qadoqlash uchun mos material qiladi. Elastik elektretlar nafaqat faol qadoqlash sifatida, balki yumshoq elektronkada, masalan, puls to'lqini yoki yurak urishi sensorlari va taktill nazorat qilish qurilmalarida ham qo'llanilishi mumkin.

Elastik elektret polimerlari bo'yicha tadqiqotlarning o'zaro bog'liqligini hisobga olsak, vinil asetat sopolimeri mos material bo'lishi mumkin. Savilenning elektret xossalari to'liq tavsiflangan bo'lishiga qaramay, vinil asetatning foizi uning elektrofizik ko'rsatkichlariga qanday ta'sir etishi haligacha to'liq aniq emas.

Shu munosabat bilan, ushbu ishning maqsadi vinil asetat foizining elektr xususiyatlariga ta'sirini o'rganishdir.

Namunalar va tadqiqot usullari. Tadqiqotda asosiy e'tibor yuqori vinil asetat sopolimeri bilan aralashmasiga qaratildi. Aralashma namunalari qalinligi taxminan 300 mkm.


Polimerlarni aralashtirish laboratoriya mikroroliklarida $130 \pm 5^\circ\text{C}$ haroratda amalga oshiriladi. Aralashtirish vaqti 3 minut. Aralashma $170 \pm 5^\circ\text{C}$ haroratda bosish orqali tayyorlanadi. Bosim ostida ushlab turish vaqti 5 minut.

Asosiy tadqiqot usuli sifatida termal stimulyatsiya qilingan depolarizatsiya (TSD) usuli tanlangan. Usulning mohiyati namunani sovutish paytida qutblanishda va namunalar qizdirilganda oqimlarni keyingi o'lchashda yotadi. Namuna polarizatsiyasi shisha o'tish haroratidan yuqori haroratda amalga oshiriladi, so'ngra yoqilgan maydon bilan harorat pasayadi. Bunday holda, dipollarning yo'nalishi muzlatiladi. Namunani isitish dipollarning molekulyar harakatchanligini oshirishga olib keladi. Natijada, namuna qizdirilganda, u orqali depolarizatsiya oqimi o'tadi.


Tadqiqotda termal stimulyatsiya qilingan oqimlar TSC-II (Setaram) da o'lchanadi. O'lchash oqimining ruxsati 10–16 A. Ishlash harorati oralig'i -150°C dan 250°C gacha. Haroratni o'lchash xatosi $0,1^\circ\text{C}$. Namunalar 40°C haroratda 2 daqiqa davomida 100 V/mm elektr maydonini qo'llash orqali kontakt usuli bilan polarizatsiya qilinadi, shundan so'ng ular qo'llaniladigan haroratda $2^\circ\text{C}/\text{min}$ dan 0°C gacha sovutiladi. maydon. Tadqiqotlar $3^\circ\text{C}/\text{min}$, $7^\circ\text{C}/\text{min}$, $9^\circ\text{C}/\text{min}$ isitish tezligida amalga oshiriladi.

Faollashtirish energiyasi isitish tezligini o'zgartirish orqali hisoblanadi. Depolyarizatsiya egri chiziqlari ikkita namunani isitish tezligida olinadi. Ular asosida elektr faol nuqsonlarning energiya taqsimoti funksiyalari quriladi, bu esa aktivlanish energiyasini baholash imkonini beradi.

Ekspirimental natijalar va muhokama. TSD spektrlari maksimal sifatida ifodalangan bitta jarayonni (1-rasm) ko'rsatadi. Uning pozitsiyasi aralashmaning tarkibiy qismlarining nisbatiga bog'liq. Vinil asetat foizini oshirganda, maksimal harorat pastroqqa o'tadi va uning balandligi pasayadi. Maksimal cho'qqining harorat holatining VA foizga bog'liqligi chiziqli bog'liqlik bilan tavsiflanadi (2-rasm).




1-rasm. Turli VA foizli namunalari uchun olingan depolarizatsiya oqimlarining haroratga bog'liqligi.



2-rasm. Maksimal harorat holatining aralashmadagi VA foiziga bog'liqligi


Tepalik pozitsiyasining VA ulushi nolga moyil bo'lgan mintaqaga siljishini tavsiflovchi to'g'ri chiziqning ekstrapolyatsiyasi 40°C atrofidagi haroratni ko'rsatadi (2-rasm). Taxmin qilish mumkinki, 1-rasmda kuzatilgan maksimal qiymat poliasetilenda sodir bo'ladigan zaryadning to'planishi va bo'shshish jarayoniga to'g'ri keladi. Aralashmada VA foizining oshishi bu jarayonning pastroq haroratga o'tishiga olib keladi. Bunday holda, poliasetilendagi gevseticilar soni kamayadi va ularning harakatchanligi osonlashadi.

TSD spektrlari uchun oqimning vaqtga nisbatan grafigi ostidagi maydon hisoblanadi. Bu dam olish vaqtida chiqarilgan zaryadga mos keladi. Dipol-segmental gevsetime holatida, bu zanjir segmentlarining aylanishi foydasiga dalildir. Pik maydonining kamayishi aralashmadagi gevseticilar miqdorining kamayishini ko'rsatadi va shuningdek, TSD spektrida tepalikning mavjudligi uchun poliasetilen mas'ul ekanligini tasdiqlaydi (3-rasm).



3-rasm. Grafika ostidagi maydonning aralashmadagi VA foiziga bog'liqligi

Depolarizatsiya oqimlari spektrlarida kuzatilgan jarayon termal faollashtirilgan kelib chiqishga ega. Namuna isitish tezligi oshgani sayin, maksimal harorat yuqoriroq tomonga siljiydi (4-rasm).



4-rasm. Bir xil VA foizli (70%), lekin har xil isitish tezligidagi namunalarda uchun olingan depolarizatsiya oqimlarining haroratga bog'liqligi: 1—7 °C/min, 2—9 °C/min.

Bir nechta isitish tezligi uchun depolarizatsiya oqimlarini o'lchash orqali ushbu namunalardagi elektr faol nuqsonlarga mos keladigan faollashtirish energiyasini aniqlash mumkin. Isitish tezligini o'zgartirish usuli bilan hisoblangan faollashtirish energiyalari 1-jadvalda ko'rsatilgan.

Jadval 1. Aktivlanish energiyasining sopolimerdagi VA foizga bog'liqligi

Vinil asetat foizi, %	Faollashtirish energiyasi, eV
30	0.52
40	0.50
50	0.50
60	0.46
70	0.45
80	0.35
90	0.33

Aralashmada VA ulushining ortishi bilan faollashuv energiyasi qiymatlarining biroq pasayishi kuzatiladi. Bu fakt zanjir segmentlarining harakatchanligi osonlashtirilganligini va polimer yanada moslashuvchan bo'lishini ko'rsatadi.

Ma'lumki, polimerning kristallik darajasining o'zgarishi bilan a-relaksatsiyaga mos keladigan cho'qqining maksimal harorati amalda doimiy faollik energiyasiga siljiydi. VA aralashmasining TSD spektrlaridagi tepalikning harakati tahlil qilingan ma'lumotlarga o'xshaydi. Bu a-relaksatsiya TSD spektrlarida ushbu maksimalning paydo bo'lishiga sabab bo'lganining yana bir tasdig'i bo'lishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, VA aralashmalarining termal stimulyatsiyalangan depolarizatsiyasi spektrlarida bitta maksimal mavjud. Uning mavjudligi poliasetilenda yuzaga keladigan gevsheme jarayonlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Maksimal depolarizatsiya oqimi VA foizining oshishi bilan pastroq haroratlar mintaqasiga o'tadi. Bunday holda, maksimal maydon kamayadi.

Bu jarayon polimerning kristall mintaqasida karbonil guruhlar mavjudligi sababli poliasetilenda dipol-segmental relaksatsiya bilan bog'liqligi taxmin qilingan. Aralashmadagi VA ulushining ortishi bilan TSD spektridagi tepalik maydonining kamayishi poliasetilenda sodir bo'ladigan jarayon maksimal ko'rinishning sababi ekanligini tasdiqlaydi.

Bu jarayonga mos keladigan aktivlanish energiyasi aralashmadagi VA ulushi ortishi bilan kamayishi aniqlangan. Shu sababli, VA foizining oshishi dipol-segmental harakatchanlikni osonlashtiradi va polimer yanada moslashuvchan bo'ladi. Moslashuvchanligi yuqori bo'lgan aralashmalar moslashuvchan polimerlardan foydalanadigan ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

- Oreski G., Ottersb"ock B., Omazic A., Degradation processes and mechanisms of encapsulants, in: Durability and Reliability of Polymers and Other Materials in Photovoltaic Modules, Elsevier, 2019, pp. 135–152.
- Lange R.F., Luo Y., Polo R., Zahnd J., The lamination of (multi) crystalline and thin film based photovoltaic modules, Prog. Photovoltaics Res. Appl. 19 (2) (2011) 127–133.
- Kopecek R., Libal J., Bifacial photovoltaics 2021: status, opportunities and challenges, Energies 14 (8) (2021) 2076.
- Pern F., Czanderna A., Characterization of acetylene vinyl acetate (AVA) encapsulant: effects of thermal processing and weathering degradation on its discoloration, Sol. Energy Mater. Sol. Cell. 25 (1–2) (1992) 3–23.
- Bekhruzjon Omanov, Normurot Fayzullaev, Mukhabbat Khatamova, Almagul Xalibekova, Madina Avezova//Optimizing Vinyl Acetate Production Process and Selecting of Appropriate Reactor Type//AIP Conference Proceedings 2789, 020008 (2023) <https://doi.org/10.1063/5.0145637>
- Bekhruzjon Omanov, Normurot Fayzullaev, Mukhabbat Khatamova, Nigina Ruziqulova, Sardor Rustamov//Energy and Resource Saving Technology of Vinylacetate Production from Acetylene// AIP Conference Proceedings 2789, 020009 (2023) <https://doi.org/10.1063/5.0145636>



UDK: 547.854.4

Shohzod OCHILOV,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

E-mail: shahzodochilovnuu@gmail.com

Gulnara SHAKIRZYANOVA,

O'zR FA O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi, k.f.n.

E-mail: gulnara-sh@rambler.ru

Rahmat ESANOV,

O'zR FA O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi, PhD

E-mail: esanovrahmat@gmail.com

Alimjon MATCHANOV,

O'z RFA O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti professori, kimyo fanlari doktori,

E-mail: olim_0172@mail.ru

O'zR FA O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti "Quyi molekulyar biologik faol birikmalar" laboratoriyasi katta ilmiy xodimi, PhD F.A.Sobirova taqrizi asosida

SYNTHESIS OF NEW DERIVATIVES OF 5-FLUOROURACIL

Annotation

5-Fluorouracil and its derivatives have been used for many years in the treatment of tumor diseases (gastrointestinal, gynecological, head and neck, breast cancer). 5-Fluorouracil against cancer it is a powerful agent and at the same time has many harmful properties. In this work, in order to reduce the toxicity of 5-FU, it was first exposed to formalin and a compound of 5-FU with methylol group was obtained. Then, by treating this compound with different carboxylic acids (formic, acetic and benzoic), derivatives of 5-FU were synthesized. The analysis of the obtained products was studied by IR, UV, HPLC and gas chromatograms.

Key words: 5-Fluorouracil (5-FU), formic acid, acetic acid, benzoic acid, N,N'-dicyclohexylcarbodiimide (DCC), N,N'-dimethylaminopyridine-4 (DMAP), methanol.

СИНТЕЗ НОВЫХ ПРОИЗВОДНЫХ 5-ФТОРУРАЦИЛА

Аннотация

5-Фторурацил и его производные уже много лет применяют при лечении опухолевых заболеваний (желудочно-кишечных, гинекологических, рака головы и шеи, молочной железы). 5-Фторурацил против рака является мощным средством и при в то же время обладает многими вредными свойствами. В этой работе для снижения токсичности 5-ФУ его впервые обработали формалином и получили соединение 5-ФУ с метилольной группой. Затем путем обработки этого соединения различными карбоновыми кислотами (муравьиной, уксусной и бензойной) синтезировали производные 5-ФУ. Анализ полученных продуктов изучали методами ИК, УФ, ВЭЖХ и газовой хроматографии.

Ключевые слова: 5-фторурацил (5-ФУ), муравьиная кислота, уксусная кислота, бензойная кислота, N,N'-дициклогексилкарбодимид (ДЦК), N,N'-диметиламинопиридин-4 (ДМАП), метанол.

5 – FTORURATSILNING YANGI HOSILALARI SINTEZI

Annotatsiya

5-Ftoruratsil va uning hosilalari o'sma kasalliklar (oshqozon-ichak, ginekologik, bosh va bo'yin, ko'krak saratoni)ni davolashda uzoq yillardan buyon foydalanib kelinadi. 5-Ftoruratsil saraton kasalliklarga qarshi kuchli vosita bo'lib shu bilan bir vaqtda ko'plab zararli xususiyatlarga ega. Ushbu ishda 5-FU ning zaharlilik xususiyatini kamaytirish uchun, unga dastlab formalin ta'sir ettirildi va metilol guruh saqlagan 5-FU ning birikmasi olindi. So'ngra shu birikmaga turli karbon kislotalar (chumoli, sirka va benzoy) bilan ishlov berilganda 5-FU ning hosilalari sintez qilindi. Olingan mahsulotlarning tahlili IQ, UB, YuSSX va gaz xromatografiyasi usullari orqali o'rganildi.

Kalit so'zlar: 5-Ftoruratsil (5-FU), chumoli kislota, sirka kislota, benzoy kislota, N,N'-disiklogeksilkarbodiimidi (DCC), N,N'-dimetilaminopiridin-4 (DMAP), metanol.

Kirish. Bugungi kunda tibbiyot sohasida turli kasalliklarning paydo bo'lishi va ularning ba'zilarini o'lim bilan tugayotganligi hammamizga ma'lum. Ularga misol qilib saraton kasalliklarini keltirishimiz mumkin. Bu kasallik bilan odamlar ancha yillardan buyon kurashib kelmoqda va bu kasallik bilan davolanayotgan bemorlar soni ham kundan kunga ko'payib bormoqda. Bu ishda saraton kasalliklariga kuchli qarshilik qiluvchi 5-ftoruratsilning zaharlilik xossasi yuqori bo'lganligi sababli uning hosilalarini sintez qilishga qaratilgan. Buning natijasida biologik faolligi saqlangan holda, toksikologik xususiyatini susaytirish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 5-FU - pirimidin asosidagi geterosiklik aromatik organik birikma bo'lib, u uratsildagi beshinchi uglerodga bog'langan vodorod o'rniga ftor atomi almashinishidan hosil bo'lgan uratsilning analogidir [1]. 5-Ftoruratsil (5-FU) saraton kasalliklariga qarshi keng qo'llaniladigan dori vosita hisoblanadi. 1957 yildan buyon u yo'g'on ichak saratonini davolashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek u ko'krak, bosh va bo'yin kabi boshqa saraton kasalliklari bilan og'rikan bemorlarda ham qo'llaniladi [2]. 5-Ftoruratsil o'sma kasalliklariga qarshi samarali vositadir, lekin u bir paytning o'zida kuchli

zaharli xususiyatiga ham egadir. Jumladan 5-FU qattiq o'smalarning keng doirasini davolashda qo'llanilgan, ammo 5-FU dan foydalangan bemorlarda, o'g'iz va ichakning yallig'lanishi, ko'ngil aynishi, qusish kabi salbiy ta'sirlar keltirib chiqarilgani o'rganilgan [3].


Farmasevtika sohasini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi yuqori samarali va zaharlilik xususiyati kam bo'lgan dori vositalarini maqsadli sintez qilishdir. Turli xildagi biologik faollikka ega bo'lgan yangi dori vositalarini ishlab chiqish va ular ustida tadqiqotlar olib borish, yuqori samaradorlikka ega bo'lgan yangi birikmalarni aniqlashga zamin yaratadi. 5-FU ning ilk sintezidan buyon tadqiqotchilar saratonga qarshi dori sifatida 5-FU ning yangi hosilalarini ishlab chiqishga harakat qilishmoqda. 5-FU ning ta'sir qilish mexanizmi uning RNK va DNKga qo'shilishi bilan bog'liqdir [4]. Dastavval ular turli xil sitotoksik metabolitlarga aylanadi, keyin esa ular RNK va DNKga qo'shiladi, natijada hujayralarning DNKni sintez qilish qobiliyatiga to'sqinlik qilish orqali hujayra siklining to'xtatilishiga olib keladi.

5-FU hosilalaridan biri kapesitabin bo'lib, u birinchi marta 1992 yilda sintez qilingan va keyin 1998 yilda saratonga qarshi dori sifatida foydalanish uchun ruxsat etilgan. Kapesitabin turli xil saraton turlarini, jumladan, ko'krak saratoni, yo'g'on ichak va oshqozon saratonini davolash uchun ishlatiladigan dori vositasidir. Ushbu preparat saraton hujayralarining o'sishi va ko'payishiga to'sqinlik qiladi hamda bu o'simta hajmini kamaytirishga va bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga olib keladi. Kapesitabin tibbiyotda saratonga qarshi keng qo'llaniladigan xavfsiz va eng samarali dori vositalaridan biridir [5].

Biroq, 5-FU ning salbiy xususiyati yuqori bo'lganligi sababli u suyak iligi, oshqozon-ichak va markaziy asab tizimining faoliyatiga jiddiy ta'sir qiladi va uni terapevtik qo'llashda ma'lum cheklovlar mavjud. 5-FU ning terapevtik miqdori uning zaharlilik miqdoriga juda yaqin bo'lib, uning klinik qo'llanilishi sababli ko'ngil aynishi, qusish, diareya, soch to'kilishi, oq qon hujayralari va trombositlar kamayishi kabi nojo'ya ta'sirlarga olib kelishi mumkin. Bu ta'sirlarni bartaraf etish uchun 5-FU ning ko'plab modifikatsiyalari amalga oshirildi. 5-FU uglevodlar yoki lipid fraksiyalarining makromolekulalari bilan modifikatsiyalangan bo'lib bu ularning eruvchan xususiyatlarini yaxshilashga imkon beradi. Benzoy kislotasi va siklik birikmalar bilan 5-FU ning hosilalarini ko-kristallanishiga erishildi. Tegafur, karmofur va floxuridin bioaktivligi, selektivligi, metabolik barqarorligi, so'rilishi va salbiy xususiyatlari kamaygan bo'lib ular klinik amaliyotda keng qo'llaniladigan dori vositalaridir [6].

Hozirgi vaqtgacha tarkibida aminokislotalar saqlagan 5-ftoruratsilning ko'plab antikanserogen hosilalari sintez qilingan.. Masalan, 5-Ftoruratsilning aminokislotalar bilan hosil qilgan beshta yangi antikanserogen hosilalari: 5-FU-Asp, 5-Fu-Trp, 5-FU-Ser, 5-FU-Tyr va 5-FU-Phe ning fizik va kimyoviy xossalari hozirgacha o'rganilib kelinmoqda [7]. Akrilamid (A) ning 2-gidroksietil-metakrilat (GEMA) bilan kopolimerizatsiyasi natijasida suvda yuqori sorbsion xossani saqlaydigan polimer matrisalarini olish maqsad qilingan, bu esa monomerning o'zgarishi orqali muhitga 5-ftoruratsil (5-FU) ning ta'siri gidrogellarning tarkibi va o'zaro bog'lanish zichligi yordamida modulyatsiyasini keltirib chiqaradi. 5-FU ni polimerlanish jarayoni olib borilayotgan aralashmasiga qo'shish yordamida 5-FU saqlagan polimer gellar olingan [8]. Ampelopsinning kimyoviy tuzilishini o'zgartirish orqali uning barqarorligini yaxshilash uchun bir nechta tadqiqotlar o'tkazildi. Ularga misol qilib ampelopsinning monoxlorosirka kislotasi yordamida 5-FU bilan hosil qilgan birikmasini keltirishimiz mumkin. 5-Fu va ampelopsin o'rtasidagi murakkab efir kondensatsiyasi reaksiyasida sharoitlarni optimallashtirish uchun turli katalizatorlar, erituvchilar, reaksiya vaqti va reaktivlarning nisbati o'rganildi. Katalizatorlar sifatida dimetilaminopiridin (DMAP) va N,N'-disiklogeksilkarbodiimid (DCC), erituvchilardan atseton va TGF dan foydalanildi [9]. Asosan, 5-ftoruratsilning yangi hosilalarini olish, tahlil qilishda 5-ftoruratsil va turli xil karbosiklik kislotalardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. 5-FU ning zaharlilik xususiyatini kamaytirish uchun, uning turli karbon kislotalar bilan hosilalarini sintez qilishga harakat qilindi. Quyida umumiy reaksiya sxemasi keltirilgan [10].



5-ftoruratsilning bir qancha hosilalarini olish uchun biz reaksiyaning ba'zi sharoitlarini o'zgartirdik. Tajribada, 5-Fu formalin (37% eritma) bilan reaksiyaga kirishdi va 3 xil aralashma *N1*-gidroksimetilen-5-ftoruratsil, *N3*-gidroksimetilen-5-ftoruratsil va *N1*, *N3*-gidroksimetilen-5-ftoruratsil (1,2,3) olindi. So'ngra, aralashmaga karbon kislotalar ta'sir ettirib murakkab efrilar hosil qilindi (4,5,6). Tajribada, ikkita katalizatorlar: *N,N'*-disiklogeksilkarbodiimidi (DCC) va *N,N'*-dimetilaminopiridin-4 (DMAP) foydalanildi. Reaksiya mahsuloti ma'lum erituvchilarda qayta kristallandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kimyoviy moddalar va erituvchilar standart usullar bilan tozalandi. Yupqa qatlamli xromatografiya (TLC) uchun silika gel qog'ozlari Silufol, eluentlar (dietyl efir-aseton 7:3), birikma yod bug'i bilan nurlanish orqali ko'rsatildi. Flash xromatografiyasi silikagel Merck 60 F254, eluentlar - dietyl efir va aseton sistemasi yordamida amalga oshirildi. Olingan birikmalarning kimyoviy tuzilishi o'rganildi:

YuSSX : Agilent Technologies 1260, (USA), Poroshell 120 EC-C18, 2.7 μ m, 4,6 x 100 mm detektor-diod matris detektor; UB - SHIMADZU-1280, kyveta: 1x1 sm, erituvchi: metanol, Cm=1*10⁻⁵ n/V;

GX Chromatec-Crystal 9000 GC-PID (Rossiya), Kolonka: BP21(SGE) Avstraliya, kalonka uzunligi - 50m. Kolonka diametri I.D 0.32 mm, Film Thickness (plyonka eni) - 0.5 μ m, Detektor-PID (metanol-2.15);

IQ spektrlari Bruker Furey spektrometrida qayd etilgan, Invenio S-2021, ATR (4000 – 400 cm⁻¹) oralig'ida.

5-Ftoruratsil hosilalarini sintez qilishning umumiy tartibi:

Tagi dumaloq kolbaga 5-Fu (1,3 g, 10 mmol), formaldegid (37 % suvli eritmasidan 1,26 g, 15,5 mmol) va erituvchi (10 ml) qo'shildi, keyin 60 ° C da 6 soat davomida aralashiriladi. Reaksiyon aralashmadan mahsulotni (1-3) olish uchun past bosim ostida konsentratsiya qilindi. So'ngra reaksiya aralashmasiga quruq asetonitril (50 ml) va tegishli karbon kislotalar (10 mmol) hamda katalizatorlar DMAP (N, N-dimetil amino piridin-4, 80 mg, 14 mmol) va DCC (2,2 ml,

14 mmol)dan qo'shildi va aralashma 40 ° C haroratda 48-72 soat davomida aralashiriladi. Oq cho'kma filtrlanadi va erituvchi bug'lantirish orqali chiqariladi. Qoldiq etil asetatda (30 ml) eritildi va suyultirilgan xlorid kislotasi (pH = 3-4), to'yingan suvli NaHCO₃ (pH = 7-8) va suv bilan yuvildi. Organik qatlam to'plandi va natriy sulfat qo'shib suvdan tozalandi. So'ngra eritma filtrlandi va past bosim ostida konsentratsiyalandi. Biz olmoqchi bo'lgan birikmalar mos erituvchilar orqali qayta kristallandi.

1. (5-ftor-2,4-diokso-3,4-digidropirimidin-1 (2H)-il) metil formiat.

Unum: 65%, Ts: 215-220°C; YSSX Agilent Technologies 1260- (5-FU-3.04); 3.23; UB- SHIMADZU-1280; (5-FU-265 nm); 269 nm;

Chromatec-Crystal 9000 GC-PID; (metanol-2,15). 5,6 min;

IQ Bruker Furye: 3321; 1571; 3072 ;1713; 1079;1342;2925;1243;1158;


2. (5-ftor-2,4-diokso-3,4-digidropirimidin-1 (2H)-il) metil atsetat. Unum: 65%, Ts: 185-195°C; YuSSX Agilent

Technologies 1260- (5-FU-3.04); 2,99; UB- SHIMADZU-1280; (5-FU-265 nm); 267 nm; Chromatec-Crystal 9000 GC-PID; (metanol-2,15). 4,8 min;

3.(5-ftor-2,4-diokso-3,4-digidropirimidin-1 (2H)-il) metil benzoat.


Unum: 73%, Ts: 120°C; YuSSX Agilent Technologies 1260- (5-FU-3.04); 2,989; UB- SHIMADZU-1280; (5-FU-265 nm); 225 nm; Chromatec-Crystal 9000 GC-PID; (metanol-2,15). 4,85 min;

Olingan moddalarning UB - SHIMADZU-1280, Kvuta: 1*1, erituvchi: metanol, Cm=1*10⁻⁵ n/V; spektr natijalari (5-FU-268 nm); 269; 270; 272; 228.5 nm;




Chromatec-Crystal 9000 GC-PID, Kolonka: BP21(SGE) Avstraliya, kalonka uzunligi - 50m. Kalonka diametri I.D 0.32 mm, Film Thickness (plyonka eni) - 0.5 µm, Detektor-PID. (metanol-2,15). 5.6; 5.7; 4.9; 4.8 min;


Metanol




Chumoli kislotali hosila



Sirka kislotali hosila



Benzoy kislotali hosila



Xulosa va takliflar. Shunday qilib, 5-ftoruratsilning chumoli, sirka va benzoy kislotalar bilan hosilalari sintez qilindi. Olingan birikmalarning kimyoviy tuzulishi fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida o'rganildi.

ADABIYOTLAR

1. Ning Zhang, Ying Yin, Sheng-Jie Xu, and Wei-Shan Chen, 5-Fluorouracil: Mechanisms of Resistance and Reversal Strategies 2008 Aug; 13(8): 1551-1569.
2. Published online 2008 Aug 5. doi: 10.3390/molecules13081551, PMID: PMC6244944
3. Grem J.L. 5-Fluorouracil: forty-plus and still ticking. A review of its preclinical and clinical development. Invest New Drugs. 2000; (18) 299-313. doi: 10.1023/A:1006416410198.
4. Cunningham, D.; James, R. D. Integrating the oral fluoropyrimidines into the management of advanced colorectal cancer. Eur. J. Cancer 2001, 37, P.826-834.
5. Noordhuis P.; Holwerda, U.; Van der Wilt, C.L.; Van Groeningen, C.J.; Smid, K.; Meijer, S.; Pinedo H.M.; Peters G.J.- 5-Fluorouracil incorporation into RNA and DNA in relation to thymidylate synthase inhibition of human colorectal cancers. Ann. Oncol., 2004, 15, P. 1025-1032.

6. Chiara Focaccetti, Antonino Bruno, Elena Magnani, Desirée Bartolini, and all Effects of 5-Fluorouracil on Morphology, Cell Cycle, Proliferation, Apoptosis, Autophagy and ROS Production in Endothelial Cells and Cardiomyocytes. *Plos One*. 2015; 10(2): e0115686. Published online 2015
7. Petaccia M. et al - Correction: Inclusion of new 5-fluorouracil amphiphilic derivatives in liposome formulation for cancer treatment. *MedChemComm*, 2016, 7. P. 378-385
8. Ke-jun Zhang, Wu-yi Liu - Investigation of the Electrochemical Interaction Behavior of DNA with 5-Fluorouracil Derivatives. *Int. J. Electrochem. Sci.*, 2011, P 1669 – 1678.
9. Garcia, O; Blanco, M.D.; Martin, J.A.; Teijon J.M. 5-Fluorouracil trapping in poly(2-hydroxyethyl methacrylate-co-acrylamide) hydrogels: in vitro drug delivery studies. *Eur. Polym. J.* **2000**, 36, 111–122.
10. Wei-Ming Zhou, Rong-Rong He, Jian-Tao Ye, Na Zhang, De-Yu Liu. Synthesis and Biological Evaluation of New 5-Fluorouracil Substituted Ampelopsin Derivatives. *Molecules* 2010, 15, P 2114-2123; doi:10.3390/molecules15042114.
11. Zhi-Yong Tian , Gang-Jun Du , Song-Qiang Xie , Jin Zhao , Wen-Yuan Gao ,
12. and Chao-Jie Wang - Synthesis and Bioevaluation of 5-Fluorouracil
13. Derivatives . *Molecules* 2007, 12, P 2450-2457.



UDK: 615.212.3.099.543.542

Shahnoza RAJABOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti
Nigora QUTLIMUROTOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti
Nuriddin KATTAYEV,
O‘zbekiston Milliy universiteti

Toshkent farmatsevtika institute professori, k.f.d. (DSc) F.S. Jalilov taqrizi ostida

PARASETAMOLNI EKEKTROKIMYOVIY ANIQLASH USULINI ISHLAB CHIQUISH

Аннотация

Farmatsevtik preparatlar tarkibidagi parasetamolni aniqlash uchun polipirrol asosidagi elektrod ishlab chiqildi. Parasetamolni aniqlashning optimal muhiti universal buferning pH 2,81 eritmasida ekanligi siklik voltmetriya usulida aniqlandi. Parasetamolning pH 2,81 muhitdagi oksidlanish yarim to‘lqin potentsiali +0,3V ekanligi isbotlandi.

Kalit so‘zlar: Parasetamol, voltametrik tahlil, modifikatsiyalangan polipirrol elektrodi, siklik voltamperometriya.

РАЗРАБОТКА МЕТОДА ЭЛЕКТРОХИМИЧЕСКОГО ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПАРАЦЕТАМОЛА

Аннотация

Для обнаружения парацетамола в фармацевтических препаратах был разработан электрод на основе полипиррола. С помощью циклической вольтамперометрии было установлено, что оптимальной средой для определения парацетамола является раствор универсального буфера с pH 2,81. Было показано, что парацетамол обладает окислительным полувольтным потенциалом +0,3 при pH 2,81.

Ключевые слова: Парацетамол, вольтамперометрический анализ, модифицированный полипирроловый электрод, циклическая вольтамперометрия.

DEVELOPMENT OF THE METHOD OF ELECTROCHEMICAL DETERMINATION OF PARACETAMOL

Annotation

A polypyrrole-based electrode was elaborated to detect paracetamol in pharmaceutical preparations. The optimal paracetamol detection environment was found to be in a pH 2.81 solution of the universal buffer using cyclic voltametry. It was shown that oxidative half-wave of potential paracetamol of +0.3 V at pH 2.81 medium.

Keywords: Paracetamol, voltametric analysis, modified polypyrrole electrode, cyclic voltamperometry.

Kirish. Bugungi kunda dori vositalariga bo‘lgan talabning ortishi bilan yetakchi farmatsevtika kompaniyalarida har xil dori vositalari ishlab chiqilmoqda. Mavjud dori vositalarining tarkibida kimyoviy birikmalarning tarkibi sifat va miqdoriy jihatdan turlichadir. Parasetamol og‘riq qoldiruvchi dori sifatida ko‘p qo‘llaniladi. Og‘riq qoldiruvchi dorilarning tavsiya etilgan iste‘mol miqdorlari xavfsiz jihatga egaligi ma‘lum bo‘lsada, dori miqdorini oshirib yuborish sog‘liqqa xavfli ta‘siri haqida ham ma‘lumotlar mavjud. Shuning uchun turli xil tabletkalar tarkibidagi parasetamol miqdorini aniqlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Turli firmalar tomonidan har xil nomdagi parasetamol saqlagan dori vositalari ishlab chiqariladi. Ularning tarkibini aniqlashning ekspress va tanlab ta‘sir etuvchan usulini yaratish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Parasetamolni aniqlashning yuqori samarali suyuqlik xromatografiya [1-3], spektrofotometriya [4], amperometriya [5] kabi usullari adabiyotlarda keltirilgan. Jumladan, parasetamol (PAR) va kofeinni (CAF) bir vaqtning o‘zida aniqlash uchun CZTS/MoS₂/CNT gibrid nanokompozitlar asosida sensor ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan sensorni kislotali muhitda differensial impulsli voltamperometriya (DPV) usulida qo‘ziqorin tarkibidagi PAR va CAF ni aniqlashga qo‘llanilgan [6]. Temir (III) geksasiyanoferrat (II) (trunbul ko‘ki) bilan polipirrolni polimerizatsiya qilib, shisha uglerod bilan modifikatsiyalab, elektrod yaratilgan va parasetamolni aniqlash uchun elektrokimyoviy sensor ishlab chiqilgan [7]. Platina elektrodni yod kristallari bilan modifikatsiyalash asosida polikristall sensor ishlab chiqilgan. Sensorning yuzaga parasetamolni yig‘ish tezligi 50 mV/s bo‘lgan va fon elektrolit sifatida 0,5 M H₂SO₄ dan foydalanilgan. Parasetamol oksidlanishi potentsiali +0,60 V ga teng bo‘lgan. Aniqlash chegarasi (LOD) va miqdorni aniqlash chegarasi (LOQ) mos ravishda 0,046 va 0,139 ppm bo‘lib, bu usulning sezgirligini ko‘rsatgan [8]. Zeolit/grafitdan Fe (III) bilan qoplangan modifikatsiyalangan shishasimon uglerod elektrodidan foydalangan holda tabletkalar tarkibidagi parasetamolni aniqlashning sezgir va selektiv voltametrik usulini taqdim etilgan. Parasetamol oksidlanishning eng yuqori chegarasi 0,9989 va 0,01 mkM LOD tengligi va natijalarning to‘g‘ri chiziqli bog‘liqligi 0,5–200 mkM konsentratsiya diapazonida bo‘lgan [9]. Ushbu adabiyotlarda keltirilgan tadqiqotlar yuqori sezuvchanlikka va takrorlanuvchanlikka ega bo‘lsada, asboblarning qimmatbaholigi, analizni bajarish murakkabligi bu usullarni qo‘llanilishini chelaklaydi. Shuning uchun parasetamolni aniqlashning sezgir, arzon va tezkor soda usulini ishlab chiqish dolzarb masaladir. Ushbu an‘anaviy anlitik usullardan farqli o‘laroq, elektroanalitik usullar katta dinamik diapozonga yuqori sezuvchanlik, aniqligi, asbobning arzonligi bilan yuqori natijalar olishga imkon beradi.

Parasetamolni elektrokimyoviy aniqlash usullarini yanada takomillashtirish uchun qulay, arzon, selektivlikka asoslangan mikroelektrodlar yaratish muhim hisoblanadi. Shuning uchun ushbu maqola polipirrol asosida parasetamolni aniqlovchi elektrod yaratishga bag‘ishlangan.

Amaliy qism. Parasetamolning standart eritmasini tayyorlash. Parasetamol (MERCK, Sigma-Aldrich.CAS Number 103-90-2 Mr-151.16 g) parasetamolning 0.0001 M 100 ml eritmasini tayyorlash uchun standart namunasidan 0,0015 gramm aniqlikda tortib olindi va 100 ml o'lchov kolbasiga solindi. Kolbaning belgisigacha bidistillangan suv solib yaxshilab aralashtirildi. So'ngra parasetamolning 100 ml 10^{-4} M eritmasi tayyorlandi.


Qurilma: manual potentsiostat CS350 priboridan foydalanib natijalar olindi.

Polipirrol elektrodni tayyorlash. Tajriba jarayonida analitik tarozida 1g parafin va 0.15 g polipirrol qo'shib qizdirildi, suyuqlangan holatida naychaga solindi, mis sim qo'yildi, gidrolitik vannada yuvildi, 1 haftaga sovutishga qo'yildi va elektrodlar tayyorlandi.

Fon elektrolitning tayyorlanishi. Universal bufer eritmalar pH (1–12), bufer aralashmasiga 0,04 M li (H_3BO_3 , H_3PO_4 , CH_3COOH) 0,2 M NaOH eritmasidan qo'shib tayyorlandi [10].


Natijalar va muhokamalar. Parasetamolning elektrodga oksidlanishini aniqlash. Parasetamol eritmasiga siklik voltamperometriya usulida modifikatsiyalangan elektrodlar tushirilib elektrokimyoviy oksidlanishi jarayoni kuzatildi.

Parasetamolning elektrodga standart oksidlanish potensialini aniqlash uchun parasetamol eritmasiga siklik voltamperometriya [11] usulida standart platina (Pt) elektrod, solishtirma elektrod AgCl va ishchi elektrodlar tushirilib ± 0.2 V analitik signal hosil qildi. Platina elektrod yuzasida suvning oksidlanishi hisobiga peroksid va kislorod molekulalarining hosil bo'lganligi 0,008V va 0,08 Vlar orasida ko'rinadi.



Rasm-2. Parasetamolni platina elektrod bilan siklik voltamperometrik usulda aniqlash voltamperogrammasi.

Parasetamolni aniqlash metodikasi: 50 ml parasetamolning 0,1% li 1 ml standart eritmasidan yachekaga solib uning ustiga yachekaning belgisigacha 40 ml bidistillangan suv solib, 2 ta modifikatsiyalangan polipirrol elektrodleri ya'ni katod va anod hamda 1 ta AgCl elektrod tushirilib analitik signal olindi. Olingan natijalar quyidagi 2 -rasmda keltirildi.




2- rasm. Parasetamolni polipirrol elektrod bilan siklik voltamperometrik usulda aniqlash voltamperogrammasi.


Rasmdan ko'rinadiki, siklik voltamperometriyada parasetamolni aniqlaganimizda 0.2 V da analitik signal hosil qildi. Shuning uchun parasetamol oksidlanish – qaytarilish yarim to'lqin potensialiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Polipirrol bilan aniqlashda kislorod to'lqinlarining yo'qolganligini kuzatish mumkin. Parasetamolning potentsiali esa 0,2 V da platina elektrodga mosligi aniqlandi.

Fon elektrolitlar parasetamolning potensialini siljitishga ta'sirini o'rganish maqsadida harxil fon elektrolitlarda parasetamolni aniqlash amalga oshirildi. Parasetamol eritmasiga siklik voltamperometriya usulida modifikatsiyalangan elektrodlar tushirilib elektrokimyoviy oksidlanishi jarayoni kuzatildi.

Parasetamolni aniqlash metodikasi: 2 ta 50 ml yachekaga parasetamolning 0,1% li 1,0 ml standart eritmasidan, bittasi pH=2.81 li, ikkinchisiga pH=11,58 li universal bufer eritmasidan 1,0 ml solinib, yachekalarning belgisigacha bidistillangan suv bilan keltirildi, 2 ta modifikatsiyalangan polipirrol elektrodleri ya'ni katod va anod hamda 1 ta AgCl elektrod tushirildi va analitik signal olindi. Olingan natijalar 3,4- rasmda keltirildi.




3-Rasm. Parasetamolni polipirrol bilan modifikatsiyalangan elektrod bilan siklik voltamperometrik usulda aniqlashga fon elektrolitning ta'sirini o'rganish.



Rasm-4. Parasetamolni polipirrol bilan modifikatsiyalangan elektrod bilan siklik voltamperometrik usulda aniqlashda fon elektrolitning ta'sirini o'rganish.

Rasmda ko'ringanidek, yaratilgan elektrod yordamida parasetamolni siklik voltamperometriyada aniqlashda har xil fon elektrolitlar ta'sirida aniqlash amalga oshirildi. Tahlil natijalariga ko'ra parasetamolning yarim to'lqin potentsiali neytral muhitda

0,2 Voltda, pH 2,81 da 0,3 voltda, pH=11,58 da esa to'liq analitik signal olish imkoniyatiga ega bo'linmadi. Shuning uchun optimal muhit sifatida universal bufering pH 2,81 li eritmasidan foydalanildi. Bu natijalar asosida kislotali muhitda parasetamolni har xil farmasevtik preparatlar tarkibidan aniqlash imkonini beradi. Yuqoridagi natijalarga tayangan holda parasetamolni oksidlanishi quyidagicha taxmin qilish mumkin:




Ishlab chiqilgan usulning aniqligini topish uchun parasetamol har xil miqdori olindi va optimallashtirilgan sharoitlarda analitik signal olindi, bunda "kiritildi-topildi" usulidan foydalanildi.

Parasetamolionini aniqlash usuli: parasetamolning standart eritmasidan har xil miqdorda 50,0 ml yacheykaga solib, ustiga 0,04 M universal buffer eritmadan solib, belgisicha bidistillangan suv bilan keltrilib, modifikatsiyalangan elektrod va solishtirma hamda qo'shimcha elektrod tushirilib, inversion-voltamperometrikda analitik signal olindi. Natijalar matematik qayta ishlandi va 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Inversion-voltamperometrik usulda parasetamol ionlarining turli konsentratsiyalarini aniqlash				
Kiritildi, mkg		Topildi, mkg ($P=0,95; n=5; \bar{X} \pm \Delta X$)	S	Sr
parasetamol	0,5	0,53±0,10	0,016	0,030
	5,0	4,93±0,17	0,136	0,028
	7,0	7,04±0,19	0,152	0,022
	14,5	14,60±0,21	0,168	0,012
	16,3	16,21±0,22	0,173	0,011
	20,0	20,15±0,23	0,184	0,009
	30	30,02±0,17	0,016	0,001
	35	37,03±3,01	1,505	0,41



5-rasm. parasetamolning turli konsentratsiyalarini inversion-vol'tamperometrik usulda aniqlashda to'g'ri chiziqli bog'lanishni aniqlash

5-rasmlardan ko'rinadiki, parasetamolning aniqlashda to'g'ri chiziqli bog'liqlik 1,0 mkg/ml-dan 30mkg/ml oralig'ida to'g'ri chiziqli bog'liqlik mavjud, undan katta miqdorda chetlanish sodir bo'ldi.

Natijalardan ko'rinadiki, ishlab chiqilgan usul bilan parasetamolni turli farmasevtik preparatlar tarkibidan aniqlash imkoniyati mavjud.

ADABIYOTLAR

- Sayed M. et al. A comparative study for the quantitative determination of paracetamol in tablets using UV-Visible spectrophotometry and high-performance liquid chromatography //Physical Chemistry. – 2015. – Is. 17. – Vol. 1. – P. 1-5.
- Saadatmandi A., Sohrabi M. R., Fard H. K. Smart chemometrics spectrophotometry for rapid simultaneous quantitative determination of paracetamol, diphenhydramine, and phenylephrine in commercial tablet compared to high-performance liquid chromatography as a reference method //Chemometrics and Intelligent Laboratory Systems. – 2023. – Vol. 233. – P. 104732.
- Glavanović S., Glavanović M., Tomišić V. Simultaneous quantitative determination of paracetamol and tramadol in tablet formulation using UV spectrophotometry and chemometric methods //Spectrochimica Acta Part A: Molecular and Biomolecular Spectroscopy. – 2016. – Vol. 157. – P. 258-264.
- Kumar G. P. et al. Spectrophotometric determination of paracetamol using sodium bismuthate as chromogen //International Journal of Research in Chemistry and Environment. – 2012. – T. 2. – №. 1. – C. 231-235.
- Felix F. S., Brett C. M. A., Angnes L. Carbon film resistor electrode for amperometric determination of acetaminophen in pharmaceutical formulations //J. of pharmaceutical and biomedical analysis. – 2007. – Is. 43. – Vol. 5. – P. 1622-1627.
- Chetana S. et al. Cu₂ZnSnS₄/MoS₂/CNT-ternary heterostructures for .294. – P. 126869.
- Dai Y. et al. Voltammetric determination of paracetamol using a glassy carbon electrode modified with Prussian Blue and a molecularly imprinted polymer, and ratiometric read-out of two signals //Microchimica Acta. – 2016. – Vol. 183. – P. 2771-2778.
- Amayreh M., Hourani W., Hourani M. K. Voltammetric Determination of Paracetamol in Pharmaceutical Formulations at Iodine-Coated Polycrystalline Platinum Electrode //Methods. – 2021. – Vol. 16. – №. 2. – P. 103-111.
- Amare M. Voltammetric determination of paracetamol in tablet formulation using Fe (III) doped zeolite-graphite composite modified GCE //Heliyon. – 2019. – Is. 5. – Vol. 5. – P. 01663.
- Лурье, Ю.Ю. (2012). Справочник по аналитической химии. М.: Книга по Треб. С. 440.
- Гейровский, Я., Кута, Я. (1965). Основы полярографии. М.1965. 499 с.



Jamshid RUZIYEV,
Samarqand davlat universiteti assistenti,
Ilhom ABDURAXMANOV,
Samarqand davlat universiteti dotsenti. k.f.d
E-mail: Jama_889@mail.ru,

Analitik kimyo kafedrasida professori k.f.d. E.A.Abduraxmanov taqrizi asosida

ICHIMLIK SUVLARI TARKIBIDAGI KALSIY IONLARINI ANIQLASHDA IONOMETRIYANING O'RNI

Аннотация

Ushbu maqolada ishqoriy yer metallaridan kalsiy ionlarini ionometrik aniqlash uchun nanokompozit elektroaktiv plyonkalarining sintezi asosida yuqori sezgir ion selektiv elektrodlarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari hamda ularning Samarqand viloyati tanlangan hududlaridagi yer osti ichimlik suvlari tarkibidagi kalsiy ionlari konsentratsiyasini aniqlash bo'yicha rentgeno spektroskopik, kimyoviy va elektrokimyoviy (ionometrik) analiz natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kalsiy, ionometriya, elektrod, plyonka, analiz, elektrokimyo, sintez, nanokompozit, ichimlik suvlari, rentgeno-spektroskopiya.

РОЛЬ ИОНОМЕТРИИ В ОПРЕДЕЛЕНИИ ИОНОВ КАЛЬЦИЯ В ПИТЬЕВОЙ ВОДЕ.

Аннотация

В статье представлены результаты научных исследований по разработке высокочувствительных ионоселективных электродов на основе синтеза нанокomпозитных электроактивных пленок для ионометрического определения ионов кальция из щелочноземельных металлов и их рентгеноспектроскопического, химического и электрохимического определения. Приведены результаты (ионометрического) анализа концентрации ионов кальция в подземных питьевых водах отдельных районов Самаркандской области.

Ключевые слова: Кальций, ионометрия, электрод, пленка, анализ, электрохимия, синтез, нанокomпозит, питьевая вода, рентгеновская спектроскопия.

THE ROLE OF IONOMETRY IN THE DETERMINATION OF CALCIUM IONS IN DRINKING WATER

Annotation

In this article, the results of scientific research on the development of highly sensitive ion selective electrodes based on the synthesis of nanocomposite electroactive films for the ionometric determination of calcium ions from alkaline earth metals and their X-ray spectroscopic, chemical and electrochemical determination of the concentration of calcium ions in underground drinking water in selected areas of Samarkand region (ionometric) analysis results are presented.

Key words: Calcium, ionometry, electrode, film, analysis, electrochemistry, synthesis, nanocomposite, drinking water, X-ray spectroscopy.

Kirish. Yer yuzi aholisi sonining o'sib borayotganligi, shaharlarning ko'payishi va sanoat korxonalarining ko'plab paydo bo'layotganligi suv sarfini tobora oshirmoqda. Hatto sanoat korxonalarining ham toza ichimlik suvidan foydalanishi uning sanoat xom ashyosiga ham aylanib borayotganligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda ichimlik suv sifatida ishlatilayotgan suvning ma'lum qismini yer osti suvlari tashkil qiladi. Inson xo'jalik faoliyatining boshqa tarkibiy qismlari singari yer osti suvlari sifati va rejimiga kuchli ta'siri sezilmoqda. Shu sababli ham sug'oriladigan hududlarda yer osti suvlari turli darajada ifloslangan va ko'p joylarda ichishga yaroqsiz darajaga kelgan. Bir nechta tumanlarda bu muammo yanada sezilarli darajaga yetgan. Yer usti ichimlik suvlari esa doimiy analitik nazoratda bo'lishi tabiiy.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Biz umumbashariy muammo hisoblangan toza ichimlik suv taqchilligiga befarq bo'lolmaymiz. Chunki hozirgi kunda dunyoda 1,1 milliard inson toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega emas, 5 million kishi esa har yili iflos suv oqibatida kelib chiqadigan kasalliklar tufayli hayotdan bevaqt ko'z yumadi.

Sanoat korxonalarida oqava suvlarni analiz qilishda erigan va erimagan anorganik moddalarga, ifloslikning 60% miqdoriga to'g'ri keladigan organik moddalarga, muhitiga, suvning organoleptik xususiyatiga, oksidlanishi va oksigenga biokimyoviy ehtiyojga, azot, fosfor, ftor va ularning anionlari ammoniy, nitrit, nitrat, fosfat, ftoridlarga aylanishiga, xloridlarga, sulfatlarga hamda ularning ruxsat etilgan konsentratsiyalarining me'yorida ekanligiga e'tibor beriladi.

Insonlar tomonidan foydalaniladigan tabiiy suvlarda sezilarli miqdorda kalsiy birikmalari bo'lib, tirik va mineral tabiatning o'zaro ekologik ta'sirida muhim rol o'ynaydi.

Kalsiy va magniy ionlarining tabiiy suvlarini o'zaro tozalanish jarayoni, atrof-muhitning kimyoviy muvozanatlashuvini barqarorlashtirish jarayoni kabilar barchaga ma'lum va munozaralidir. Sanoatning ko'pgina tarmoqlarida ulkan hajmdagi suv yumshatiladi va natijada oqova suv bilan birgalikda aynan kalsiy va magniy ionlari tashlab yuboriladi.

Ko'p hollarda suvni yumshatishda kationitlardan (CaCl₂, MgCl₂) foydalaniladi. Bunda har 1000 m³ miqdordagi qayta ishlangan suv bilan 80 kg gacha Ca⁺² va 20 kg dan ortiq Mg⁺² chiqarib yuboriladi.

Kalsiy-selektiv elektrod - fosfor kislotasi diefirlarining kalsiy tuzlari asosidagi Ca⁺² elektrodlari eng ko'p o'rganilgan. Ca⁺² selektiv elektrodi sirt faol moddalar, gumin kislotasi anionlari, salitsilat, ftalat, fenol va karbamid ishtirokida ishlaydi. Ca⁺²

elektrodlarning qo'llanilish sohalari Ca^{+2} faollik koeffitsiyentlarini, suvning qattiqligini, CaSO_4 va CaCO_3 larning eruvchanligini aniqlash; dengiz suvidagi CaSO_4 va MgSO_4 assotsiatsilanishini tadqiq qilishdan iboratdir.

Suyuq ion almashinuvchilar sifatida kalsiy va magniy kationlarining yig'indisiga nisbatan selektiv elektrodda - fosfororganik kislotalar ishlatiladi. Bu elektrodlar potentsialning Ca^{+2} va Mg^{+2} ionlarining 10^{-1} - 10^{-4} M diapazonidagi umumiy konsentratsiyasiga Nernst bog'liqligini aniqlashga qodir. Bu elektrod suvning qattiqligini aniqlash uchun ishlatiladi. Tarkibida oltinugurt bo'lgan faol guruhlarga ega suyuqlik ion almashtirgichlari og'ir metallar ionlariga nisbatan yuqori selektivlikka ega bo'lib, ular kam eriydigan sulfidlarni hosil qiladi [1-7].

Tajribaviy qism. Ionometriya-potensimetriyaning bir qismi bo'lib, analitik qayd qiluvchi sifatida ion selektiv elektrodlardan foydalaniladi. Ion selektiv elektrod elektrokimyoviy yarim elementdan iborat bo'lib, ular uchun elektrod potentsiallari farqi "Elektrod-eritma" fazalari chegarasidagi aniqlanadigan ionning konsentratsiyasiga bog'liq.

Kalsiy ionlarini ionometrik aniqlash natijalariga xalaqit qiluvchi ionlar sifatida Cs^{+2} , Pb^{+2} , K^+ , Na^+ , Li^+ , Mg^{+2} kabilarni alohida qayd etib o'tish mumkin. Aniqlashlar orasida kalsiy selektiv elektrod kalsiy nitratning 0,001 molyar eritmasida saqlanadi. Bunda bevosita aniqlash jarayonida darajalash grafigining burchak koeffitsiyenti $26-27 \pm 1$ mV dekadaga teng bo'ldi. Bunda selektivlik koeffitsiyentining qiymati kalsiy ionlarining konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Barcha ionometrik aniqlashlarda taqqoslash elektrodi sifatida Ag/AgCl li elektroddan foydalanildi. Standart qo'shimchalar usulini qo'llaganda aniqlashni nomalum eritmaga aniq miqdordagi moddani bir martalik qo'shish usulidan foydalanib amalga oshirdik. Ushbu usulda natijalarning aniqligi va takrorlanuvchanligi jihatidan ko'pchilik analitik usullardan ustun emasligini sezdik.

Kalsiy va vitamin D ning organizmdan kamayib ketishi bugungi kunda tibbiyotdagi dolzarb muammo hisoblanadi. Inson suyaklarining metabolik kasalligi-osteoporoz suyaklar mustahkamligini susayishi va sinishlar ortishiga olib keladi. O'smirlik davrida har kuni organizmdan 400-500 mg gacha kalsiy ajralib chiqadi.

Shuning uchun organizmda kalsiy miqdorining o'zgarishini doimiy analitik nazoratda ushlab turish lozim.

Mineral tarkibi bo'yicha shakllangan diyeta, ya'ni kalsiy, magniy, kaliy, rux, selen kabilarning natriyni (osh tuzi), oddiy qand va to'yingan yog'larning ortiqcha iste'molida diabetning, yog' to'planishining, osteoporoz, yurak kasalliklarining va onkologik kasalliklarining rivojlanishini stimullaydi hamda shu bilan birgalikda tajriba klinik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kalsiy kamayib borayotganligining oldini olish bunday kasalliklarning rivojlanishini yetarli darajada kamaytiradi.

Suyuq membranalni kalsiy selektiv elektrodning membranasi erituvchi qavatidan iborat bo'lib tekshiriladigan eritmada erimasligi lozim. Aniqlanadigan ionga nisbatan yuqori selektivlik erituvchi ta'sir qiladigan kompleks ionning ham yuqori barqarorligini talab qiladi. Suyuq membranalni elektrodlarda membranadagi moddaga bitta talab qo'yiladi, ya'ni qaysidir ion membrana fazasida mavjud bo'lish qobiliyatiga ega bo'lsa, unda diffuziya qonunlari bo'yicha membranada harakatlanadi va shuning uchun bizni qiziqtiradigan ionning membranadagi harakatini ta'minlash zarur bo'ladi. Suyuq membrananing selektivligi membrana sirtida o'zga ionlarning singishini cheklanishi bilan aniqlanadi. Bunday talablarga nisbatan yuqori molekulyar massali va kam dielektrik o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan suyuq organik moddalar javob berishi mumkin.


Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Kalsiy ionlarning ion selektiv elektrodlari uchun yuqori samarali elektrod faol birikmalarini (EFB) yaratish bo'yicha dunyoda ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ushbu maqolada eritmada kalsiy ionlari miqdorini aniqlashda fosfomolibden kislotasi asosidagi kompleks tuzlardan kalsiy selektiv elektrod ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-tadqiqotlar natijalari asosida tabiiy ob'ektlar tarkibidagi kalsiy ionlari miqdorini ionometrik aniqlash natijalarining ba'zilarini keltirib o'tmoqchimiz. Samarqand Davlat universiteti analitik kimyo kafedrasida ko'p yillardan beri Samarqand viloyati tumanlaridagi xududiy yer osti va yer usti ichimlik suvlarining mineral tarkibi asosida ichishga yaroqlilik xususiyatlari analitik nazorat qilib kelinmoqda [8-11].

Ishlab chiqilgan kalsiy selektiv elektrodning selektivligini o'rganish uchun o'zga kationlar tuzlarining eritmaları metall tuzining aniq tortimini distillangan suvda eritish orqali tayyorlangan. Pastroq konsentratsiyali eritmaları 0,1 M eritmaları ketma-ket suyultirish orqali olingan.

Potensialni aniqlovchi ionni aniqlash chegarasi ($C_{\min, p}$) - berilgan ion selektiv elektrod yordamida berilgan ishonchlik bilan aniqlangan ionning minimal konsentratsiyasi. $C_{\min, p}$ ni aniqlash uchun E - pA bog'liqlikning chiziqli kesimlari ko'pincha ekstrapolyasiya qilinadi. Olingan kesishish nuqtasi absissa o'qi bo'yicha $-\lg C_{\min, p}$ qiymatiga mos keladi.

Quyidagi rasmda ishlab chiqilgan kalsiy selektiv elektrod yordamida kalsiy ionlarini aniqlashdagi eng past konsentratsiya qiymatlarini topish natijalari keltirilgan.



1-rasm. Kalsiy selektiv elektrodi yordamida kalsiy ionlarining pastki miqdoriy chegarasini aniqlash natijalari.

Ob'ektlar tarkibidagi kalsiy ionlarining miqdorini ionometrik va kimyoviy usullarda aniqlash uchun analitik namunalar Samarqand viloyatining Nurobod, Qo'shrabot, Pastdarg'om, Urgut va Payariq tumanlari hududlarida joylashgan qishloqlarning yer osti quduq va artezian suvlari hamda ariq suvlaridan olindi. Yer osti suvlarining chuqurliklari 20 metrdan 750 metrgacha bo'lib, ulardan analitik namunalar yilning turli fasllarida olingan.

Tabiiy ob'ektlar hisoblangan yer osti va yer usti suvlari, chiqindi suyuq sanoat va qishloq xo'jaligi chiqindilari tarkibidagi kalsiy ionlarini ionometrik aniqlash natijalari kimyoviy aniqlash usullari yordamida olingan miqdoriy aniqlash natijalari bilan taqqoslandi hamda jadvaldagi ionometrik aniqlash natijalari matematik statistika usullari yordamida qayta ishlandi (1-jadval).

1-jadval

Yer osti va yer usti ichimlik suvlari tarkibidagi kalsiy ionlari konsentratsiyasini ionometrik va kimyoviy usullarda aniqlash natijalari.

n=3, $\bar{p}=0,95$, 2023-yil

№	Namuna ob'ekti	Kimyoviy usullarda \bar{X} mg/l	Ionometrik usulda \bar{X} mg/l	Δ	S	Sr, %	$\Delta\bar{X}$
1	Tayloq tumani, Botbot kanali	3,41	3,38	0,03	0,0040	0,120	0,0100
2	Urgut tumani, Beshqo'ton qishlog'i	4,10	4,11	0,01	0,0065	0,161	0,0016
3	Payariq tumani, Oqqo'rg'on qishlog'i	0,15	0,15	0,01	0,0017	1,100	0,0041
4	Qo'shrabot tumani, Mayintepa qishlog'i	1,13	1,12	0,01	0,0027	0,241	0,0067
5	Qo'shrabot tumani, Solpi qishlog'i	1,78	1,84	0,06	0,0052	0,281	0,0129
6	Qo'shrabot, Zarkent qishlog'i	5,42	5,40	0,02	0,0011	0,020	0,0027
7	Nurobod tumani, Nurbuloq qishlog'i	5,21	5,61	0,40	0,0400	0,875	0,1220
8	Nurobod tumani, Murod Ochilov sihatgohi	5,92	5,72	0,20	0,1573	2,750	0,3909
9	Pastdarg'om tumani, Qorayantoq qishlog'i	2,48	2,51	0,03	0,0600	2,390	0,1490
10	Samarqand, Yangi ariq YeWO mineral suvi	4,07	4,01	0,06	0,0878	2,192	0,2184
11	Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani, Sayxun mineral suvi	16,5	10,4	0,01	0,0690	0,421	0,1710
12	Toshkent viloyati, Qibray tumani, Montella Daily mineral suvi	14,7	14,2	0,50	0,0014	0,010	0,0035
13	Namangan viloyati, Nestle Santal mineral suvi	25,4	25,3	0,10	0,6610	2,616	1,6450

Jadval natijalaridan kalsiy selektiv elektrod yordamida olingan natijalarning nisbiy standart chetlanishi kimyoviy va ionometrik aniqlash usullari uchun 0,010 dan 2,750 % gacha bo'lgan qiymatlar, ishonchlilik oraliq'i qiymatlari esa 0,0016 dan 1,645 gacha bo'lgan oraliq qiymatlarni tashkil etdi. Bundan tashqari kalsiy ionlarini ionometrik va kimyoviy analiz usullari yordamida miqdoriy aniqlash natijalarning o'zaro mosligi va farqlariga ham e'tibor qaratildi. Har ikki analitik usul yordamida olingan natijalarning farqlari 0,01 dan 0,30 gacha oraliq qiymatlarda bo'lganligini ko'rish mumkin.

Kalsiy ionlari miqdorini ionometrik aniqlash natijalarining to'g'riligini energiya dispersiv rentgen spektroskopiyasi (EDS) usuli yordamida ham tekshirib ko'rildi. Energiya dispersiv rentgen spektroskopiyasi usuli skanerlash elektron mikroskopida yoki uzatish elektron mikroskopida ob'ektlarni o'rganishda ishlatilishi mumkin, bu yerda ob'ekt yuqori energiyali elektron nurlari yordamida tekshiriladi.

Elektronlarning havo molekullari bilan o'zaro ta'sirini minimallashtirish uchun mikroskop kamerasida yuqori vakuum (10-7 mBar) yaratiladi. Rentgen detektorini sovutishni talab qiladi, uni odatda suyuq azotli Dyuar yoki Peltiyer effektiga asoslangan qurilma ishlab chiqaradi.

Elektron mikroskopning ishlashi paytida elektronlar nurlari manbadan — elektron quroldan chiqadi va yuqori kuchlanish bilan tezlashadi. Ob'ektga urilganda, ba'zi elektronlar elementning tartib raqamiga va uning kristall tuzilishidagi muhitiga qarab tarqaladi, ba'zilari ob'ekt moddasining atomlarini qo'zg'atadi va harakterli nurlanish emissiyasini keltirib chiqaradi. Elektron mikroskop detektorini (Li aralashmalari bilan Si kristallari) yordamida elektron nurlari va ob'ekt atomlarining o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan rentgen nurlanishining energiya spektrini tahlil qilib, uning tarkibi ham qo'shimcha ravishda o'rganiladi.

Ba'zi (5 ta) suv obektlari tarkibidagi kalsiy ionlari miqdorini ionometrik va EDS yordamida aniqlash natijalari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval


Nurobod, Qo'shrabot va Pastdarg'om tumanlaridan olingan yer osti suvlari namunalari tarkibidagi kalsiy ionlari miqdorini ionometrik va EDS usullarida aniqlash natijalari.

n=3, $\bar{p}=0,95$, 2022-yil

№	Namuna ob'ekti	EDS usulda \bar{X}	Ionometrik usulda mg/l \bar{X}	Δ	S	Sr, %	$\Delta\bar{X}$
1	Nurobod tumani, Murod Ochilov sihatgohi	5.52	6,21	0,69	0,0603	1,093	0,1499
2	Nurobod tumani, Nurbuloq qishlog'i	4.75	5,30	0,55	0,0447	0,943	0,1113
3	Pastdarg'om tumani, Qorayantoq qishlog'i	7.69	7,48	0,21	0,0823	1,071	0,2047
4	Qo'shrabot tumani, Solpi M.F.Y.	8.21	8,78	0,57	0,0707	0,862	0,1759
5	Qo'shrabot tumani, Zarkent shaharchasi	6.86	5,98	0,88	0,0654	0,954	0,1626

Jadval natijalaridan yer osti suvlari tarkibidan kalsiy ionlarining miqdorini ionometrik va YeDS usullarida olingan natijalari orasidagi farqlar 0,21 dan 0,88 g/litrgachani tashkil etdi. EDS usulida olingan natijalarining ishonchlilik oraliq'i qiymati natijalari esa 0,1113 dan 0,2047 gacha bo'lgan oraliqda ekanligini ko'rish mumkin. Bu esa shunday taqqoslash natijalari uchun belgilangan me'yor talablariga mos keladi.

Miqdoriy aniqlash natijalari qayd etilgan yuqoridagi suv namunalari tarkibidagi kalsiy ionlarining metallar aralashmasi bilan olingan EDS spektrlari quyidagi 2-3 rasmlarda keltirilgan.



Yuqorida keltirilgan 2-3 rasmlarda Nurobod tumani Murod Ochilov sihatgohidan (2-rasm), Nurobod tumani Nurbuloq qishlog'idan (3-rasm) olingan yer osti suvlari tarkibidagi metall va metalmas ionlari aralashmasidan kalsiy ionlarini aniqlash bo'yicha EDS spektrlari keltirilgan.

Xulosa. Ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida ishlab chiqilgan kalsiy selektiv elektrod atrof-muhit ob'ektlari, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoatda qo'llaniladigan suvlar hamda yer osti va yer usti ichimlik suvlari tarkibidagi kalsiy ionlari konsentratsiyasini ionometrik aniqlash natijalari ularni solishtirish uchun tanlangan kimyoviy va rengenospektroskopik usullarda olingan qiymatlarga ham mos keladi. Ionometrik analizlar uchun qo'llash rejalashtirilgan kalsiy selektiv elektrodning barcha texnik xususiyatlari va ularga qo'yiladigan talablarga javob berishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Никольский Б.П., Матерова Е.А. Ионоселективные электроды. // -Ленинград.: (Методы аналитической химии), 1980. - 240 с.,
2. Кулопин А.И., Матерова Е.А., Кулапина Е.Г. Твёрдоконтактные электроды с поливинилхлоридными мембранами. // Заводская лаборатория. Диагностика материалов. –2002-Т. 68, №12, –с. 3-11.
3. Шевчук И.А., Симонова Т.Н. Ионоселективные электроды в анализе природных и промышленных объектов. // Уч. Пособие. –Донецк: «Нордкомпьютер», 2007. – 2006 с.
4. Абдурахманов Е.А., Муродова Д.К., Рузиев Е.А. Электрохимический сенсор для экоаналитического мониторинга фтористого водорода в воздухе и технологических газах. // Журн. Химическая промышленност. м.83, №7. М.: 2006,–с. 343-346.
5. Печенкина И.А., Михелсон К.Н. Материалы мембран ИСЕ на основе ионофоров: проблемы и достижения. // Электрохимия. 2015. В. 5. №2. П.115.
6. Шведене Н.В., Краснов С.А., Немилова М.Ю., Григорьева А.В., Сотнезова К.М., Плетнев И.В. Ионные жидкости с анионом Н–лауроилсаркозината в мембранах ион селективного электрода // Журн. Аналит. химии 2012. Т. 67. №10. С. 929.
7. Ruziyev E.A., Ionometriya. // O'quv qo'llanma. –Samarqand: Samdu nashri, 2021.–268 b.
8. Ruziyeva L. E., Temirova G., Karimova F., Xaydarov A., Ruziyev E. A., Pulatova S. Effect of Radioactivity of Drinking Water on Human Health and its Scintillation Gamma Spectrometric Assessment. // International Journal of Health Systems and Medical Sciences. –USA. 2023. p. 1-5.
9. Ruziyev J.E., Xaydarova Ch.Y., Ruziyeva D.T., O'ralov Sh. Yer osti ichimlik suvlarining ionometrik va kimyoviy analizi xususida. // O'zMU ning 105-yilligiga bag'ishlangan “Analistik kimyoning dolzarb muammolari” Resp. ilm.–amal. anj. mater. – Toshkent. 2023. b. 63-64.
10. Ruziyev J.E., Haydarova Ch.Y., Ruziyeva D.T., Uralov Sh., Ruziyev E.A., Yer osti va yer usti suvlarining elektrokimyoviy analizi. // Miasto przyszosci research journal from Poland. –Polsha 2023. b. 208-211.
11. Ruziyeva D.T., Haydarova Ch.Y., Salimova Sh.R., Uralov Sh. Suv ekologiyasi va shahar oqova suvlarining xususiyatlari. // Eurasian journal of medical and natural sciences. –Chexiya 2023. b. 46-49.



UDK: 54.04.543.55.546.815

Laylo SAGDULLAYEVA,
O'zMU tayanch doktoranti
E-mail: laylosagdullayeva9@gmail.com

Nigora KUTLIMUROTOVA,
O'zMU proffessori, k.f.d
E-mail: n.kutlimurotova@nuu.uz

Dilnoza ISMAILOVA,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi kimyo fanlari nomzodi, PhD
E-mail: d.jalilova@mail.ru

O'zRFA O'MKI Sintetik preparatlar texnologiyasi laboratoriyasi mudiri k.f.n. A.SH.Abdurazakov taqrizi asosida

4-AMINO-5-(2-AMINOPHENYL)-2,4-DIHYDRO-3N-1,2,4-TRIAZOLO-3-THIONIC REAGENT ELECTROCHEMICAL PROPERTIES AND APPLICATIONS IN LEAD(II) ION DETECTION

Annotation

In the article, electrochemical changes in 4-amino-5-(2-aminophenyl)-2,4-dihydro-3N-1,2,4-triazolo-3-thione were studied by amperometric, chronoamperometric, cyclovoltammetric methods. The standard redox potential of the reagent on the surface of a platinum electrode was found and the factors influencing it were studied. The possibility of using 4-amino-5-(2-aminophenyl)-2,4-dihydro-3N-1,2,4-triazolo-3-thione as an analytical reagent for the lead ion is shown. The possibilities of lead complexation with the reagent 4-Amino-5-(2-aminophenyl)-2,4-dihydro-3N-1,2,4-triazolo-3-thione are presented.

Keywords: Cyclic voltammetry, chronoamperometry, 4-amino-5-(2-aminophenyl)-2,4-dihydro-3N-1,2,4-triazolo-3-thione, half-wave potential, background electrolytes.

ЭЛЕКТРОХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА И ПРИМЕНЕНИЕ РЕАГЕНТА 4-АМИНО-5 - (2-АМИНОФЕНИЛ) - 2,4-ДИГИДРО-3N-1,2,4-ТРИАЗОЛО-3-ТИОН ДЛЯ ОБНАРУЖЕНИЯ ИОНОВ СВИНЦА (II)

Аннотация

